To'g'ri va noto'g'ri karlar haqida ma'lumotlarni berishda eng avvalo to'g'ri va noto'g'ri kasrlar haqida ma'lumotlarni kiritib olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Matematikaning 5 – sinf kursida to'g'ri va noto'g'ri kasrlar haqida umumiy ma'lumotlar berib o'tilgan.

To'g'ri kasr deb – berilgan kasrning sutari maxrajidan kichik bo'lsa yani kichik sonni katta sanoga bo'lish holatiga aytiladi. Masalan: $\frac{2}{5}, \frac{3}{7}, \frac{5}{9}$.

Noto'g'ri kars deb - berilgan kasrning sutari maxrajidan katta bo'lsa yani Katta sonni bo'linmaydigan kichik sanoga bo'lish holatiga aytiladi. Masalan: $\frac{7}{5}, \frac{9}{7}, \frac{3}{2}$.

Biz kasr sonlar bobida oddiy kasrlardan ilgari ulushlarni o'rganamiz. Matematika o'qituvchimiz dosdaga kvadrat chizdi va 4 bo'lakka bo'ldi. Bir bo'lakni rangli qalamda bo'yab chizdi. Ustoz kvadratning qanday bo'lagini bo'yadi. Demak, ustoz kvadratni 4 ta teng bo'laklarga bo'lib, uni bitta bo'lagini rangli qalam bilan bo'yadi. U kvadratning 4 tadan bittasini bo'lganini bildiradi. Natural son n gu bo'lish natijasi deb aytish mumkin. Aksincha $k:n = \frac{k}{n}$ yoki $\frac{k}{n} = k:n$ ko'rinishda yozish mumkin.

Misol: $4:7 = \frac{4}{7}, 10:13 = \frac{10}{13}, \frac{3}{8} = 3:8, \frac{30}{17} = 30:17$

Har qanday natural sonni maxraji 1 bo'lgan kasr deb qarash mumkin.

$$k = k:1 = \frac{k}{1}$$

Kasr chizig'I bo'lish amalini bildiradi.

Misol: $16 = \frac{16}{1}, 24 = \frac{24}{1}$

$\frac{k}{n}$ yozuvda k va n natural sonlarga nisbatan quyidagi fikrlar bo'lish mumkin: 1) $k < n$, 2) $k > n$, 3) $k = n$ bu xollarda quyidagicha kasrlarni hosil qilamiz.

Agar $k < n$ bo'lsa, to'g'ri kasr, $k > n$, $k = n$ bo'lsa, noto'g'ri kasr hosil bo'ladi.

Surati maxrajidan kichik bo'lgan kasr to'g'ri kasr deyiladi. To'g'ri kasr doimo 1 dan kichik bo'ladi.

Surati maxrajidan katta yoki maxrajiga teng kasr noto`g`ri kasr deyiladi. Noto`g`ri kasrlar 1 dan katta yoki 1 ga teng bo`ladi.

Misol:

$\frac{4}{7}; \frac{15}{18}; \frac{19}{28}; \frac{5}{9}; \frac{16}{27}; \frac{50}{100}; \frac{65}{75}$ – to`g`ri kasrlar;

$\frac{11}{10}; \frac{20}{17}; \frac{8}{8}; \frac{26}{13}; \frac{30}{30}; \frac{18}{9}$; – noto`gri kasrlar.

Ikkita natural sonning bo`linmasi shu sonlarning nisbati deyiladi.

Misol: 5 ta olmani 2 ta bolaga teng bo`lib bermoqchisiz. Har bir bolaga nechtdan tegadi?

1-bolaga $2 + \frac{1}{2} = 2\frac{1}{2}$

2-bolaga $2 + \frac{1}{2} = 2\frac{1}{2}$

Demak, 2 yarimtadan olma tegadi. $2\frac{1}{2}$ son aralash son ekan.


Noto`g`ri kasrdan aralash son xosil qilish mumkin.

Masalan: $\frac{24}{5} = 4\frac{4}{5}, \frac{37}{10} = 3\frac{7}{10}, \frac{17}{5} = 3\frac{2}{5}, \frac{20}{11} = 1\frac{9}{11}$

Aralash sonni noto`g`ri kasr shaklida yozish mumkin.

Masalan: $4\frac{4}{5} = \frac{24}{5}, 3\frac{5}{7} = \frac{26}{7}, 5\frac{3}{4} = \frac{23}{4}$.


Venn diagrammasidan foydalaniladi. Doskaga $\frac{1}{5}; \frac{7}{8}; \frac{11}{5}; \frac{3}{8}; \frac{6}{5}; \frac{3}{5}; \frac{2}{5}; \frac{21}{8}; \frac{8}{8}; \frac{5}{5}$ kasrlar yozilib, shartlar bo`yicha doirani ichiga yozish topshiriladi:



Maxrajleri bo'yicha yozilib, o'rtadagi sohaga e'tabor qaratiladi 5 maxraji bo'yicha ikkinchi doiraga to'g'ri kasrlarga ajratib yozing:

1) $\frac{5}{8}$; 2) $\frac{13}{12}$; 3) $\frac{20}{20}$; 4) $\frac{17}{68}$; 5) $\frac{75}{100}$; 6) $\frac{38}{19}$.

Bu mashq Klaster usulida bajariladi:



O'quvchi yoshlarning kasr mavzusi haqidagi fikrlarini mustaxkamlash uchun ularga kasrlar haqidagi umumiy tushunchalardan so'ng matematika diktant yozdirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Matematik diktantlarning afzalliklari haqida gapirib o'tsam.

Matematik diktant bilimlarni nazorat qilishning mashhur shakli bo'lib, maktab matematika o'qituvchilari tomonidan faol foydalaniladi. Ushbu hodisaning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi savol beradi (og'zaki yoki yozma), talabalar esa qisqa javoblarni yozishlari kerak. Maktabgacha yoshdagi bolaga diktant vazifalarini vizual ravishda bajarish taklif qilinishi mumkin:

- kublarni qayta tartibga solish;
- ko'rsatilgan tugmalar sonini qo'shish / o'chirish;
- taqdim etilgan ob'ektlar guruhlarini solishtiring;
- ob'ektlarni ma'lum bir tarzda guruhlash.

Matematik diktantlarni tasniflashda turli mezonlardan foydalanish mumkin. Ko'pincha matematik diktantlar hal qiladigan vazifalarga muvofiq guruhlariga bo'linadi:

- matematik terminologiyani egallash;
- aqliy hisoblashni o'rgatish;
- mantiqiy savollar.

Aralashtirish uchun turli xil turlari Matematik diktantlar tavsiya etilmaydi, garchi u maqbul deb hisoblanadi. Vazifani tuzishda asosiy narsa uni ma'lum bir bolaning (yoki bolalar bog'chasida matematika haqida gapiradigan bo'lsak) bilim darajasiga moslashtirishdir.

Matematik diktant bolaning diqqatini jamlash qobiliyatini mukammal darajada o'rgatadi. Vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun chaqaloq sezilarli irodani namoyon qilishi kerak:

- topshiriqni diqqat bilan tinglang;
- nima qilish kerakligini aniqlab berishni talab qilmasdan (afzalroq!) etarlicha tez;
- javobingizni yozing (topshiriqni bajaring).

Barkamol matematik nutqni rivojlantirish matematik diktantlarning afzalliklari bilan ham bog'liq bo'lishi kerak:

- bola matematik ifodalarni to'g'ri o'qishni tinglaydi;
- tematik lug'atni boyitadi;
- arifmetik amallar va geometrik figuralarning nomlarini mustahkamlaydi.

Haddan tashqari ishlamaslik va ushbu turdagi faoliyatga qiziqishni yo'qotmaslik uchun palatangizning holatini kuzatib boring. Matematik diktantning o'rtacha davomiyligi 7 minut. Albatta, agar sizning oilangizda barcha vazifalarni bajarishdan xursand bo'lgan yosh matematik o'sayotgan bo'lsa, siz tavsiya etilgan vaqtdan ko'proq vaqt ishlashingiz mumkin. Lekin majburlash yo'q! Bu muhim, do'stlar.

Adabiyotlar:

1. B.Xaydarov “Matematika fanidan 5-sinflar uchun darslik” 1-qism. Toshkent 2020- yil
2. B.Xaydarov “Matematika fanidan 5-sinflar uchun darslik” 2-qism. Toshkent 2020- yil.
3. M.A.Mirzaaxmedov, A.A.Raximqoriyev, Sh.N.Ismoilov, M.A.To'xtaxo'jayeva “Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik” qayta ishlanga va to'ldirilgan 2-nashr Toshkent – 2017 yil

Internet manbalar:

1. <https://www.youtube.com/watch?v=5UCg7ca8ogE>
2. <https://www.youtube.com/watch?v=SBL0POpUYvQ>

O'ZLASHTIRILISHI QIYIN BO'LGAN MATEMATIK MASALALARNI O'RGATISH METODIKASI VA MAVZUNI ONLAYN TARZDA O'RGATA OLIISH USULI BILAN TANISHISH (Ulush va kasr mavzusi talqinida)

Zokirova Nargiza Sadriddin qizi

Namangan Davlat Universiteti

"Informatika" kafedrasi stajor o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada Matematika fandan o'quvchi va talaba yoshlarning o'zlashtirishlari qiyin bo'lgan masalalarning yoritish va bu masalalar nimalardan iborat ekanligini aniqlash, hamda o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan masalalarning o'rgatishda kompyuter texnologiyalari va kompyuter o'yinlaridan foydalinish usullari haqida ma'lumotlar hamda ulushlar va kasrlarning hususiy hollari, ulushlarni tushunchasining dastlab kiritilgan hollari haqida ma'lumotlar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ulushlar, ulushlarning hususiy hollari kasrlar, Oddiy Kasrlar, to'g'ri kasrlar, noto'g'ri kasrlar, o'nli kasrlar, aralash sonlar, matematik diktant.

ПОЗНАКОМЬТЕСЬ С МЕТОДИКОЙ ОБУЧЕНИЯ СЛОЖНЫМ МАТЕМАТИЧЕСКИМ ЗАДАЧАМ И СПОСОБОМ ОБУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТУ ОНЛАЙН (в трактовке предмета дроби и дроби)

Закирова Наргиза Садриддиновна.

Преподаватель-стажер кафедры «Информатика» Наманганский государственный университет

Аннотация: В этой статье студенты и младшие школьники математики узнают, что это за задачи, и как использовать компьютерную технику и компьютерные игры для их обучения, сведения и частные случаи долей и дробей, сведения о первоначально введенных случаях понятия понятия показаны акции.

Ключевые слова: Пропорции, частные случаи дробей, дроби, простые дроби, правильные дроби, неправильные дроби, десятичные дроби, смешанные числа, математический диктант.

GET TO KNOW THE METHODOLOGY OF TEACHING DIFFICULT MATHEMATICAL PROBLEMS AND THE METHOD OF TEACHING THE SUBJECT ONLINE GET TO KNOW THE METHODOLOGY OF TEACHING DIFFICULT MATHEMATICAL PROBLEMS AND THE METHOD OF TEACHING THE SUBJECT ONLINE (in the interpretation of the subject of fractions and fractions)

Zakirova Nargiza Sadriddin kizi

Trainee teacher of the Department of "Informatics" of Namangan State University

Annotation: In this article, students and young students of Mathematics will find out what these problems are, and how to use computer technology and computer games to teach them. information and special cases of shares and fractions, information about the initially introduced cases of the concept of shares are shown.

Keywords: Proportions, special cases of fractions, fractions, Common Fractions, proper fractions, improper fractions, decimals, mixed numbers, mathematical dictation.

Boshlang'ich maktabda ulushlar va kasrlar bilan dastlabki tanishishni 5 sinfda kasrlarni o'rganishga tayyorgarlik sifatida qarash lozim.

To'rt yillik boshlang'ich maktablarning 3-sinf dasturida sonning ulushini va ulushga ko'ra sonning o'zini topish masalasi qaraladi. 4-sinfda esa sonning birnecha ulushlarini topishga doir masalalar echiladi.

Ulush va kasr nima? "ulush va kasr" tushunchalari bolalar uchun odatdan tashqari tushunchalar bo'ladi. Bu tushunchalarni o'zlashtirib olish uchun o'qitishning to'la ko'rgazmali qilish zarur Amaliyotda eng ko'p qog'oz tasmalar, chiziqlar, kasr sanog'i, tsilindrlar qo'llaniladi. O'qitishning birinchi bosqichda bu ko'rsatma qo'llanmalardan foydalanishning kamchiligi shundaki, bo'lishdan keyin qolgan masalan, qog'oz tasmalar bo'laklarining o'zlari shakli bo'yicha dastlabki tasmalarga o'xshash bo'lib, ularni yana butun birlik sifatida qabul qilish mumkin. Shu sababli dastlabki vaqtlarda shunday narsalarni olish kerakki, ularning bo'laklari shakli bo'yicha butun narsa sifatida qabul qilish mumkin bo'lmasin. Bunday narsalar doiralar, kvadratlar, to'g'ri to'rtburchaklar, uchburchaklar bo'lishi mumkin. Lekin faqat geometrik figuralarning o'zidan foydalanish xatdan tashqari bir xillika olib keladi. Kartoshka, olma, turp va boshqa ko'rsatma qurollaridan foydalanish kerak. Qog'oz tasmalar, chiziqlar, cho'plar shunday ko'rsatma qo'llanmalardan foydalaniladi, ularni shunday qo'yish kerakki, narsaning tagida uning qismlari, bo'laklari tursin va bolalar narsaning butun va kasr qismlar orasidagi farqini ko'rib tursinlar.

Kasr va ulush ta'riflari va ularni taqqoslash.

"Ulush" nima? Agar berilgan ob'ektni (narsani, narsalar to'plamini) bir necha teng bo'laklarga bo'lish mumkin, u holda bu bo'laklarning har biri ob'ektning (narsaning, narsalar to'plamining) ulushi deb ataladi. Ulush ikkita natural son va chiziqcha yordamida yoziladi. $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{3}$, $\frac{1}{4}$, $\frac{1}{7}$...

Chiziqcha ostidagi son ob'ekt necha bo'laklarga bo'linganligi chiziqcha ustidagi son esa bunday bo'lakdan bitta (ulush) olinganligini bildiradi.

Kasr yoki (kasr son) deb shunday natural sonlar juftligiga aytiladiki, ulardan chiziqcha ostida yozilgan ob'ekt nechtdan bo'lakka bo'linganligi, ikkinchisi

chiziqcha ustiga yozilgani esa hosil bo'lgan ulushlardan nechitasi olinganligini bildiradi: $\frac{3}{4}$, $\frac{4}{5}$

Ulushlar va kasrlarning ta'riflarini solishtirish ulush kasr sonining xususiy holi ekanligini ko'rsatadi. Ta'riflarda biz bilib turib "surat", "maxraj" so'zlarini ishlatmadik, chunki bu boshlang'ich maktablarda ishlatilmaydi. Bu erda shuni aytish kerakki, kasrlarni chiziqcha bilan yozuvi va ularning o'qilishi masalan, (to'rt dan uch, to'qqizdan etti) va hokazolar. Eramizdan avvalgi VII asrda Hindistonda keyinchalik u Evropaga (XII -XIII asrlar) o'tgan.

Yosh pedagog-o'qituvchilar yo'l qo'yadigan xatolik va hokazo yozuvi nimani bildirishini tushuntirishda sodir bo'ladi. O'qituvchilar ko'pincha bitta narsani ikkita (uchta, beshta) teng bo'lakka bo'lingan deb aytishadi. Bunday tushuntirish keyinchalik $\frac{3}{5}$... yozuvini tushuntirishni qiyinlashtiradi, shuningdek, sonning ulushlarini topish masalasini echilishini tushuntirish qiyinlashtiriladi.

Ulush tushunchasini kiritilishi o'quvchilarda bunday kirish suhbatini yordamida asoslab berish zarur:

"Qarang, bolalar, mana bu bir bosh sarimsoq, piyoz. Agar uning ustki po'stini olib tashlasak, bir nechta "tishchalarni" yoki ulushlarni ko'ramiz, agar apelsinning po'stini archsak, u 10 ulushga oson bo'linadi. Demak, tabiatda butun narsa ko'pincha bir necha bo'laklarga bo'linadi, mehnat faoliyatida odamlarning ham bir narsani ko'pincha bir nechta teng bo'laklarga bo'lishga (qirqishga, kesishga, ajratishga) to'g'ri keladi.

Masalan, duradgor bir nechta taxtasi bo'la turib, har bir taxtani bir nechta teng, bir xil bo'laklarga ajratishga to'g'ri keladi, bog'bon gulzorini teng bo'laklarga bo'ladi. Narsa teng bo'laklarga bo'lingan holda u ulushlarga ajratilgan deb aytiladi. Ulushlarga har doim ham ajratish mumkin bo'lavermaydi.

Masalan, piyolani teng ajratish mumkin emas. Biroq olmani, kartoshkani, gazlamani va hokazolarni bo'lish va bu holda ulushlar haqida gapirish mumkin.

Ulushlar bilan mehnat darsida o'qituvchi raxbarligida aplikatsiya ishlarini o'tkazish vaqtida tanishtirish mumkin.

"Ulush bilan tanishtirish" darsidan parcha:

Darsning maqsadi: $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{4}$, $\frac{1}{8}$ bilan ko'rsatmali tushuntirish, ulushlarini o'qish va yozishni o'rgatish; ulushlarni taqqoslashga o'rgatish.

Ko'rsatma qo'llanmalar: rangli qog'ozdan tayyorlangan diametr 10 sm, li to'rtta doira, rangli qog'ozdan tayyorlangan uzunligi 10 sm, va yoni 1 sm. bo'lgan to'rtta qog'oz tasma, rangli qog'ozdan tayyorlangan tomoni 10 sm. bo'lgan 4-ta kvadrat, albom varag'i.

Darsning borishi (kirish suhbatiga qarang).



O'qituvchi: Mening qo'limga 2 doira bor (tayyorlab qo'yilgan to'plamdan 2 bir xil rangli doirani ko'rsatadilar) Doiralalar bir xilligini qanday tekshirib ko'rish mumkin? (Doiralarning bir-birini ustiga qo'yish kerak. Ular ustma-ust tushadi, demak, bir xil). Butun doirani varaqqa olib yopishtiramiz. Ikkinchi doirani 2 ta teng bo'lakka bo'lamiz. Buning uchun doirani bo'laklarini hamma nuqtalari bilan ustma-ust tushadigan qilib bukamiz. Doirani qirqamiz. Nechta bo'lak hosil bo'ldi? (Ikkita bo'lak). Bular qanday bo'laklar (Teng).

Har bir bo'lak doiraning ikkidandan bir bo'lagi yoki doiraning yarmi deb ataladi. Shundan keyin o'qituvchi: biz yangi sonlarni yozishni o'rganamiz. Gorizontal chiziqcha narsani teng bo'lakka bo'lganimizni bildiradi. CHiziqcha ostiga doirani nechta teng bo'lakka bo'lganimiz (2ta) yozamiz, chiziqcha ustiga esa necha bo'lak olganimizni (1ta) yozamiz. Bunday yozuvini hosil qildik $\frac{1}{2}$. (quyidagini bildiradi, doiraning ikkidandan bir ulushi yoki 2 doiraning yarmi). Doiraning yarmini mendagi sxemaga o'xshatib qog'ozga yopishtiring.

Yana bitta doira oling, uni teng ikkiga buklang va yana teng ikkiga buklang. Endi yoying. Doirani nechta teng bo'lakka bo'ldik (To'rttaga). Har bir bo'lak 4 dan 1 ulush deb ataladi. Ulushni qirqib oling va qog'ozga elimlab yopishtiring. Yozamiz: $\frac{1}{4}$. Bu yozuvni doiraning (4 dan 1ulushi) qisqasi bunday aytiladi: doiraning choragi.

Doiraning sakkizdan bir ulushini hosil qilish bo'yicha ish ham shunga o'xshash o'tkaziladi. Mustahkamlash kvadratiga teng bo'laklarga bo'lishi va ulardan $\frac{1}{2}$ $\frac{1}{4}$ $\frac{1}{8}$ ni yozish yordamida mustahkamlanadi (bu ulushlar varaqqa yopishtirilmaydi). Shundan keyin bolalar 10 sm. uzunlikdagi qog'oz tasmani oladilar va ularga chizg'ich yordamida 2 sm. dan qo'yib chiqadilar.

O'qituvchi: tasmani nechta bo'lakka bo'ldingiz (5ta bo'lakka). Har bir bo'lak qanday o'qiladi? (Tasmaning beshdan bir ulushi). Butun tasmada nechta beshdang bir ulush bor? (5ta). Undan bir ulush bilan ham ish shunga o'xshash o'tkaziladi. Darsning so'ngida o'qituvchi ulushlarga bo'lingan figurani ko'rsatadi. O'quvchilar esa bu ulushlarni ko'chirib oladilar.



$$\frac{1}{10} = 0.1$$

Ulushlar doskada tez yozish va ularni to'g'ri o'qish uchun jadval tayyorlab olish mumkin.

Jadvaldagi kichik cho'ntakcha uchun 1, ..., 9 raqamli kartochkalar va katta cho'ntak uchun kvadrat, doira, uch burchak, to'g'ri to'rtburchak nomlari yozilgan kartochkalar tayyorlab qo'yilgan. O'qituvchi kartochkalarni oladi, cho'ntaklarga soladi va ulushni o'qiydi. Bunday ishda o'qituvchi ulush biror narsani bo'lagi ekanligiga bolalarning e'tiborini qaratadi.

Pirovarida o'qituvchi figura tengmas bo'laklarga bo'lingan kartochkani (yoki bir nechta o'xshash kartochkalarni ko'rsatadi) va bo'yalgan bo'lakni nomini aytishni so'raydi.

Ba'zi o'quvchilar uch burchakning ikkidan bir bo'lagi deb aytadilar. Biroq ulush nima ekanligini tushunib olgan o'quvchilar sxemadagi bo'laklar tengmas bo'lganligi uchun shunday ulushlar yo'qligini farqlaydilar.

Ulushlarni taqqoslash kvadratni ulushlari yordamida o'tkazadi. Ulushlarni bir-birining ustiga qo'yib quyidagilarni aniqlaymiz:

$$\frac{1}{2} > \frac{1}{4} ; \quad \frac{1}{8} < \frac{1}{2}$$

Ulushlar ortib borish tartibida yozamiz:

$$\frac{1}{8}, \quad \frac{1}{4}, \quad \frac{1}{2}$$

O'qituvchi: chiziqcha ostidagi sonning o'zgarishi bilan ulushning qanday o'zgarishiga e'tibor bering. Birgalikda harakat qilinib bunday xulosaga kelinadi. Chiziqcha ostidagi son qanchalik kichik bo'lsa, ulush shuncha katta bo'ladi: ya'ni figurani qancha kichik sondagi teng bo'laklarga bo'lsak, ulush shuncha katta bo'ladi.

3-sinfning navbatdagi matematika darsida ulushlarning topishga doir masalalar echiladi.

Mehnat darsida tayyorlangan sxema amaliy mashqlarda tayanch bo'ladi. O'qituvchi : Sxemaga qarang, doiraning to'rtidan bir ulushini qanday hosil qilish mumkin? (Doiraning to'rtta teng bo'lakka bo'lish kerak) 8ta kvadratni sanab oling. 8ta kvadratning $\frac{1}{4}$ ulushini qanday hosil qilish mumkin? (8ta kvadratni 4 ga teng 4 bo'lakka ajratish kerak) Ajrating. Chorakda nechta kvadrat hosil bo'ldi? (2 kvadrat).

Javobini qanday hisoblab topish mumkin? (Bunday qilish kerak $8:4=2$)

Doska oldida ishlash: 15ta daftar ol. Bu daftarni uchdan bir qismini shkafga qo'y. Uchdan bir qismini qanday topish mumkin. (Daftarning uchta teng barovardan qilib ajratish kerak) 15ning $\frac{1}{3}$ ulushini qanday hisoblash kerak? (Bunday qilish kerak $15:3=5$)

Xulosa:

Sonning ulushini bo'lish bilan topiladi. Bu xulosa amaliy ishlar bilan mustahkamlanadi.

1. Daftaringizda uzunligi 9 sm bo'lgan kesma chizing. Kesmaning uchdan bir ulushini ko'rsating. Bu ulushni hisoblang, o'lchash bilan tekshiring.

2. Uzunligi 12 sm bo'lgan qog'oz tasma o'lchab oling. Uning teng ikki bo'lakka bo'ling. Tasma yarmini uzunligi nimaga tengligi hisoblang. Hisoblaganingizni o'lchash bilan tekshiring.

Keyinchalik sonning ulushi topishga doir masalalar og'zaki va yozma ishlarga kiritilishi kerak. Bunday topshiriqlardan bir nechta namuna keltiramiz.

Bu figuralarni har bir nechta teng bo'lakka bo'linganligini sanang. Figuraning shtrixlangan ulushining nomini ayting.

2. Qaysi katta $\frac{1}{5}$ ni, yoki $\frac{1}{10}$? Doiraning $\frac{1}{10}$ ni hosil qilish uchun doiraning $\frac{1}{5}$ dan nechta olish kerak?

Butun doirani hosil qilish uchun $\frac{1}{10}$ doirada nechta olish kerak?

3. Maktab darvozasidan maktab eshigigacha 50 m. O'quvchi bu masofaning $\frac{1}{5}$ qismini bosib o'tdi. U yana qancha yurishi kerak?

4. Gazlamaning bo'lagini uzunligi 75m. Bu bo'lakni $\frac{1}{3}$ qismi sotildi. Bo'lakda necha gazlama qoldi?

5. Mixning uzunligi 35 sm bo'lgan simning $\frac{1}{5}$ qismini tashkil etadi. Bu simdan nechta shunday mix yasash mumkin? Mixning uzunligi qancha?

Soni uning ulushi bo'yicha topishga doir masallarda avval bevosita namoyish etish mumkin bo'lgan masalalarni olish kerak.

Tuzilgan sxema bo'yicha suhbat o'tkazamiz: "Men doiraning qanday ulushini ko'rsatmoqdaman? ($\frac{1}{2}$) Butun doirada nechta yarim doira bor (Ikkita yarim doira) Endi doirani qanday ulushini ko'rsatayapman? ($\frac{1}{8}$) Butun doirada nechta sakkizdan bir ulush bor. (Sakkizta)

Masala: Kitobning $\frac{1}{8}$ bu 3 sahifa. Butun kitobda nechta sahifa bor? (O'qituvchining ko'rsatgich tayyog'i sxemada) ko'pmi yoki kammi? (Ko'p) Necha marta ko'p (8 marta) (Butun kitobda necha sahifa bor ekan (24 sahifa). Qanday hisobladingiz? ($3 \cdot 8$) to'g'ri.

Demak, 3 sahifa bu sonning sakkizdan bir ulushi. Butun sonning topish uchun ulushning qiymatini ulushlar soniga ko'paytirish kerak ekan. Masalan. Po'lat sim bo'lagidan 4 sm kesib oldi.

Bu butun bo'lakning uchdan biri. Sim bo'lagini uzunligi qancha edi:

Po'lat kesib olgan sim bo'lagini tasvirlaymiz (uzunligi 4 sm. bo'lgan kesma chiziladi). Kesib olingan bo'lak kesmaning qanday qismini tashkil qiladi? (3 dan birini). Butun bo'lakni qanday tasvirlash mumkin (4 sm uch marta olish kerak). Nega? (4sm -bu simning uchdan biri. Butun bo'lakda esa uchdan uch ulushi bor) Chizing. (Bajarishadi). Bo'lakning uzunligi qancha edi? (12sm.) Qanday bildingiz? (4x3). O'lchash bilan tekshiring. Echimning yozuvi $4 \times 3 = 12$ javob: 12 sm. Xulosa. Sonning o'zini ulushi bo'yicha topamiz.

Navbatdagi darslarda bunday masalalar echiladi.

1. Bloknot 8 tiyin turadi. Bloknotning bahosi kitob bahosining $\frac{1}{4}$ qismini tashkil etadi. Kitobning bahosi qancha? (Bloknot arzonmi yoki kitobmi. Kitobning bahosini qanday bilish mumkin?)

2. Agar sonning $\frac{1}{3}$ qismi 30 ga teng bo'lsa sonning o'zini toping.

3. Noma'lum son 85 va 40 sonlari ayirmasining $\frac{1}{3}$ iga teng

Bu soni toping.

Bundan keyin sonning o'zini ulushiga ko'ra topish va sonning ulushini topishiga doir masalalar ajratilib beriladi va og'zaki echish uchun ham, yozma echish uchun ham taklif etiladi. Bolalar miktorning ulushini aniq tassavur eta olishlari uchun aniq mazmunlimasalalarni echish foydalidir (bir chelak suvni uchdan biri, bir savat olmani choragi. Gazlamaning bo'lagini beshdan biri, metrni yuzdan bir ulushi va hokazo). Ulushlarga doir misollar va masalalar II-sinf darsligining 199-betida, 3-sinf darsligining 47,249,257,259,262,272 betlarida berilgan.

Kasr nima? 4-sinfda tanishtirish tartibida kasrlar bilan - sonning bir nechta ulushlari bilan tanishamiz.

Kasrlarni mustahkamlash uchun bolalar berilgan rasmlar bo'yicha qanday kasr tasvirlanganligini aytadilar va yozadilar.

O'quvchilar bunday tushuntirishda to'g'ri to'trburchak burchakning 9 ta teng bo'lakka bo'lingan. 9-chiziqcha ostiga yozamiz, 4 ta ulushi bo'yalgan. 4 ni chiziqcha ustiga yozamiz. Kasr hosil bo'ladi: $\frac{4}{9}$



Kasrlarni aniq ma'nosini tanlab olishda kasrlarni taqqoslashga doir mashqlar yordam beradi.

Kasrlarni taqqoslash uchun odatda to'g'ri to'rtburchaklar tasvirlangan rasmlardan foydalaniladi.

Bolalar daftarlarda bo'yi 16 sm. 1 sm. bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizadilar. Bu bitta to'g'ri to'rtburchak.

Yozamiz.

Birinchi to'g'ri to'rtburchak bir sonini yozamiz.

Birinchi to'g'ri to'rtburchak tagida xuddi shunday ikkinchi to'g'ri 4 burchakni chizing va uni ikkita teng bo'lakka bo'ling. Ulushlar hosil qildingiz? (1) .

Butun to'g'ri to'rtburchagda nechta ikkidandan bir ulush bor?

Pastroqda ikkita shunday **uchta** to'rtburchak chizing. Uni to'rtta teng bo'laklarga bo'ling. Har bir bo'lak qanday ataladi? Eching. Ikkidan bir kattami yoki to'rttdan bir? Ikkidan birmi yoki to'rttdan ikkimi? To'rttdan birmi yoki to'rttdan uchmi? Ikkidan ikkimi yoki to'rttdan uchmi? Pastroqda yana to'g'ri to'rtburchak chizing. Bu to'g'ri to'rtburchakni sakkizta teng bo'lakka bo'ling.

Hosil qilingan ulushlar qanday ataladi? Butundan nechta sakkizdan bir ulushi bor. To'g'ri to'rtburchakning to'rttdan biri, yarmida nechta sakkizdan bir ulush bor?

Qaysi biri katta : $\frac{3}{8}$ mi yoki $\frac{1}{4}$.

Qanday kasr teng.

Bu savollarga bolalar rasmga qarab javob beradi.

Mustahkamlash uchun ushbu mashqlar beriladi.

1) “- >”, “<”, “=” ishorasini ko'ring. $\frac{3}{8} \bullet \frac{3}{4}$, $\frac{4}{5} \bullet \frac{1}{2}$, $\frac{4}{8} \bullet \frac{1}{2}$.

2) Tenglik (tengsizlik) to'ori bo'ladigan sonni topib qo'ying:

$$\square \square = \frac{1}{2}, \square \frac{3}{8} > \frac{1}{4}, \square \frac{1}{2} < \frac{1}{4}$$

Bu topshiriqlarga javoblarni kesma ustida ish bajarib va bunday mulohaza yuritib topadilar.

"Kesmaning uchdan sakkiz kasrni tasvirlayman, buning uchun kesmaning 8ga teng bo'lakka bo'laman va shunday bo'laklardan 3-sini olaman. Shunday kesmada $\frac{3}{4}$ kasrni tasvirlayman. Buning uchun kesmani 4 ta bo'lakka bo'laman, va shunday bo'laklardan 3-tasini olaman. Kesmalarni taqqoslayman. $\frac{3}{8} < \frac{3}{4}$ ekani shunday ko'rinib turibdi. Demak, “<” belgisini qo'yaman. Qog'oz tasmalar bilan amaliy ishlar bajarib, o'quvchilar kasrlarni kamayish yoki ortish tartibida joylashtirib taqqoslashlari mumkin.

Bolalarning e'tiborini mana bu faktga kiritish mumkin. Agar sur'atlar bir xil bo'lsa u holda maxraji kichik kasr katta bo'ladi. Agar maxrajlari bir xil bo'lsa, u holda sur'at katta, kasr katta bo'ladi. Bunday mashqlar foydali: Minutlarda ifodalang: $\frac{1}{3}$ soat, $\frac{1}{2}$ soat;

Kilogrammlarda ifodalang: $\frac{1}{10}$ ts, $\frac{9}{10}$ ts;

Metrlarda ifodalang: $\frac{2}{5}$ km

Sekundlarda ifodalang: $\frac{2}{10}$ min, $\frac{1}{5}$ min;

Tiyinlarda ifodalang: $\frac{3}{10}$ so'm;

Qanday hisoblaganingizni tushuntirib bering.

Bajarilayotgan mashqlar natijasida bunday xulosalar qilish kerak: sonning bir necha ulushini topish uchun bu sonning maxrajiga bo'linadi (bir qismini topiladi) va suratga ko'paytiriladi.

Xulosa masalalar echishda tatbiq etiladi. Mantyorda 12 m sim bor edi. Hamma simning $\frac{2}{3}$ qismini u ishlatdi. Montyor hammasi bo'lib qancha sim ishlatdi.

Echish: O'qituvchi rahbarligida bajariladigan rasm yordamida amalga oshiradi. 1 sm ni 1 m. uchun qabul qilib, sim bo'lagini tasvirlaymiz. (12sm). Ishlatilgan sim haqida nima deyilgan? (Hamma simning $\frac{2}{3}$ qismi ishlatilgan).

Ishlatilgan bo'lakni qanday tasvirlash mumkin?

Kesmani teng 3-ta qismga bo'lish va shunday bo'laklardan 2 qismini olish kerak.

Demak 12ni 3ga bo'lamiz. Bu bilan nimani bilamiz? (Bitta qismning uzunligini). U nimaga teng? ($12:3=4$). Keyinchi? (Shunday 2 ta bo'lakni uzunligini bilamiz $4 \cdot 2=8$ metr)

Masalalar echishda bolalar ishini faollashtiradigan turli tadbirlar o'tkazish mumkin.

1. O'qituvchi rahbarligida ishlanayotgan barcha ishlarni doskada yozib borish.
2. O'quvchi mulohaza yuritadi-o'qituvchi doskada yozib boradi.
3. Echimni bir o'quvchi izohlayotganda bolalar daftarlarga yozadilar. (Dorskaga yozilmaydi)
4. Masalani oldindan tuzilgan reja bo'yicha mustaqil echish.
5. Masalani mustaqil echib keyin tekshirish. Kasrlarga doir turli topshiriqlarni butun o'quv yilining qolgan qismida og'zaki va yozma ishlar tartibida ko'rib borish lozim.

Adabiyotlar:

1. M.A.Bantova, G.V.Beltyukova i A.M.Polevshikova "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi", Toshkent "O'qituvchi ", 1983y, (310-316 betlar)
2. M.I.Moro, A.M.Pishkalo "Методика начального обучения математике в I-III классах" "Moskva" "Prosvesheniye", 1978y (327-437 bet)
3. L.SH.Levenberg, M.G.Axmedjonov, A.N.Nurmetov "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi", Toshkent "O'qituvchi ", 1985y (337-341 bet).
4. N.U.Bikbaeva, R.I.Sidelnikova, G.A.Adambekova "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi", Toshkent "O'qituvchi ", 1996y (424-437 bet).
5. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim vazirligining axborotnomasi umumiy o'rta ta'lim standarti va o'quv dasturi. 1999 y. 7-maxsus son. Boshlang'ich ta'lim.
6. N.U.Bikbaeva, G.Adambekova va boshqalar. "Matematika 2-sinf darsligi" Toshkent "O'qituvchi" . 2003y.
7. N.U. Bikbaeva, G.Adambekova va boshqalar. "Matematika 3-sinf darsligi" Toshkent "O'qituvchi" . 2003y.

**GANDBOL DARSLARIDA DARBOZABONGA OYIN HAMDA
MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA YUKLAMA BERISH
SAMARADORLIGI**

*Kodirov Muxammadxusanbek Abdizoxid o'g'li,
Bakirov Ismoiljon Xabibullayevich
Andijon davlat pedagogika instituti, anddupi@edu.uz.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada gandbol darslarida darbozabonga oyin hamda mashg'ulotlar jarayonida yuklama berish samaradorligi bo'yicha adabiyotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Darvozabon, urish, siljish, to'pni ilish, to'pni uzatish, xujumchi, amortizatsiya.

Darvozabon jamoada eng qiyin va ma'sul vazifani bajaradi. Uning harakati faqat darvozaning xavfsizligini emas, balki xujumning natijasini ham belgilaydi. Darvozabon uchun muhimi-avvalo buyi (180-190 sm.), tezlik reaksiyasi, mo'ljallay olish, chaqqonlik, kuch, chidamlilik kabi sifatlardir. Darvozabonni dastlabki o'yin texnikasiga: turish, siljish, chalg'itishlar, to'pni qo'l, oyoq, gavda bilan qaytarish va to'pni uzatishlar kiradi.

Darvozada turishning asosan ikki turi mavjud: darvoza o'rtasida va darvoza ustunlari yonida. Darvoza o'rtasida asosiy holatda turib harakat qilish qulaydir: oyoqlar elka kengligida, sal bukilgan, gavda og'irligi ikki oyoqda baravar bo'lingan, gavdaning yuqori qismi ozgina oldinga egilgan, qo'llarning kaftlari oldinga qaratilgan holda sal bukilib, yon tomonga uzatilgan, kaftlar balandligi taxminan elka balandligiga teng yoki undan ham balandroq bo'lishi mumkin. Agar xujumchi to'p otishni burchakdan bajarayotgan bo'lsa, unda darvozabon darvoza ustuni yonida turib (oyoqlar oralig'i 15 - 20 sm), darvozaga yaqin bo'lgan qo'lini yuqoriga ko'tarib tirsak bugini salgina bukilgan bo'ladi, shunda darvozaning yuqori burchagini yopadi; ikkinchi qo'li yon tomonga uzatilgan, gavda og'irligi darvozaga yaqin turgan oyoqqa o'tkazilgan. Darvozabon hamla qilish harkatlaridan va oyoqlarni bir chiziq bo'ylab yozib o'tirish (shpagat) holatidan tez - tez foydalanishga to'g'ri keladi, shuning uchun u bu harakatlarni har tomonga bemalol bajarishni bilishi juda zarur. Uning har xil sakrashlarni bajarishi o'yinda alohida ahamiyatga ega.

Darvozabon raqiblar bilan to'p uchun kurashda ko'pincha aldash harakatlarini ishlatadi. CHalg'itish maqsadida bir tomonga egilib, keyin boshqa tomonni to'sadi, tez-tez yolg'on chiqishlarni qo'llaydi. Bunday holatlarda hujumchi to'pni darvozabon ustidan oshirib tashlaydi, lekin bunday bo'lishini oldindan kutgan darvozabon darhol orqaga qaytib, to'p yo'lini to'sishga ulguradi. To'pni ilish darvozabon o'yin

texnikasining eng muxim elementlaridan biridir. Kuchli otilgan to'pni ilish imkoni yo'q bo'lsa ham, uni qaytargandan so'ng egallab olish muximroqdir, chunki qarshi xujumga o'tish boshlanishi kerak. SHuning uchun darvozabon to'pni ilib olgani ma'qul. Lekin eng yaxshi yo'li - to'pni ikki qo'llab ilib olish. To'pni ushlab darvozabon harakatlaridagi asosiy o'rinni egallaydi. Muximi, otilgan to'pni «amortizatsiya» qilib ushlab bilish kerak. Buning uchun to'p urilganda, qo'l kaft va barmoqlarini ozgina orqaga yuborish maqsadga muvofikdir. Yaqin masofadan sapchib kelgan to'pni darvozabon ushlab olmog'i lozim. To'pni qaytarishda, ushlab olishda darvozabon bir yoki ikkala qo'lni ishlatishi, baravariga oyoq va qo'l bilan yoki gavda bilan ham to'pni qaytarishi mumkin. Yuqoridan kelayotgan to'pni darvozabon bir yoki ikki qo'llab ushlaydi. Agar to'p qaysi tarafdin kelayotgan bo'lsa, unda darvozabon to'p kiritish burchagini kamaytirish uchun shu tarafga yoki oldinga bir qadam tashlaydi yoxud sakraydi va to'pni ushlabni o'sha tomondagi qo'l barmoqlari yoki kafti bilan bajaradi. Ba'zan bu usul sakrab yiqilgan holda ham bajariladi, lekin bu maqsadga muvofiq emas, chunki 368 bunday usulni bajarishga ko'p vaqt sarflanadi, okibatda, to'pni qaytargandan so'ng darvozabon o'zining mo'ljalini yo'qotadi. Bunday harakatlarni bajarishda muvozanat yo'qotishga kam vaqt sarflab, asosiy holatda turishni saqlagan ma'kul. Darvozaning pastki qismiga otilgan to'p oyoq bilan qaytariladi. To'p kelayotgan tomon aniqlanib, darvozabon shu tomonga oyoq kaftlarini to'g'rilab, maydonga yaqin keng qadamga hamla qilishga intiladi. Bunda son va boldir orasidagi burchak 90° ni tashkil etadi. SHu tarafga oyoq bilan birga ehtiyotdan o'sha tomondagi qo'l ham cho'ziladi: boshqa qo'l esa muvozanat saqlash uchun yuqoriga ko'tariladi. Hamla qilish oxirida oyoq to'liq to'g'rilanadi va darvozabon to'g'ri chiziq bo'ylab oyoqlarini yozib, «shpagat» holatini oladi yoki ikkinchi oyoq tizzasiga tushadi, so'ng tez asosiy holatda turishga qaytadi. Eng chekka pozitsiyadan darvozaning uzoq pastki burchagiga yo'naltirilgan to'pni darvozabon shu tarafdagi qo'l va oyog'ini baravariga siltab yoki hamla qilib ushlaydi. Darvozabon tomonidan tez va aniq, uzatilgan to'p jamoaning hujumga o'tishi uchun muxim sharoit yaratishning garovidir.

Darvozabonning harakati samarali bo'lishi uchun eng to'g'ri pozitsiyasi - darvoza o'rtasi hisoblanadi. Darvoza oldida uning markazidan bir metr gacha masofa buylab harakat qiluvchi darvozabon baland «traektoriya»da kelayotgan to'pni egallashga doim tayyor bo'lishi lozim. To'p otilishini boshlashini aniqlagach, darvozabon darvoza maydoniga to'p kiritish imkoniyatini kamaytirish uchun oldinga chiqadi. Otilayotgan to'p 30° dan kichik burchak ostida bo'lsa, u holda darvozabon darvoza ustunlari yonidan joy oladi. Darvozabon hech vaqt to'pni nazoratsiz qoldirmasligi va o'z vaqtida hujumchining to'p otish usulini bu harakat boshlanishidan oldinroq aniqlashi juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gandbol. O‘quv qo‘llanma. Pavlov. SH.Abdalimov O.X. Matxaliqov.I.I// Tashkent. 2014 y.
3. Teoriya i praktika fizicheskoy kulturi. 1990. № 10.
4. Dehqonov Boxodir Burxonovich, Aminov Botir Umidovich, Maxkamov Akmaljon Yuldashevich. Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №8 (ноябрь, 2020).

ТАЛАБАЛАРНИ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯЛАШДА ЎЗБЕК ХАЛҚ МИЛЛИЙ ЎЙИНЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ПЕДАГОГИКАСИ

А.А.Қўшмонов., Х.Ш.Каримов

Андижон давлат педагогика институти, anddupi@edu.uz.

Анотация: Мақолада миллий халқ ўйинларини халқимизнинг бир неча йиллик маданий бойликлари ҳақидаги тасаввурларини маълум даражада кенгайтиради, ҳозирги ҳаётга сингдириш йўлларини бойитишга ёрдам беради. Турли ёшдаги ҳар хил жинсдаги болалар руҳиятининг ривожланиши, ўзгаришлари, уларнинг ахлоқий ва жисмоний камол топишига ижобий таъсир қиладиган омиллар, шарт-шароитларни билиш, улардан унумли фойдаланиш ҳозирги кунларда ўқитувчилар, жисмоний маданият мутахассислари учун ниҳоятда зарур бўлган маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: Миллий ўйинлар, жисмоний тарбия, педагогика халқ ўйинлари.

Жисмоний маданиятнинг комил инсонини жисмоний тарбиялашлик муқаддас вазифаларини бажаришда барча ўқув юртлари таълим тизимидаги ёш авлодни жисмоний бақувват, чаққон, иродали, ватанпарварлик руҳида тарбиялаб вояга етказиш учун жисмоний тарбия ва спорт машғулотларини Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисидаги” қонуни, “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” ҳамда “Ўзбекистонда жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қонунлари, “Ўзбекистон болалар спортини ривожлантириш жамғармасини тузиш” тўғрисидаги фармонни ва уни бажариш тадбирларига суянган ҳолда янги усулларни ташкил қилиш ва ўтказиш мақсадга мувофиқдир.

Ушбу ишлар самарали бажарилиши учун болаларнинг энг кичик ёшидан бошлаб миллий ўйинлар воситаси билан жисмоний саломатлик “пойдеворини қуриш” ни амалга ошириш мумкин. Республикада амалга оширилаётган жисмоний маданиятнинг ўз олдига қўйган мақсади соғлом, руҳан тетик ва бунёдкор инсонни ҳаётга тайёрлашдан иборат. Бу мақсад республикада жисмоний маданият билан Шуғулланувчи барча муассаса ташкилотлар учун зарурий вазифадир. Ўзбекистон республикаси Президенти Ш. Мирзияев “Биз соғлом авлодни тарбиялаб етказишимиз керак. Соғлом киши деганда фақат жисмоний соғломликни эмас, балки шарқона одоб-ахлоқ ва умумбашарий ғоялар руҳида камол топган инсонни тушунамиз”, - дейди Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг биринчи йиғилишидаги маърузасида. “Соғлом авлод учун” ордени таъсис этилганлиги, халқаро хайрия жамғармаси ташкил қилинганлиги

хам келгусида соғлом ва баркамол авлодни тарбиялаб етказишга хизмат қилади. Ҳар ким ўзини жисмонан тарбиялаши учун жисмоний маданият ва спортнинг зарурлигини тушуниб етиши ва кунт билан ўзига ёққан маълум бир жисмоний машғулотлар тизими асосида саломатлигини шакллантириши керак. Халқимиз фарзандларининг жисмоний қобилиятларини ҳар томонлама ривожлантириш тарбиянинг ажралмас қисми бўлган жисмоний маданият жараёнида амалга оширилади.

Жисмоний маданиятнинг мақсади жамиятнинг соғлом, хушчақчақ, ҳар томонлама жисмоний ривожланган, меҳнат ва ватан ҳимоясига тайёр турган курувчиларини тарбиялашдан иборат узоқ муддатли, уюштирилган педагогик жараёндр. Жисмоний маданият жараёнида қуйидаги асосий вазифалар ҳал этилади: а) соғлиқни мустаҳкамлаш организмни чиниқтириш ва жисмоний ривожланиш даражасини ҳамда иш қобилиятини ошириш; б) ҳаётга зарур бўладиган, жумладан, амалий характерга эга бўлган ҳаракат малака ва кўникмани эгаллаш; в) кишининг маънавий ва иродали сифатини тарбиялаш; г) жисмоний сифат (тезкорлик, куч, эпчиллик, чидамлик)ни ўстириш; д) махсус спорт машқини бажариш техникасини эгаллаш. Шу билан бирга ўзбек халқ миллий ўйинларини тўплаш ва уларни ҳаётга тадбиқ этиш, улардан оқилона фойдаланиш бугунги кунда олдимизда турган ҳам назарий, ҳам амалий аҳамиятга эга бўлган муҳим вазифа бўлиб ҳисобланади. Ушбу вазифа ёш авлодни соғлом ва баркамол қилиб тарбияловчи жисмоний маданият олдида ҳам катта маъсулият юклади. Ёшларни ҳар томонлама жисмоний бақувват қилиб тарбиялашга имкон берадиган, ўқувчилар жисмоний сифатларини ривожлантиришга қаратилган бу муаммони умумтаълим мактаб ўқувчилари жисмоний маданиятини ташкилий ва педагогик жараёнлар билан бирга бир-бирига боғлаб келган узвийликда кўриб чиқиш лозимлигини келтириб чиқаради, бунда миллий халқ ўйинларининг роли катта эканлигини қайта-қайта таъкидлаб ўтмоқчимиз. Шунинг учун халқимизнинг асрлардан-асрларга ўтиб келаётган миллий ўйинларини авайлаб-асраб кейинги авлодга етказиш йўлларини излаш, ишлаб чиқиш ва ҳаётга тадбиқ этиш бизнинг мақсадимиздир. Миллий халқ ўйинларини халқимизнинг бир неча йиллик маданий бойликлари ҳақидаги тасаввурларини маълум даражада кенгайтиради, ҳозирги ҳаётга сингдириш йўлларини бойитишга ёрдам беради. Миллий ҳаракатли ўйинлар жисмоний тарбиянинг энг таъсирчан усуллари билан бўлиб, ўқувчиларда ақлий, ахлоқий ва нафосат тарбиясини биргаликда муваффақиятли амалга оширишда муҳим воситадир. Шунинг учун болалар ўйинларининг руҳи, табиати, савияси, иштирокчиларнинг ҳатти-ҳаракатлари каби жиҳатларига ҳам эътибор бериш зарур.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. T. Usmonxujayev 500 Harakatli o'yinlar. Toshkent 2014.
2. E. A. Tursunqulov Jismoniy tarbiya va sport. Samarqand 2020.
3. Ziyonet talim elektron portal.

SPORTCHILARNI MUSOBAQALARGA PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASHNING IJOBIY JIHA TLARI

H.SH.Karimov., A.A.Qo'shmonov

Andijon davlat pedagogika instituti, anddupi@edu.uz.

Annotatsiya: Mazkur maqolada qo'l jangi bo'yicha sportchilarni musobaqalarga psixologik jihatdan tayyorlashning ijobiy jihatlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, qo'l jangi bo'yicha sportchilarda musobaqaga tayyorgarlikning psixologik ahamiyati tajribada isbotlangan.

Kalit so'zlar: Sport, qo'l jangi, psixologiya, ruhiy namuna, tezlik, g'alaba, musobaqa.

Qo'l jangi yurtimizda rivojlanib kelayotgan sport turlaridan biri bo'lib, jahon yakkakurash sport turlari orasida o'ziga xos nufuzga egadir. Tuman, shaxar, viloyat, mamlakat, Osiyo, jahon birinchiliklari va xalqaro turnirlar miqiyosida qo'l jangi musobaqalarini tashkillashtirib borilish natijasida mamlakatimizning barcha hududlarida bu jang turi keng targ'ib qilindi. Hozirgi paytda qo'l jangi dunyoning 100 dan ortiq davlatlarida tan olinib, sevimli sport turi sifatida rivojlanib kelayotganligi barcha qo'l jangi ixlosmandlarini quvontiradi. Qo'l jangi sportchilarini bellashuvlarga tayyorgarlik qilishlari oldindan ishlab chiqilgan turili taktik uslublar jumladan tezlik, chaqqonlik, kuchlilik, chidamlilik, g'alabaga bo'lgan iroda, temperament va uyushqoqlik sifatlarini ularning ustozmurabbiylari har tomonlama mukammallik bilan o'rgatib, sportchi-shogirtlarida kuchli ko'nikma hosil qilishlarida, o'zlarida mavjud barcha mahorat sir asrorlarini singdiradilar. Qo'l jangi bo'yicha mavjud mahorat va ko'nikmalarni rivojlantirishga oid uslublar o'ziga xos rang-barangdir. Ular to'g'risida qanchadan-qancha monografiyalar, nomzodlik dissertasiyada uslubiy qo'llanmalarda yoritilgan. Lekin qo'l jangi sportchilarining g'alabaga bo'lgan irodasini ilxomchisi bo'lmish ruxiy tayyorgarlikni ayrim mutaxasis murabbiylarimiz nazarlariga olmaydilar. Baholanki, ruxiyat murabbiyning pedagogik faoliyatidagi asosiy qismlaridan sanaladi. Shuni e'tiborga oilish kerakki, Universitet qo'l jangi sportchilar o'rtasida tadqiqot olib borishda ulardagi ruxiy jarayonlarni: sezgi, idrok, diqqatning qo'l jangi turiga xos hususiyatlari, tafakkur, tezlik-reaksiya, harakat xotirasi, xayol, irodaviy jarayonlarga xos bo'lgan xislatlar o'rganiladi. Joriy yilning 2021 yil 19-21 oktyabr kunlari Toshkent shaxar, Yunisabod tumanida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi ommaviy-sport va uslubiy tadbirlar kalendar rejasiga asosan "Qo'l jangi" sport turi bo'yicha Milliy gvardiya "Qo'mondoni kubogi" birinchilik musobaqasi bo'lib o'tdi. Musobaqa oldidan Universitet qo'l jangi terma jamoasi

sportchilarini ruxiy tayyorgarliklarini umumiy va 116 xususiy qismlarga ajratgan holda olib bordik.

Umumiy ruhiy tayyorgarlik ya'ni bu iroda, o'z-o'zini boshqarish, qat'iyat, sabot, diqqat-etibor, bir maqsadga yo'naltirilgan fazilatlar tarbiyasi xisoblansa, ruhiy tayyorgarlikning xususiy jihati shundan iboratki, sportchi musobaqaga tayyorlandi. Mahorati, sabr matonati unchalik yuqori bo'lmagan jangchi "Qo'mondoni kubogi" musobaqasida tashvishmand bo'lib qoldi, musobaqa boshlanganda ruhan tushkun holatda bo'ldi, g'alaba qozonishga bo'lgan ishonchini yo'qotdi. Jangchilarga bir xil qolibda yondoshib bo'lmaydi. Bittasini xotijam qilib qo'yish lozim, boshqasini chalg'itish kerak, uchinchisini kuldirish kerak, to'rtinchisini esa jangga umuman aloqasi yoq mavzuga jalb qildik. "Qo'mondoni kubogi" musobaqasi boshlanishidan oldin Elyor Yakubovdan "ruhiy na'muna" olish maqsadida uni savolga tutamiz. U o'z navbatida bergan savollarimizga tezlik bilan javob berishi lozim edi. Unga bergan savollarimizga tezlik javob ola boshladik.: "Quyosh?"- "Osmon!", "Kayfiyat?"- "A'lo!", "Qo'l jangi mashg'ulotlari?"- "Kombinatsiyalarga boy va tezkor!", "G'alaba?"- "Sof g'alabaga erishish!", "Mag'lubiyat?"- "Faqat g'alaba!", "Musobaqa?"- "Qo'l jangi!". Olingan "ruhiy na'muna" negzida shunga ishonch hosil qildikki Elyor Yakubovda musobaqada g'alaba qozonish uchun uning shashti o'ta baland. 65 kg vaznda turnir oldi tayyorgarlikda o'z navbatini sabrsizlik bilan kutayotgan Niyozqulov Farux ham bergan savollarimizga burro-burro javob berdi. Lekin qo'l jangi gilamiga tushishga tayyorgarlik ko'rayotgan 100 kg vazn toifasida Usmonqulov Xayriddin hamda 55 kg vazn toifasidagi jangchi Nurmonov Sanjarda o'zlarini his hayajonlarini bildirib qo'yganlarini qiyin emas edi. Ulardan ham "ruhiy na'muna" olish maqsadida savollarga tutamiz. O'z navbatida bergan savollarimizga Usmonqulov Xayriddin va Nurmonov Sanjar istar-istamas javob bera boshladilar. Javoblari sust va mayus edi: "Daryo?"- "Loyqa", "Quyosh?"- "Qora bulut", "Kayfiyat?"- "Tushkun", "G'alaba?"- "Mushkul". Bu ikki jangchilarimizga qo'yilgan tashxisdan aniq hulosalar olindi. Elyor Yakubov (80 kg) va Niyozqulov Farux (65 kg)lardan olingan "ruhiy na'munalari" ijobiyliги natijasida "Qo'mondoni kubogi" musobaqasining o'z vaznlari bo'yicha g'oliblari va oltin medallar sohiblari bo'ldilar. Olingan "ruhiy na'munalari" salbiy ko'rsatkichlarga ega bo'lgan Usmonqulov Xayriddin (100 kg) va Nurmonov Sanjar (55 kg) "Qo'mondoni kubogi" bellashuvining dastlabkilarida mag'lubiyatga uchrashib musobaqani barvaqt tark etishlariga majbur bo'ldilar. 1. Sport murabbiyining o'gitlari, qo'l jangi sportchilarining shaxsiy mulohazalari uning yoqimsiz hayollaridan o'zini chalg'itishi, diqqat e'tiborining yo'nalishi inobatga olinishi lozim.

Murabbiyning ruxlantiruvchi so'zlari qo'l jangi sportchilarining butun organizmiga va markaziy asab tizimiga ta'sir ko'rsatish vositalari taklif etilishi: nafas olish mashqlari kishini xotirjam qilishi, ruhan tushgan bo'lsa, tetiklashtirish lozim.

Ruxshunosning asosiy vazifasi va barcha qo‘l jangi sportchilarda o‘zlariga xos ishonch uyg‘otishdan iborat. Murabbiylarning eng yaqin ko‘makchisi sifatida ruxshunoslarning ro‘li beqiyos bo‘lishligi katta ahamiyat kasb etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch. –T.: “Ma‘naviyat”, 2008.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
3. Atashayxov A.A. Jangovar - jismoniy tayyorgarlik. Darslik. – T., 2016.
4. Atashayxov A.A., Xudayberganov O.K. Jismoniy tayyorgarlik. O‘quv qo‘llanma. – T., 2013.
5. Kurbonov A.S. IIO xodimlari uchun shaxsiy himoyaning asosiy usullari. O‘quv qo‘llanma. – T., 2016.
6. Gapparov X.Z. Jangovar jismoniy tayyorgarlik. O‘quv qo‘llanma – T., 2016.
7. Gapparov X.Z., Usenov E.K., Bo‘riboyev D.B., Bayto‘rayev E.I. Sambo kurashi usullari (o‘quv qo‘llanma) T., 2019 y.
8. M.A.Urdabayev., X.R.Karimov., Chinniboyev J.I., Xalmuxammedov R.D. Boks, (o‘quv qo‘llanma) T., 2019 y.
9. X.Z.Gapparov Qo‘l jangi: maxsus usullar (o‘quv qo‘llanma) –T, 2020.
10. A.I.Abdullayev, J.M.Akramov, X.Sh.Matliyev, Sh.Arslonov. “Dzyudo” (o‘quv qo‘llanma) – T, 2020.
11. X.R.Karimov. Sport o‘yinlari va jismoniy sifatlar, (o‘quv qo‘llanma). T., 2020y

СУВ ХЎЖАЛИГИ ИНШОАТЛАРИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯ ҚИЛИШНИНГ РОЛИ

Тошева Мафтуна Рустамовна

“ТИҚХММИ” миллий тадқиқот университети ассистенти

Аннотация Мақолада Россияда сув хўжалиги комплексини бошқариш муаммолари кўрсатилган ва уларни ҳал қилиш йўллари таклиф этилади. Бинобарин, сув хўжалигини модернизация қилиш комплекс ва босқичма-босқич амалга оширилиши керак.

Калит сўзлар: сув ресурслари; бошқарувнинг ҳавзавий тамойили; сувни муҳофаза қилиш; пуллик сувдан фойдаланиш; бошқарувнинг мураккаблиги

Кириш. Сув фондини давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш ва ривожлантириш бошқарув органлари тузилмасини такомиллаштириш, инвестиция жараёнини тартибга солишнинг самарали дастаклари ва механизмларини ишлаб чиқиш ҳамда сув хўжалиги ва сувни муҳофаза қилиш дастурларини барқарор молиялаштиришни таъминлаш билан боғлиқ. фаолияти, ахборотни такомиллаштириш, тартибга солиш ҳуқуқий ва илмий-техник таъминот.

Сув хўжалиги тизимидаги ягона асосланган тамойил бу маъмурий-худудий принцип билан биргаликда сув объектларидан оқилона фойдаланиш ва муҳофаза қилишни ягона табиий-хўжалик мажмуаси сифатида таъминлашга қодир бўлган ҳавзавий принципдир. сув олиш зонасининг хавфсизлиги. Замонавий маъмурий-худудий бўлиниш сув ҳавзалари ҳавзаларининг гидрографик чегараларига тўғри келмаслигини ва ҳавза тизимининг элементлари ўртасидаги мавжуд муносабатлар асосан қарама-қарши эканлигини ҳисобга олиб, дарё ҳавзасини бошқариш умумий ҳавза, сув ҳавзаси, минтақавий, шаҳар даражасида, шунингдек, индивидуал корхона даражасидаги муаммоларни ҳал қилиш тузилмасини яратиш мақсадга мувофиқдир. Ушбу тузилма қисмининг тўлиқ бажарилишини таъминлашга имкон беради федерал ижроия органи, масалан, мамлакат субъекти даражасида, худуди кичик ҳавзанинг чегараларида жойлашган, шунингдек, муниципалитет даражасида, масалан, дарёлар, дарёлар, кичик дарёлар ва булоқлар манбаларини муҳофаза қилиш[6].

Ўзбекистон Республикаси сув қонунчилигининг тамойилларидан бири ҳавза округлари чегараларида сув муносабатларини тартибга солиш принципи (ҳавзавий ёндашув) [1, 3-модда].

Ўзбекистон Республикасида сув объектларидан фойдаланиш ва уларни муҳофаза қилиш соҳасидаги бошқарувнинг асосий бўлинмаси бўлган ва дарё

ҳавзалари ва улар билан боғлиқ эр ости сув объектлари ва денгизлардан иборат йигирмата ҳавза округи қонун билан белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг 2019 йил 09 октябрдаги ПҚ-4486-сонли "Сув ресурсларини бошқариш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарорига мувофиқ, сув ресурслари соҳасидаги мулкларига давлат хизматларини кўрсатиш ва бошқариш функцияларини бажарадиган федерал ижро этувчи органдир.

Сув хўжалиги ўз фаолиятини тўғридан-тўғри ёки ўзининг ҳудудий органлари (шу жумладан ҳавзалар) орқали ва бошқа федерал ижроия органлари, Ўзбекистон Республикасининг таъсис субъектларининг ижро этувчи ҳокимиятлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, жамоат бирлашмалари ва бошқа органлар билан ҳамкорликда бўйсунувчи ташкилотлар орқали амалга оширади.[5].

ФАВРнинг ҳудудий органларига ўн тўртта сув ҳавзаси бошқармаси (БВУ) ва битта кўл сув ресурслари бўлими киради. Байкал. Шунга кўра, олтига ҳавза округи (йигирматадан) алоҳида ҳавза бошқарув органларига эга эмас.

Федерациянинг деярли ҳар бир субъектида СТБга бўйсунувчи сув хўжалиги бошқармалари ташкил этилган бўлиб, улар Федерация субъекти ҳудудида сув ҳавзалари бошқаруви ва сувдан фойдаланувчилар ўртасидаги алоқани таъминлайди.

Ушбу бирликларнинг мавжудлиги операни тақдим этиш имконини беради сув истеъмолчилари билан фаол ишлаш, катта ҳажмдаги ишларни ўзгартириш ва Федерация субъектларининг ўзлари ичидаги муносабатларнинг бир қатор масалаларини боғлаш

ушбу ташкилотларга.

Рисунок 2. – Результаты обработки данных в режиме экспресс флакметра (а) и экспресс-магнитометра (б)

Для того чтобы получить высокоэффективные ММК-частицы, также должно быть возможно подвергать электрически изолированный порошок прессованию в пресс-форме при высоких давлениях, поскольку это очень часто является желательным для получения деталей с высокой плотностью. Высокие плотности обычно улучшают магнитные свойства. В частности, высокие плотности необходимы для поддержания потерь на гистерезис на низком уровне и для получения высокой магнитной индукции насыщения.

Дополнительно, электрическая изоляция должна выдерживать необходимые высокие давления сжатия без повреждения при выталкивании спрессованной детали из пресс-формы.

Результаты, полученные при исследовании, указывают на возможность разработки новых магнитомягких композиционных материалов и перспективность их практического применения для создания различных электротехнических устройств, основной для элементов сердечника роторов и статоров электродвигателя.

Список использованных литератур

1. A.Vetcher, G.Govor, O.Demedenko, A-M. Popesku, U.Berdiev//A composite magnetik material with insulating anticorrosive coatings //Jornal Machines. Technologies. Materials. -2020. -Vol. 14, Issue 7. -P. 296-296.

2. Говор, Г.А. Композиционные магнитно-мягкие материалы на основе порошков железа и перспективы их применения в технике / Г.А. Говор, В.В. Михневич // Неорганические материалы. – 2007. – Т. 43, №7. – С. 805–807. 7.

3. U.T.Berdiev, A.K. Vecher, F.F.Khasanov, Investigation of the frequency characteristics of composite iron powders with insulating oxide coatings. «Construction Mechanics, Hydraulics and Water Resources Engineering» (CONMECHYDRO – 2021), Узбекистан, Ташкент, 1 – 3 апреля.

4. Rahman, K.M.; Patel, N.R.; Ward, T.G.; Nagashima, J.M.; Caricchi, F.; Crescimbin, F. Application of direct-drive wheel motor for fuel cell electric and hybrid electric vehicle propulsion system. IEEE Trans. Ind. Appl. 2006, 42,1185-1192.

5. Я.М.Довгалецкий. Легирование и термическая обработка магнитотвердых и магнитомягких сплавов. – М.:Металлургиздат, 2000.-178 с.

6. A U Gapparov, G A Govor, U T Berdiyev, F F Hasanov, and A M Kurbanov. Magnetic-soft materials based on iron for electromechanical engineering, IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 614 (2020) 012048.
7. Skorman B, Zhou E, Jansson P 2010 Pat. 2389099 RF, IPC N0Sh/2 Soft magnetic composites, Bull. Number 13
8. Chau, K.T.; Chan, C.C.; Liu, C. Overview of Permanent-Magnet Brushless Drives for Electric and Hybrid Electric Vehicles. IEEE Trans. Ind. Electron. 2008, 55, 2246-2257.
9. Говор, Г.А. Особенности магнитных характеристик новых композиционных материалов на основе порошков железа / Г.А. Говор, А.К. Вечер, К.И. Янушкевич // Перспективные материалы и технологии / под ред. В.В. Клубовича. – Витебск: УО «ВГТУ», 2017. – Т. 2. – С. 278–299.
10. Baratov, R., Pirmatov, N. Low - Speed generator with permanent magnets and additional windings in the rotor for small power wind plants and micro hydro power plants. IOP Conference Series: Materials Science and Engineering this link is disabled, 2020, 883(1), 012183
11. Pirmatov, N., Toshev, S. Overvoltage in the free phase of the stator winding in case of asymmetric short circuit implicit pole synchronous generator biaxial excitation. E3S Web of Conferences, 2019, 139, 01030
12. Нуриддинов, С. Б. Статистика отказов и анализ повреждаемости электрических машин / С. Б. Нуриддинов, Б. К. Авазов, К. Т. Каршиев // Инновационные технологии в водном, коммунальном хозяйстве и водном транспорте [Электронный ресурс] : материалы II республиканской научно-технической конференции, 28-29 апреля 2022 г. / редкол.: С. В. Харитончик [и др.]. – Минск : БНТУ, 2022. – С. 446-452.
13. Nuriddinov, S., Avazov, B., Hasanov, F., & Rakhmonova, Y. (2021). Analysis of the causes of traction electric failures of electric cargo cars operated on railways of the Republic of Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 264, p. 05041). EDP Sciences.
14. Berdiyev, U., Karshiyev, K., & Sulaymonov, U. (2022). WAYS TO IMPROVE THE ENERGY PERFORMANCE OF ASYNCHRONOUS ELECTRIC MOTORS OF ROLLING STOCK. Scientific Collection «InterConf», (50), 445–454. Retrieved from <https://archive.interconf.center/index.php/conference-proceeding/article/view/638>

BOLALARNING MUSTAQIL HARAKAT FAOLIYATI

Xayitboyev Nabijon Sheralievich

ADU, maktabgacha talim kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, oilada jismoniy tarbiyalashning asosiy vazifalari ularni sog'lom va baquvvat qilib o'stirish masalalari to'g'risida malumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: bolalar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, oilada jismoniy tarbiyalash, bolalarning sog'lomlashtirish vazifalari, jismoniy tarbiya.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, oilada jismoniy tarbiyalashning asosiy vazifalari ularni sog'lom va baquvvat qilib o'stirish, ular organizmini chiniqtirish, ta'lim va tarbiyani to'g'ri tashkil etishdan iboratdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lomlashtirish vazifalari - bu jismoniy tarbiyaning eng asosiy vazifasi bo'lib, bola hayotini muhofaza qilish, uning sog'lig'ini mustahkamlash, organizmini chiniqtirish yo'li bilan o'zini himoya qilish va turli kasalliklarga chidamlilik xislatlarini oshirishdan iborat. Bola organizmining rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgani sababli, uning vazifalari ancha aniqroq shaklda ifodalanadi; bola suyagini bexato va o'z vaqtida qotishiga orqa umurtqa-dagi egik joylarning shakll anishiga, tovon yuzasining yaxshi rivojlanishiga, pay-bo'g'im apparatlarni pishitishga yordam ko'rsatiladi.

Tana qismlarining (proporsiyalar) to'g'ri nisbatda rivojlanishiga, suyaklar o'sishi va vaznini bir tartibga solishga yordam berish; barcha muskullar guruhini rivojlantirish (tana, oyoq, qo'l va yelka kamari, panja, barmoqlar, tovon, bo'yin, ko'z, ichki organlar - yurak-qon tomirlar, nafas olish va boshqa muskullar); ayniqsa, zaif rivojlangan bukuvchi muskullar guruhining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim.

Yurak-qon tomirlari va nafas olish tizimlari faoliyatini takomillashtirishga yordam berish, ya'ni yurakka qon oqishini kuchaytirish, uning qisqarishi ritmini yaxshilash va to'satdan o'zgaradigan yuklamaga moslashish qobiliyatini rivojlantirish; ko'krak qafasi hatakatchanligini o'stirish, chuqur nafas olish, uning ritmi barqarorligiga, o'pka sig'imini oshirishga yordam berish, burundan nafas olishni yaxshilash; ichki organlarning (ovqat hazm qilish, modda ajralish va boshqalar) to'g'ri ishlashiga yordamlashish; termoregulatsiya funksiyasining to'g'ri rivojlanishiga ko'maklashish. Markaziy asab tizimining faoliyatini takomillashtirish: qo'zg'alish va tormozlanish, ularning hatakatchanligi jarayonlarining muqobilligiga, shuningdek, harakat analizatori, sezgi organlarining takomillashuviga yordam berish.

Bolalarning kun bo'yi kechadigan mustaqil harakat faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola o'zida harakatga kuchli ehtiyoj sezadi, biroq bu harakat maqsadsiz va tasodifiy bo'lib qolmasligi uchun tarbiyachining maqsadga yo'naltiruvchi rahbarligi zarur. Bolaga o'z vaqtida qiziqarli faoliyatni taklif etish, uning faoliyatini vaqti-vaqti bilan chetdan yo'naltirib, vaqtni me'yorlab turishi zarur.

Bola mustaqil shug'ullanar ekan, diqqatni o'zini qiziqtiruvchi, maqsadga eltuvchi harakatlarga qaratadi. Uni muvaffaqiyatli amalga oshirgach, harakat usullarini o'zgartiradi, ularni solishtiradi va eng maqsadga muvofiqini tanlaydi. Shunday ekan, bu jarayon fikr yuririshni, qat'iylikni, maqsadga intiluvchanlikni faollashtiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari oldida kichkintoylarning kundalik hayotini maroqli tashkil etish vazifasi turadi. Shunday qilish kerakki, bolalar har kuni faol(aniq) harakat qilish imkoniyatiga ega bo'lsinlar. Bolalar ixtiyorida ularning rang-ba rang harakatli faoliyatlarini rag'batlantiruvchi jismoniy inventarlar o'yin vositalari bo'lishi lozim. Masalan, bolalar "Den-gizchilar" o'yinini o'ynasalar, ularga narvon, arqon va shunga o'xshash narsalar kerak bo'ladi. Mustaqil harakatli faoliyat bolalarning harakat qobiliyatlarini qo'zg'atadi, harakatning yangi turlarini egallab olishga yordam beradi.

Guruh joylarini hamda sayr maydonlarini kerakli uskunalar bilan maqsadga muvofiq ravishda jihozlash zarur. Bu jihozlarni bolalarning harakat faolligini oshirishga yordam beradigan tarzda joylashtirish to'g'risida o'ylab ko'rish kerak. Bolalar ixtiyoriga bir yo'la barcha jismoniy inventarlarni berib qo'ymasdan, ularni vaqti-vaqti bilan almashtirib turish zarur.

Jismoniy tarbiyaga kundalik pedagogik rahbarlikni amalga oshirganda bolalar faoliyatini haddan tashqari chegaralab qo'ymaslik lozim. Ularga ko'proq mustaqillik berib, bundan bolalarning harakat qobiliyatini o'stirishga, tashkilotchilik iste'dodlarini rivojlantirishga intilish zarur. O'yinlarda tarbiyachining ham ishtirok etishi maqsadga muvofiqdir: kattalarning shaxsiy namuna ko'rsatishi bolalarning harakat faoliyatiga qiziqishini oshirishga yordam beradi, butun guruh harakatini uning ishiga aralashmasdan ustalik bilan kuzatib turish va har bir bolaning faoliyatini to'g'ri yo'lga solib turish imkonini beradi.

Tarbiyachi faol harakatlarni dam olish bilan oqilona almashinib turishini ta'minlash maqsadida butun guruh faoliyatini kun bo'yi kuzatib boradi: bunda u rasm chizib, kitob o'qib, shashka o'ynab charchagan bolalarni harakatli o'yinlarga, qiziqarli sport o'yinlariga jalb qilish imkoniyatlarini qo'ldan chiqarmaslikka harakat qiladi. Uzoq vaqt velosipedda yurgan, chilvirda sakragan bolalarning diqqatini sinf-sinf o'yini singari sokin o'yinlarga tortadi.

Bolalarning mustaqil harakatini faollashtirishga mohirlik bilan pedagogik rahbarlik qilinganda bolalarning harakat imkoniyatlari ortadi. Bu esa o'z navbatida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida dastur materiallarini muvaffaqiyatli o'tish uchun

imkoniyat yaratadi. Bolalarning mustaqil harakat faoliyatida qoidali harakatli o'yinlar katta o'rin tutishi lozim; ular ijodiy tashabbusni, tash- kilotchilik malakalarini rivojlantiradi, o'yin ishtirokchilari xat- ti-harakatlarini va qoidalarining bajarilishini baholash me'zoni hosil qilinadi, bolalarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ajoyib do'stlik paydo bo'ladi.

Kechki salqinda aniqlik va epchillikning rivojlanishiga yor- dam beradigan shashka va boshqa sport o'yinlaridan foydalanish mumkin. Agar katta va maktabga tayyorlov guruhlarining bolalari mantiq va fikr yuritish faolligi, diqqatini to'plash, maqsadga yo'naltirishni rivojlantiruvchi shaxmat o'yinini o'ynay olsalar, ularni rag'batlantirish maqsadga muvofiqdir.

Bolalarning yuqorida ko'rsatilgan xilma-xil mustaqil harakat faoliyatlari tarbiyachi rejasida ko'zda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.X. Tadiyyeva, S.I. Xusanxodjayeva. maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi /Toshkent "iqtisod-moliya" 2017 y. Foydalanilgan adabiyotlar
2. lex.uz/news/prezident-2030-yilgacha-maktabgacha-talim-tizimini-rivojlantirish-boyicha-3326-sonli-qo'shma-qarori.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi S.H.Jalilova, S.M.Aripova «Faylasuflar» nashriyoti Toshkent – 2013 yil.
4. E.G'oziyev. Ontogenez psixologiyasi: nazariy eksperimental tahlil/ E.G'oziyev; O'zr Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston milliy universiteti.– T.: Noshir, 2010. 360 b.
5. V.G.Negacheva, T.A.Markova. Bolalar bog'chasida ahloqiy tarbiya. O'qituvchi – 1990
6. «Bolalar bog'chasining katta tarbiyachisi» - Toshkent 1991 y.7
7. Gumanitarno-pedagogicheskiy institut kafedra «Pedagogika i metodiki prepodavaniya» 44.04.02 Psixologo-pedagogicheskoe obrazovanie «Nachal'noe obrazovanie» masterskaya dissertatsiya A.A. Vi'drenkova Tol'yatti 2016 god, 156-list.
8. X.A.Shayxova. Umuminsoniy kadriyatlar va ma'naviy kamolot. Toshkent– 1993 yil.

**ЭЛЕКТРОФИЗИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПОЛУПРОВОДНИКОВЫХ
СОЕДИНЕНИЙ $Tl_{10-x}Sn_xTe_6$**

Сидикова Моҳира Муроджон қизи

Ферганского государственного университета

Азимов Тўланбой Маъруфжонович

Ферганского государственного университета

Тел: (91) 112 06 22, (90)232 02 47, e-mail: mohirabozorova99@gmail.com, tmazimov@mail.ru

Аннотация

В статье изучена концентрация образцов с добавлением Sn к соединениям $Tl_{10-x}Sn_xTe_6$ и их электрофизические свойства. Полученные полупроводниковые соединения исследовали с помощью рентгеновских лучей.

Ключевые слова и выражения: кристаллическая структура, коэффициента Зеебека, рентгеновская дифрактометрия, электропроводности, концентрации.

Sn добавлено $Tl_{10-x}Sn_xTe_6$ разных комбинаций были изучены $x = 1, 1.25, 1.50, 1.75, 2.00$ концентрация и их физические свойства. Полученные полупроводниковые соединения исследовали с помощью рентгеновских лучей (рис.1). Было обнаружено, что это тетрагональное единственное число. В этом исследовании, комбинация $Tl_8Sn_2Te_6$ был получен. Параметры тетрагональной решетки наблюдались при комнатной температуре $a=b=8.8100$ nm и в таблице $c = 13.0625$ nm. У материалов бинарных Теллурайду $Tl_{10}Te_6$ иметь изо-строение и $Tl_9Sn_1Te_6$ это кристаллическая структура была определена экспериментальная формула, Tl_5Te_3 и $Tl_8Sn_2Te_6$ как это $14/m\bar{3}m$ имеет пространственную группу, в отличие от $14/m$ приемник космической группировки приемник космической группы $Tl_9Sn_1Te_6$. На рисунке 2 SEM и EDX показанные изображения. SEM 100 nm триплет на шкале показывает морфологию соединения.

1-таблица

Образец	Размер кристаллита $D = \frac{0.9\lambda}{\beta \cos \theta}$ (nm)	Постоянная решетки $a,b,c=(\text{Å})$	Объем(Å^3)	Электрическая проводимость ($\Omega^{-1}\text{cm}^{-1}$) at 300K	Электрическая проводимость ($\Omega^{-1}\text{cm}^{-1}$) at 650K
$Tl_9Sn_1Te_6$	62.919	$a=b=8.7930$ $c=13.0050$	1005.505	1629.21	939.137
$Tl_{8.75}Sn_{1.25}Te_6$	63.965	$a=b=8.8450$ $c=13.0755$	1022.948	1550.997	841.481
$Tl_{8.50}Sn_{1.50}Te_6$	66.2833	$a=b=8.8450$ $c=13.0000$	1012.44	1310.326	795.66
$Tl_{8.25}Sn_{1.75}Te_6$	59.820	$a=b=8.8100$ $c=13.0010$	1009.086	1287.64	781.313
$Tl_8Sn_2Te_6$	56.793	$a=b=8.8100$ $c=13.0625$	1022.717	471.68	292.102

1. Измерение электропроводности

Sn, который мы имеем, является границей полупроводника и металла. Посеребренное сопротивление контактов проверяли при комнатной температуре стандартным 4-зондовым методом. Если он удовлетворительно низкий, выполнено, нормальный ток 0.1 мА используется в скорости. Электрические свойства наноструктурной системы из теллурида таллия с добавлением олова комнатная температура от 300 до 650 К зависимость от температуры была исследована с помощью четырех методов сопротивления зондов. Это основано на $Tl_8Sn_2Te_6$ имеет самую низкую электропроводность $471,6 \Omega^{-1}, cm^{-1}$ а когда Sn дополнительно от $x=1.0$ до $x=2.0$ увеличивается, уменьшается электропроводность, например, $\sigma = 471,6 \Omega^{-1}, cm^{-1}$ $x= 2.0$ в (20%) $\sigma = 1629,21 \Omega^{-1}, cm^{-1}$ в $x=1.0$ 10% в Как показано на рисунке 3. $Tl_{10-x}Sn_xTe_6$ для электрическая проводимость, $x < 2.0$ образцы, которые уменьшаются с повышением температуры, Рисунок 3, который показывает, что снижение электропроводности связано с более высоким носителем заряда. $Tl_{10-x}Sn_xTe_6$ рентгеновская дифрактометрия суставов Sn 1, 1.25, 1.50, 1.75 и 2 Излучение электромагнитного поля в веществе.






Рисунок 1 Полученные полупроводниковые соединения исследованы с помощью рентгеновских лучей



На рисунке 2 показаны изображения SEM и EDX. SEM показывает морфологию тройного соединения в масштабе 100 Нм.




Рисунок 3 Самое высокое значение $Tl_9Sn_1Te_6$. Для, а самое низкое-наблюдаемое значение $Tl_8Sn_2Te_6$ в образце наблюдалось при 300К.

Измерение электропроводности при различных концентрациях и высоких температурах. Наивысшая ценность $Tl_9Sn_1Te_6$ для, а самое низкое-наблюдаемое значение $Tl_{8,0}Sn_{2,0}Te_6$. в образце наблюдалось при 300К. Повышает концентрацию поглощенных, показанных на рисунке 3, снижает электропроводность с помощью температуры третичных соединений.

3. Измерения коэффициента Зеебека

$Tl_{10-x}Sn_xTe_6$ положительный коэффициент Зеебека, наблюдаемый во всех образцах, S , Как показано в таблице 1, она плавно увеличивается с повышением температуры $1.0 \leq x \leq 2.0$ С для полупроводников р-типа с высокой концентрацией носителей заряда (таблица 1). $x = 2.0$ кривая Зеебека образца, имеющего термоэлектрические свойства халькогенидной системы.

Таблица 1. 300 К и 650 К $Tl_{10-x}Sn_xTe_6$ ($1 \leq x \leq 2$) электрическая проводимость максимум $S=79.77 \mu V \cdot K^{-1}$ 300 К и $S=157.931 \mu V \cdot K^{-1}$ 550 К. Это самый низкий коэффициент Зеебека $S=33.15 \mu V \cdot K^{-1}$ $x=1.0$ для 300 К наблюдаемый это $S=65.84 \mu V \cdot K^{-1}$ увеличивается на 550 К. При увеличении содержания Sn в образце хозяина коэффициент Зеебека S также увеличивается, для например, $x=1.0$ для коэффициент Зеебека наблюдается $S=33.15 \mu V \cdot K^{-1}$ $S=79.77 \mu V \cdot K^{-1}$ для 300 К и наблюдаемый коэффициент Зеебека $S=65.844 \mu V \cdot K^{-1}$ $S=157.937 \mu V \cdot K^{-1}$ до 550 К $x=2.0$ для соответственно показано на рисунке 3 S_n коэффициент мощности легирования увеличивается с повышением температуры.

Анализ коэффициента мощности

Исследование коэффициента мощности показывает, что он увеличивается по мере увеличения температура С поведение в коэффициенте зибека (Таблица 1). Расчетный коэффициент мощности прямо пропорционален коэффициенту Зеебека и квадрату электропроводности. Наименьший коэффициент мощности $1.9 \mu W \cdot cm^{-2} \cdot K^{-2}$ наблюдалось для $Sn=1$ и самый высокий коэффициент мощности $7.579 \mu W \cdot cm^{-2} \cdot K^{-2}$ $Sn=1.75$ за 2 наблюдали при температуре 300К, $Sn=2$ оэффициент мощности esa для $3.639 \mu W \cdot cm^{-2} \cdot K^{-2}$ организует. Как показано в таблице 1, он увеличивается с повышением температуры; это низкий коэффициент мощности $Tl_8Sn_2Te_6$ из-за очень низкой электропроводности наблюдаемый играет роль человека в исследовании коэффициента мощности.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akramov H., Zaynabiddinov S., Teshaboyev A. Yarim o'tkazgichlarda fotoelektrik hodisalar. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston, 1994. – 134 b.
2. Баходирхонов М.К., Илиев Х.М., Холматов А.А., Ярим утказгичлар физикаси асослари дарслик. -Т.: ТошДТУ, 2014. - 186 б.
3. Тешабоев А. Т., Зайнаббидинов С.З., Исмоилов К.А., Эрматов Ш.А.,
4. Абдуазимов В.А. Нанозаррлар физикаси, кимёси ва технологиялари. Ўқув қўлланма. Т.: Камалак прес, 2014. - 368 б.
4. S. Zaynabiddinov, Sh. Yo'lchiyev, D. Nazirov, M. Nosirov "Yarimo'tkazgichlarda atomlar diffuziyasi"

**ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ВА ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ - ЎЗИ
БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ ҲАМКОРЛИГИНИ “ХАВФСИЗ МАҲАЛЛА”
ТАМОЙИЛИ АСОСИДА САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ
МЕХАНИЗМЛАРИ**

*Боборахимов Абдор Бахрамович
Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар
вазирлиги Академияси Ҳуқуқбузарликлар
профилактикаси ва криминология
кафедраси ўқитувчиси*

Аннотация: Мақолада “Хавфсиз маҳалла” ва “Хавфсиз ҳудуд”, “фуқаробай” ва “маҳаллабай”, фуқаролик жамияти, фуқароларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтириш, давлат органлари, жамоат ташкилотлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари вазифалари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: маҳалла раиси, профилактика инспектори, фуқаробай, маҳаллабай, давлат, жамият, жиноят ва ҳуқуқбузарлик, маҳалла ҳуқуқ тартибот маскани, “Темир дафтар”, “Аёллар дафтари” ҳамда “Ёшлар дафтари”.

Аннотация: В статье анализируются задачи “Безопасной махалли” и “Безопасной территории”, “каждый гражданин” и “каждая махалля”, гражданского общества, повышения правосознания и культуры граждан, государственных органов, общественных организаций, органов самоуправления граждан.

Ключевые слова: председатель махалли, инспектор профилактики, гражданин, район, государство, общество, преступность и правонарушение, халлинский центр правопорядка, “Железная тетрадь”, “Женская тетрадь” и “Молодежная тетрадь”.

Abstract: The article analyses tasks of “Safe Mahalla” and “Safe territory”, “every citizen” and “every mahalla”, civil society, increase of legal consciousness and culture of citizens, state bodies, public organizations, citizens’ self-government bodies.

Keywords: makhalla chairman, prophylactic inspector, citizen, district, State, society, crime and delinquency, mahalla centre for law and order, “Iron notebook”, “Women’s notebook” and “Youth notebook”. Translated with www.DeepL.com/Translator (free version)

Ўзбекистон Республикаси эркин демократик фуқаролик жамияти қуриш йўлини танлаб, бу йўналишда салмоқли ишлар амалга оширилди. Такидлаб ўтиш лозимки фуқаролик жамиятида фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари мавқеининг баландлиги ва мустахкамлиги билан алоҳида ажралиб туради.

Маҳаллаларда ҳуқуқбузарликларнинг барвақт профилактикасини ташкил этиш бўйича мутлақо янги тизим яратилди. Хусусан, ҳар бир маҳалла, оила ва шахс кесимида жиноятчиликнинг сабабларини аниқлаш ва уларни бартараф этишда “фуқаробай”, “оилабай” ва “маҳаллабай” ишлаш орқали ҳуқуқбузарликларнинг ижтимоий профилактикасини таъминлаш амалиёти жорий этилди. “Хавфсиз маҳалла” ва “Хавфсиз ҳудуд” тамойиллари асосида ички ишлар органларининг Миллий гвардия ва маҳалла жамоатчилиги билан ҳамкорликдаги ишлари қисқа вақт ичида ўзининг ижобий натижасини бераётгани биз учун катта аҳамиятга эга.

Фуқаролик жамияти юксак даражада уюшган, батартиб муносабатлар тизимига таянган, ўзини ўзи бошқариш механизмларидан иборатдир. Бу механизмларни эса, асосан жамоат бирлашмалари, жамоат тузилмалари ташкил этади.

Шу боисдан, мамлакатимизда маъқул, истиқболли, яхши самара берадиган жамият қуриш асосий мақсадлардан бири этиб белгиланди ва давлат органлари ўз ваколатларини босқичма-босқич жамоат бирлашмаларига бериб бориши принципи асосида амалий ишлар олиб борилмоқда.

Мустақилликнинг дастлабки йилларидан фуқаролик жамияти қуриш борасидаги ишлар белгилаб олинди ва амалга оширилди. Жумладан, бу жараён Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг алоҳида нормалари билан мустахкамлаб қўйилди. Конституциянинг “Жамоат бирлашмалари” деб номланган XIII-бобининг 56-62-моддаларида уларнинг мақоми белгилаб берилди, хусусан мазкур нормаларда давлат жамоат бирлашмаларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига риоя этилишини таъминлаши, давлат органлари ва мансабдор шахсларнинг уларнинг фаолиятига аралашшига йўл қўйилмаслиги, қонун олдида тенглиги, жамоат бирлашмалари фаолиятини тақиқлаш фақат суд қарори асосида амалга оширилиши борасидаги қоидалар белгиландики, шуларнинг ўзи маҳалла институни мустақил фаолият юритиши кафолатини белгилаб беради [1].

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси 2013 йил 22 апрелдаги «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги Қонунининг янги таҳрирда қабул қилиниши бу борада муҳим қадам бўлди. Қонуннинг 3-моддасида фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариши тушунчасига фуқароларнинг маҳаллий аҳамиятга молик масалаларни ўз манфаатларидан, ривожланишнинг тарихий хусусиятларидан, шунингдек миллий ва маънавий қадриятлардан, маҳаллий урф-одатлар ва анъаналардан келиб чиққан ҳолда ҳал қилиш борасидаги Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва қонунлари билан кафолатланадиган мустақил фаолиятдир деб кўрсатиб ўтилганлиги ҳам бунинг исботидир [2].

Фуқаролик жамияти юксак даражада уюшган, тартибли муносабатлар тизимига таянган, ўзини ўзи бошқариш механизмларидан иборатдир. Бу механизмларни эса, асосан жамоат жамоат тузилмалари ташкил этади. Жамоат тузилмалари ичида маҳалла фуқаролар йиғини, қисқача айтганда, маҳалланининг ўрни беқиёсдир.

Давлат ва жамият аъзоларини ватанпарвар, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат қилиш руҳида тарбиялашда миллатнинг менталитетини, тарихий анъаналарга содиқлигини кўрсатувчи мезонларни белгилаб беради.

Демак, маҳалла миллий ижтимоий феномен сифатида миллий ва умуминсоний ғояларнинг халқ ишончи эътиқодига айланишида муҳим институтлардан бири ҳисобланади. Негаки, инсонларнинг яшаш муҳити ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маънавий муҳити барқарорлигини халқ ишонч эътиқодига айлантиришда муҳим аҳамиятга эгаллиги билан бошқа ижтимоий институтлардан ажралиб туради. Маҳалла ўз навбатида жамият аъзоларининг эркин ва фаровон турмушини яхшилашда имконият, восита ролини бажарса, иккинчи томондан, ишончига айланиш даражасини кўрсатувчи дастлабки ижтимоий макон ҳисобланади.

Ўзбекистон халқининг миллий истиқлол ғояси умуминсоний ва миллий қадриятларга таянади, бу эса ўз навбатида маҳалланинг ролини кўрсатиб беради ва инкор эти бўлмайдиган ҳақиқатдир.

“Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар” рисоласида қуйидаги миллий хусусиятлар қайд этилган:

- халқимиз ҳаётида қадим-қадимдан жамоа бўлиб яшаш руҳининг устунлиги;
- жамоа тимсоли бўлган оила, маҳалла, эл-юрт тушунчаларининг муқаддаслиги;
- ота-она, маҳалла-кўй, умуман жамоатга юксак ҳурмат-эътибор;
- миллатнинг ўлмас руҳи бўлган она тилига муҳаббат;
- каттага - ҳурмат, кичикка - иззат;
- меҳр-муҳаббат, гўзаллик ва нафосат, ҳаёт абадийлигининг рамзи - аёл зотига эҳтиром;
- сабр-бардош ва меҳнатсеварлик;
- ҳалоллик, меҳр-оқибат ва ҳоказо” [3].

Юқоридаги тушунчалар эса халқимизнинг ўзига хос хусусиятлари, хусусан, бағрикенглигини, бошқаларга нисбатан ҳурматда бўлиш каби инсоний хислатларни улуғланишини кўрсатиб беради.

Ҳар қайси давлат ўзи учун маъқул, истиқболли, яхши самара берадиган жамият қуришни ўз олдига асосий мақсад қилиб қўяди. Яъни давлат органлари ўз ваколатларини босқичма-босқич жамоат тузилмаларига ўтказиш асосий

принцип деб белгиланади. Мамлакатимизда фуқаролик жамиятини куришни мақсад қилиб қўйиши, фуқаролик жамияти институлари, хусусан, маҳалланининг давлат бошқарувидаги ролини оширишни талаб этади.

Маҳалла институтини ривожлантириш, унинг давлат ва жамият бошқарувидаги ролини ошириш борасида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев мунтазам равишда таъкидлаб бу борадаги фикрларини билдириб келмоқда.

Айниқса, маҳалла фуқаролар йиғинларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда алоҳида вазифалар юклатилиши аҳамиятлидир.

“Айни пайтда маҳаллаларда жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш бўйича жамоатчилик институтлари билан ҳамкорликда олиб борилаётган кенг қўламли профилактик тадбирлар туфайли 1 минг 243 та маҳаллада бирорта ҳам жиноят содир этилмади [4].

Маълумки, ҳар бир маҳаллани жиноятчиликдан холи ҳудудга айлантириш, бу борада бефарқлик, лоқайдлик ҳолатларига барҳам бериш жамиятда тинч ва осойишта ҳаётни таъминлашнинг асосий шартларидан биридир. Бу борада ҳар бир фуқаро онгида “Менинг маҳалламда жиноят содир бўлмаслиги керак” деган туйғуни шакллантириш ғоят муҳим аҳамиятга эга [5].

Бугунги кунда юзага келаётган хавф-хатар ва таҳдидлар, аввало, халқаро терроризм, диний экстремизм, ноқонуний миграция, одам савдоси, ёшлар ўртасида халқимизга ёт ғоялар тарқалишининг тобора кучайиб бораётганлиги ички ишлар органлари олдида ўз вақтида уларнинг олдини олиш ва уларга барҳам бериш бўйича янги вазифалар қўймоқда [6].

Ислохотларнинг бугунги босқичида маҳалланинг мавқеини тубдан ошириш, тизим иш фаолиятини самарали ташкил этиш, уни том маънода халқчил тузилмаган айлантиришга қаратилган эзгу саъй-ҳаракатлар амалга оширилдики, бунинг натижасида бугунги кунда маҳалла гузари – одамлар шунчаки келиб кетадиган идора эмас, балки аҳолини ислохотларга сафарбар этадиган, жамиятнинг барча қатламларини изчил ҳаракатга келтирадиган фаол ижтимоий тузилмага айланди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5938-сонли Фармони қабул қилинди.

Ушбу фармонда маҳалланинг мустақил фаолият юритишини янада яхшилаш ва такомиллаштиришни асосий мақсад этиб белгиланди ва уни қабул

қилинишида қуйидаги муаммо ҳамда камчиликларни бартараф этиш лозимлиги куўрсатиб ўтилди:

- биринчидан, фуқаролар йиғинларига хос бўлмаган функцияларнинг уларга юклатилиши;
- иккинчидан, маҳалланинг қуйи идоралар билан тизимли ҳамкорлигининг йўлга қўйилмаганлиги;
- учинчидан, оила, хотин-қизлар ва кексаларга ёрдам кўрсатишнинг яхлит тизими мавжуд эмаслиги;
- тўртинчидан, ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш бўйича кўрилаётган чоралар самарали натижа бермаётганлиги;
- бешинчидан, юқоридиги камчиликлар жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш ва қонун устуворлигини таъминлашга салбий кўрсатаётлиги.

Давлатнинг маҳалла фаолиятини ташкил этиш ва амалга оширишида давлат ёрдамни кўрсатилишини таъминлаш мақсадида Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги ташкил этилди.

Мазкур вазирликнинг ташкил этилиши биринчидан, маҳалла фуқаролар йиғининг мустақил фаолият юритишини таъминлаш, иккинчидан, маҳалла фуқаролар йиғинлари фаолиятини мувофиқлаштирувчи ягона органнинг ташкил этилиши илан уларнинг фаолиятига бошқа давлат органларининг аралашувига барҳам бериши, учинчидан, маҳалла фуқаролар йиғинларининг моддий-техник базасини такомиллаштириш, яхшилаш, тўртинчидан, маҳалла фуқаролар йиғинлари фаолиятига хос бўлмаган мажбуриятларини олиб ташлаш ва натижада маҳаллаларда “Обод ва хавфсиз маҳалла” тамойили асосида жамият ҳаётидаги энг муҳим вазифаларини самарали бажаришга имкониятларнинг яратилганлигидир.

Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини қўллаб-қувватлаш, маҳалла тизимини ривожлантириш ва жамиятда “Обод ва хавфсиз маҳалла” тамойилини жорий этишнинг 2020 — 2024 йилларга мўлжалланган концепцияси тасдиқланади.

Қуйидагилар:

а) Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини қўллаб-қувватлаш, маҳалла тизимини ривожлантириш ва жамиятда “Обод ва хавфсиз маҳалла” тамойилини жорий этишнинг 2020 — 2024 йилларга мўлжалланган концепцияси тасдиқланади ва унда қуйидагилар назарда тутилади:

- жамиятнинг бетакрор ижтимоий тузилмаси ҳисобланадиган маҳалла институтини аҳолининг чинакам маслакдоши ва кўмакдошига айлантириш, унинг роли ва аҳамиятини ошириш;

- хотин-қизлар ижтимоий фаоллигини қўллаб-қувватлаш, уларнинг жамиятдаги ўрнини мустаҳкамлаш, ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтириш;

- жамият ва оилада соғлом ва барқарор ижтимоий-маънавий муҳит ҳамда тинчлик, тотувлик ва осойишталикни таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий механизмларини тубдан ислоҳ қилиш;

- маҳалла институтининг ички ишлар органлари, бошқа давлат идоралари ва жамоат ташкилотлари билан узлуксиз, тизимли ҳамкорлигини йўлга қўйиш;

- фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ходимлари ва профилактика (катта) инспекторларининг роли ва мавқеини янада ошириш, мустақиллиги ҳамда ваколатларининг амалий самарадорлигини таъминлаш;

- соҳага замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш ҳамда ходимларнинг меҳнатини муносиб рағбатлантириш ва моддий-техника таъминотини яхшилаш.

б) Концепцияни 2020-2021 йилларда амалга ошириш бўйича “Йўл харита”си тасдиқланади.

Концепция тегишли даврга мўлжалланган асосий йўналишлардан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан ҳар йили алоҳида тасдиқланадиган “Йўл харита”си орқали босқичма-босқич амалга оширилиши белгилаб қўйилади [7].

2020 йил 8 октябрь куни Ўзбекистон Республикаси Президенти раислигида жамиятда аёллар ва ёшларнинг ролини ошириш ҳамда бандлигини таъминлаш чора-тадбирларига бағишлаб ўтказилган видеоселектор йиғилишида юртимизда хотин-қизлар ва ёшлар масалалари бўйича янги иш тартибини жорий этиш, ҳар бир маҳалла, туман, шаҳар ва вилоят кесимида “Аёллар дафтари” ва “Ёшлар дафтари”ни шакллантириш, бу орқали хотин-қизлар ва ёшлар билан ишлаш тизимини мутлақо янги босқичга олиб чиқиш, уларни ижтимоий-ҳуқуқий ва психологик қўллаб-қувватлаш, касб-ҳунарга ўргатиш ва бандлигини таъминлаш вазифалари белгиланган эди.

Шунингдек, Президентимиз маҳаллаларда жинойтчиликнинг олдини олиш масалаларига ҳам алоҳида эътибор қаратиб, маҳалла ходимлари ҳар бир содир этилган ҳуқуқбузарликдан хабардор бўлиши, ушбу салбий ҳолатни жинойт содир этган шахснинг ота-онаси билан муҳокама қилиши кераклигини ҳамда бундан буён маҳалла тизими ходимларининг ойлик маоши ҳудудда жинойтчилик жиловлангани, “Темир дафтар”, “Аёллар дафтари” ҳамда “Ёшлар дафтари” билан ишлашдаги натижаларга қараб оширилишини қайд этди [8].

Давлатимиз раҳбари белгилаб берган ушбу топшириқ ҳамда вазифаларнинг ҳаётга тўла татбиқ этилиши натижасида маҳалла тизимини ҳар томонлама ривожлантириш, аҳоли мурожаатлари билан ишлаш, одамлар дардини тинглаш,

тизимдаги мавжуд муаммоларга ечим топиш, оилавий ажримлар ва жиноятчиликнинг олдини олиш ҳамда аҳоли бандлигини таъминлаш каби муҳим вазифаларни тўла-тўқис бажариш, соҳада меҳнат қилаётган фидойи ходимларга зарур шарт-шароитлар яратишга, албатта, эришилади.

Жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жиноятчиликка қарши курашишнинг яхлит тизимини шакллантириш, ички ишлар органларининг энг қуйи бўғинидан республика даражасигача самарали фаолиятини йўлга қўйиш ва замонавий иш услубларини жорий этиш орқали мамлакатимизда ҳуқуқ-тартибот ва қонунийликни мустаҳкамлаш, аҳолининг тинчлиги ва осойишталигини таъминлаш мақсадида ички ишлар органлари фаолиятини ташкил этишнинг мутлақо янги механизмлари этиб қуйидагилар белгиланди.

- ҳар бир маҳалла, оила ва шахс кесимида жиноятчиликнинг сабабларини аниқлаш ва уларни бартараф этиш орқали ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жиноятчиликка қарши курашишга оид муаммоларни бевосита жойларнинг ўзида ҳал этиш;

- ҳудудларда жиноятчилик аҳволдан келиб чиқиб, ҳар бир туман, шаҳар ва маҳаллаларни тоифаларга ажратиш ҳамда ҳокимликлар, секторлар ва жамоатчилик билан ҳамкорликда «жиноят ўчоқлари»ни бартараф этиш учун барча зарур куч ва воситаларни жалб қилиш;

- «республика — вилоят — туман — маҳалла» тизими асосида яхлит бошқарув ва узлуксиз назорат қилиш механизмларини жорий этиш, ички ишлар ва бошқа давлат органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш борасидаги фаолиятини самарали мувофиқлаштириш орқали мамлакатимизда тинчлик ва барқарорликни таъминлаш;

- ички ишлар органлари ходимларининг замонавий қиёфасини яратиш, уларнинг масъулияти ва касбий салоҳиятини ошириш, жиноятчиликнинг янги кўринишларига қарши курашиш учун зарур кўникмаларни шакллантириш ҳамда соҳани тўлиқ рақамлаштиришга эришиш.

Ички ишлар органларининг таянч пунктлари негизида маҳалла ҳуқуқ-тартибот масканлари босқичма-босқич ташкил этилди.

- маҳалла ҳуқуқ-тартибот маскани ҳудуддаги жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жиноятчиликка қарши курашишнинг асосий қуйи бўғини ҳисобланди;

- маҳалла ҳуқуқ-тартибот маскани негизида ҳудуддаги ички ишлар органларининг тегишли соҳавий хизматлари ҳамда Миллий гвардия ва бошқа давлат органларининг мувофиқлаштирилган фаолияти ташкил этилди;

- маҳалла ҳуқуқ-тартибот маскани томонидан жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жиноятчиликка қарши

курашиш ишларини тизимли ташкил этиш ва мувофиқлаштириш вазифаси профилактика инспекторига юкланди.

Профилактика инспекторига масофадан туриб мурожаат юбориш ва уни кўриб чиқиш жараёнини кузатиб бориш, аҳоли билан ўзаро тезкор мулоқотни йўлга қўйиш, профилактика инспекторлари ва сектор раҳбарлари фаолиятига баҳо бериш имконини берувчи «Smart маҳалла» ахборот дастури ишлаб чиқилди [9].

Хулоса қилиб қилиб айтганда, ислохотларнинг бугунги босқичида Ўзбекистонда ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ноёб миллий тизим яратилди. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси нафақат жиноятчиликка қарши курашнинг бош йўналишига, балки мамлакатдаги барча давлат идораларининг устувор вазифасига айланди. Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг фаолиятини ташкил этиш услублари тубдан ўзгартирилди, хусусан қонун бузилиши ҳолатларини фош этиш ва чоралар кўриш эмас, балки мазкур ҳолатларнинг барвақт олдини олиш ва профилактикасини таъминлаш ушбу идораларнинг энг муҳим вазифаси этиб белгиланди.

Таклифлар:

1

Оила турмуш муносабатлари доирасида содир этилаётган ҳуқуқбузарликлар ва уларни содир этувчи шахсларнинг ҳулқ-атвори ва қилмишини «Яраштириш комиссияси» ва жамоатчилик олдида муҳокама қилиш амалиётини кучайтириш, шунингдек оилада низоли вазиятларни келтириб чиқараётган ҳамда оғир оқибатларга олиб келаётган сабаб шароитларни аниқлаш, таҳлил қилиш ва уларнинг барвақт профилактикаси борасида жамоат тузилмалари ҳамкорлигини

2. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги Қонунининг 9 ва 21-моддаларига қўшимча ва ўзгартишлар киритиб, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларини ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи органлар ва муассасалар тизимига қўшиш ҳамда 191-моддада уларнинг ваколатларини белгилаб бериш.

3. Маҳалла фуқаролар йиғинларида маҳалла ҳудудида жойлашган корхона, ташкилот ва муассасалар раҳбарларининг ҳар ойлик ҳисоботларини эшитиш амалиётини киритиш.

4. Маҳалла фуқаролар йиғинларига ҳудудда ободонлаштириш қоидалари бузилганлиги ҳолати ҳамда уларни бартараф этиш юзасидан корхона, ташкилот ва муассасаларга тақдимномалар киритиш тартибини жорий этиш.

5. Маҳалла фуқаролар йиғини раиси ва профилактика инспектори ҳамкорликда маҳаллани асосий кириб чиқиш кўчаларига ҳамда криминоген

вазият юқори бўлган жамоат жойларга хомийлик ва маҳаллий бюджетдан HD кўзатув камераларини ўрнатиб МФЙ раиси ва профилактика инспекторининг мобил телефонида кузатиб ва назорат қилиб туриш механизмини яратиш.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси// www.lex.uz.
2. Ўзбекистон Республикаси 2013 йил 22 апрелдаги «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги Қонунининг янги таҳрири// www.lex.uz.
3. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар, 49-бет.
4. Президент: олдини олиш мумкин бўлган жиноятлар содир этилмоқда // URL: <http://xs.uz> (Халқ сўзи, 21.11.2017).
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5938-сонли Фармони. // www.lex.uz.
6. Ички ишлар органлари таянч пунктларида фаолияти ва ҳамкорлигини ташкил этиш: Ўқув-амалий қўлланма / И. Исмаилов, М. З. Зиёдуллаев. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2017. – 254 б.
7. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини қўллаб-қувватлаш, маҳалла тизимини ривожлантириш ва жамиятда “Обод ва хавфсиз маҳалла” тамойилини жорий этишнинг 2020 — 2024 йилларга мўлжалланган концепцияси.
8. 2020 йил 8 октябрь куни Ўзбекистон Республикаси Президенти раислигида жамиятда аёллар ва ёшларнинг ролини ошириш ҳамда бандлигини таъминлаш чора-тадбирларига бағишлаб ўтказилган видеоселектор йиғилишидаги нутқи.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида ПФ-6196-сонли Фармони. // www.lex.uz.

ОИЛА-ТУРМУШ МУНОСАБАТЛАРИ ДОИРАСИДАГИ ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИ СОДИР ЭТГАН ШАХСЛАРНИНГ КРИМИНОЛОГИК ТАВСИФИ

Вахобжонов Дилмурод Дилшод ўғли
Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар
вазирлиги Академияси Хуқуқбузарликлар
профилактикаси ва криминология
кафедраси ўқитувчиси

Аннотация Мақолада Оила-турмуш доирасида ҳуқуқбузарлик, оилада зўравонлик, ҳуқуқбузарлик оқибатида жиноят содир этган шахс, ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтириш, давлат органлари, руҳий ўзгаришлар ёки бузилишлар, жамоат ташкилотлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари вазифалари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: профилактика инспектори, маҳалла раиси, жиноят содир этган шахс, спиртли ичимлик, ахлоқ-одоб нормалари, жинойи хулқ.

Аннотация. В статье анализируются правонарушение в рамках семейной жизни, насилие в семье, лицо, совершившее преступление в результате правонарушения, повышение правосознания и культуры, государственные органы, психические изменения или расстройства, общественные организации, органы самоуправления граждан.

Ключевые слова: инспектор профилактике, председатель махалли, лицо, совершившее преступление, алкогольные напитки, нормы морали, преступное поведение.

Abstract. The article analyses delinquency in family life, domestic violence, a person who has committed a crime as a result of delinquency, increase of legal consciousness and culture, state authorities, mental changes or disorders, public organizations, citizens' self-governing bodies.

Keywords: prophylactic inspector, mahalla chairman, offender, alcoholic beverages, moral norms, criminal behaviour.

Маълумки, ҳуқуқбузар шахсининг ижтимоий хавфли ва айбли қилмишлари билан боғлиқ бўлган муаммоларни криминология фани тадқиқ этади. Зеро, жиноят содир этган шахсларни илмий жиҳатдан ўрганиш ўзининг мазмун ва моҳиятига эга [1] бўлиб, мазкур маълумотларни ўрганиш асосида ушбу турдаги ҳуқуқбузарликларни барвақт олдини олиш борасида профилактик чораларни ишлаб чиқишда муҳим аҳамият касб этади.

Жиноят содир этган шахсларга умумий таъриф бериш ва уларни статистик даражада ўрганиш шахсларнинг маълум туркумларига хос бўлган хусусиятларини аниқлаш ҳамда жиноятчиликка қарши курашни режалаштириш ва жиноятчиликнинг олдини олиш учун тегишли чоралар кўриш имконини беради [2].

Жиноятчилик ижтимоий ҳодиса сифатида ўрганилганида, ҳуқуқбузарнинг шахси ва унинг хусусиятлари ҳам ўрганилади [3]. Модомики, оилада зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар содир этган ва уларни содир этувчи шахсларнинг ижтимоий-хавfli қилмишлари, криминологик белгилари, психологик хусусиятлари, ғайриахлоқий қарашларини тадқиқ этиш орқали уларга хос бўлган барча зарур маълумотларни ўрганиш мумкин.

Оила-турмуш доирасида ҳуқуқбузарлик содир этувчи шахслар билан боғлиқ муаммолар криминология, психология ва жиноят ҳуқуқи фанида ҳам ғоятда баҳсли бўлиб, ҳанузгача унга ягона ёндашувнинг йўқлиги туфайли турли соҳа мутахассислари томонидан ҳуқуқбузар шахсга нисбатан турлича фикрлар билдирилган. Зеро, оилада зўравонлик билан боғлиқ муаммолар, ҳар бир миллат менталитети, ўша жамиятда устувор бўлган оилавий қадриятлар, урф-одатлар ва маросимлар доирасида турли тадқиқотларнинг предмети бўлиб келган [4].

Оила-турмуш доирасида ҳуқуқбузарлик оқибатида жиноят содир этган шахсларга тааллуқли бўлган ижтимоий-демографик белгиларни тадқиқ қилиш ушбу турдаги жиноятларнинг олдини олиш чора-тадбирларини ишлаб чиқишда муҳим аҳамият касб этади. Чунки, жиноят содир этган шахсларнинг ижтимоий-демографик белгиларини криминологик нуқтаи назардан тадқиқ этиш орқали унга хос бўлган барча криминологик аҳамиятга эга бўлган хусусиятларни ўрганиш мумкин. Табиийки, ушбу ижтимоий-демографик белгилар умумлаштирилган ҳолда маълум бир минтақада, маълум даврда оила-турмуш муносабатлари доирасида жиноят содир этган шахсларга хос бўлган ижтимоий-демографик белгилар ўрганилса, улар асосида муҳим криминологик хулосаларни ишлаб чиқиш мумкин.

Ҳуқуқбузар шахсини тавсифловчи энг муҳим криминологик белгилардан бири унинг ёшидир. Шахснинг ёш хусусиятлари унинг муҳит билан ўзаро алоқасига, маънавий оламнинг ички моҳиятига, ҳулқ-атворидаги яққол ифодаланган иккиланишлар ва беқарорликка сезиларли даражада таъсир кўрсатади [5]. Жиноятчи шахсининг криминологик таҳлилида ёшга оид тавсиф билан бир қаторда унинг маълумот даражаси ҳам муҳим аҳамият касб этади. Инсоннинг маълумот даражаси унинг талаб, эҳтиёж ва манфаатларини, маънавий-ахлоқий ва маданий кўринишларини шакллантиради [6].

Оила-турмуш доирасида ҳуқуқбузарлик содир этган ҳуқуқбузар шахсларнинг ёшига оид маълумотлар ўрганилганида, уларнинг 10,1%ини

18-25 ёшдаги, 38,6%ини 25-35 ёшдаги, 26,8%ини 35-45 ёшдаги, 15,5%ни 45-55 ёшдаги ҳамда 9,2% 55 ёшдан юқори бўлганлар ташкил этди. Кўриниб турибдики, оилада зўравонлик содир этувчи шахсларнинг криминоген фаоллиги юқори бўлган асосий қисмини 25-45 ёшдагилар ташкил этмоқда.

Мазкур тоифадаги шахсларнинг 64,8% ишсизлар, 27,6% ишчилар, 5,4% хизматчилар, 2,3% тадбиркорлар ташкил қилади. Бундай жинойтларни содир этганлар ичида давлат хизматчиларининг камлиги, ишчилар салмоғининг кўплигини, шунингдек ижтимоий фойдали меҳнат билан шуғулланмайдиган (ҳеч жойда ишламайдиган, вақтинча ишсиз) шахсларнинг жиноий фаоллиги юқори эканлигини кузатиш мумкин.

Ҳуқуқбузар шахсларнинг маълумот даражаси ўрганилганида, уларнинг 5%ининг – маълумоти олий, 26% ўрта махсус, 66% – ўрта маълумотли, 3% эса тўлиқсиз ўрта маълумотга эга бўлган шахслар ташкил этди. Ушбу тоифадаги шахсларнинг жинсга оид маълумотлари таҳлил қилинганда, оилада зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларни содир этувчилар асосан эркаклар бўлиб, уларнинг ҳиссаси 82%ни ташкил этади.

Бундан шундай хулоса қилиш мумкинки, ҳуқуқбузар шахсларнинг энг кўп қисмини 66% – ўрта маълумотга эга бўлган, 64,8%ни ишсизлар, энг кўп ҳуқуқбузарлик содир этувчиларни 38,6%ни 30-35 ёшгача бўлган шахсларни ҳамда ушбу ҳуқуқбузарликларнинг 82% эркаклар томонидан содир этилишини кузатиш мумкин.

Тадқиқот жараёнида оила-турмуш доирасида ҳуқуқбузарлик содир этувчи шахсларни ўрганиш мақсадида ўтказилган социологик сўровларда ҳам ушбу маълумотлар ўзининг тасдиғини топди.

Оила-турмуш доирасида ҳуқуқбузарлик содир этган шахслар таркибида аёллар ҳиссасининг ортиб бориши ҳозирги ижтимоий-иқтисодий ҳаёт жараёнида уларнинг кийиниши, тарбиясига оммавий маданиятнинг таъсир бўлса, иккинчидан улар ўртасида ичкиликбозлик ёки зинокорлик иллатларининг кенгайиб бораётганлиги оқибати дейиш мумкин. Умуман олганда, оилавий-маиший турмуш соҳасида аёлларнинг эркакдан кўра кўпроқ моддий маблағ топиши ёки бошқа томондан устунлиги ҳам оилада зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларни содир этишига туртки бўлиши эҳтимоли анча юқоридир.

Гап шундаки, оила-турмуш доирасида ҳуқуқбузарлик оқибатида содир этилаётган жинойтларда аёлларнинг ҳиссаси эркакларникига нисбатан анча кам миқдорни ташкил этса-да, улар томонидан шахснинг ҳаёти ва соғлиғи учун хавfli бўлган жинойтларнинг содир этилиши ташвишланарли ҳолдир. Ўтказилган тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, оиладаги зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларни аёллар асосан рашк, ўч олиш, нафрат, муҳаббат можаролари каби вазиятлар билан боғлиқ ҳолда содир этишган. Табиийки, аёллар шахсига хос

бўлган тезда жаҳлнинг чиқиши ёки ҳар бир ҳолатни кўнглига яқин олиши ҳам мавжуд вазиятни янада мураккаблашувига олиб келиши мумкин.

Оилада жинсларнинг рухий-физиологик хусусиятлари ва уларнинг жамиятда ўйнаган роли, аёллар характерининг юмшоқлиги, уларнинг чидамлилиги ва сабрбардошлилиги ҳаётдан маҳрум қилиш ёки баданга шикаст етказиш билан боғлиқ ҳолда ғаразли ниятини амалга ошириш учун аёлларнинг жисмоний имкониятлари чекланганлиги билан изоҳланади [7]. Қайсидир маънода, бундай ҳолат анъанавий тарбия оқибати бўлиб, эркакларнинг агрессив ҳуққ-атвори муаммоларни ҳал қилишнинг ягона ва самарали воситаси сифатида намоён бўлади [8].

Таҳлил қилинганида, оила турмуш муносабатлари доирасида содир этилган қотилликнинг 3-4%ни, қасддан баданга турли даражада шикаст етказиш жиноятларининг 7-8% аёллар томонидан содир этилганлигини кузатиш мумкин. Айрим тадқиқотларда қайд этилганидек, маиший жиноятлар таркибида одам ўлдириш жиноятини содир этган аёлларнинг улуши бошқа жиноятларга нисбатан қарийб икки баробар кўпдир [9].

Эркак ва аёллар жиноятчилиги ўртасида фарқнинг мавжудлиги, алоҳида турдаги жиноятлар бўйича аёллар ҳиссасининг умумий жиноятчиликдаги ҳиссасидан юқори даражада бўлиши, авваламбор уларнинг жамиятда тутган ижтимоий ўрни билан боғлиқдир. Шунингдек, шахснинг шаклланиш шароити (тарбия, ижтимоий назорат ва ҳ. к.), оилада тутган ўрни, жинслар ўртасидаги анъанавий фарқ ҳам муҳим аҳамиятга эга ва уни содир этган хатти-ҳаракатини ҳар томонлама белгилаб беради [10].

Ҳуқуқбузар шахсларга хос бўлган яна бир жиҳат шундаки, уларнинг маънавий ва интеллектуал даражаси юқори бўлмаган, ижтимоий фойдали меҳнат билан шуғулланмайдиган, ҳуққ-атвори агрессив ҳамда криминогенлик даражаси юқори бўлган шахслар ҳисобланади. Ушбу тоифадаги шахсларбарча жиноят этган шахсларнинг 1/3 қисмини ташкил этади. Шунингдек, шахснинг оилавий аҳволи, моддий жиҳатдан таъминланганлик даражаси, турар жойи ва ҳ.к. ҳам криминологик аҳамиятга эгадир.

Оила-турмуш доирасидаги ҳуқуқбузарликлар таркибида қотиллик ва баданга шикаст етказишларнинг 50%ини айнан ушбу тоифадаги шахслар содир этишини тадқиқотларимиз ҳам яққол кўрсатмоқда. Бир қатор тадқиқотларда жиноят содир этган шахсларнинг билими ва маълумот даражаси юқори бўлмаган шахслар эканлиги қайд этилган. «Маълумотнинг камлиги, маданият даражасининг пастлиги, шахс қизиқишларининг анчагина тор бўлишига ва сийқалашувига, ахлоқнинг дағаллашувига, шахсиятпарастлик ва худбинлик хислатларининг ривожланишига олиб келади» [11].

Шахс маълумот даражасининг пастлиги, ахлоқсизлиги, ҳуққ-атворининг салбийлиги кўп ҳолларда ҳуқуқбузар шахсни ғайриижтимоий ишлардан ўзини тия

олмасликка олиб келади. Бундай шахслар оқибатда ўзларининг ғаразли мақсадларини амалга ошириш учун шахснинг ҳаёти ва соғлиғига қарши жиноятларни ўйламасдан, осонгина содир этадилар.

Жиноят содир этувчи шахсларнинг ҳиссиёт ва ғаразли ниятлари ҳаётдаги қийинчиликлар, руҳий ўзгаришлар ёки бузилишлар натижасидир [12].

Хуқуқбузарнинг ички руҳий дунёси, эҳтиёжлари, эмоционал иродавий даражаси, гайриижтимоий хусусиятларини ўрганишга алоҳида эътибор бериш лозим. Модомики, оилада зўравонлик содир қилган шахслар ҳақида юқорида кўрсатилган хусусиятлар атрофлича ўрганилмаса тадқиқ этилаётган жиноятлар профилактикаси борасида профилактик чора-тадбирларни амалга оширишнинг самараси паст бўлиши табиий ҳолдир.

Тадқиқотимиз жараёнида суд-тергов амалиёти ва суд архиви материаллари таҳлил қилинганида, ушбу тоифадаги шахсларнинг асосий қисмини илгари судланган, ишсиз, спиртли ичимлик ва гиёҳвандликка ружу қўйган, гайри-ижтимоий ҳуқ-атворли, маълумот даражаси юқори бўлмаган шахслар ташкил этди. Таҳлилларга асосан айтиш мумкинки, оила-турмуш доирасида ҳуқуқбузарликнинг 90 фоиздан ортиғи юқорида қайд этилган тоифадаги шахслар томонидан содир этилмоқда.

Таҳлилларнинг кўрсатишича, ҳуқуқбузар шахсларнинг кўпчилигиспиртли ичимликларни ёшлигидан истеъмол қилишни ўрганган ҳамда унинг таъсирида турли ҳуқуқбузарликлар содир этишган. Бундан шундай хулоса қилиш мумкинки, ҳаётда ҳам айнан ушбу тоифадаги шахсларда жиноят содир этишга мойиллик юқори бўлиб, улар томонидан содир этилган жиноятлар таркибида шахснинг ҳаёти ва соғлиғига қарши турли даражадаги тан жароҳати етказиш ҳолатлари кўп учрайди.

Шундай экан, жиноятчи шахсини психологик жиҳатдан ўрганишда уни ижтимоий муҳит билан ўзаро алоқадорликда таҳлил қилиш лозим. Чунки, жиноий ҳуққни шахс ёки муҳит эмас, балки айнан уларнинг ўзаро алоқаси юзага келтиради [13]. Табиийки, ижтимоий муҳитнинг жиноий ҳуқққа таъсири мураккаб хусусият бўлиб, ўрганилаётган муаммо бўйича аниқ маълумот олиш имконини беради. Қизиғи шундаки, «...ҳеч ким онадан жиноятчи бўлиб туғилмайди. Жиноятчилик номақбул ижтимоий-иқтисодий, маънавий-ахлоқий муҳитдагина илдиз отиши мумкин» [14].

Жиноятчи шахс ва унинг шаклланиш сабабларини самарали ўрганиш жиноий ҳуқ-атвор мотивларини тадқиқ этишни тақозо этади. Чунки, мотив шахс ва унинг хусусиятлари, майллари ва қизиқишлари билан узвий боғлиқдир [15].

Тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, мазкур жиноятларнинг содир этилишига кўпинча маиший-турмуш доирасидаги низо ва келишмовчиликлар сабаб бўлади. Бундай низо ва келишмовчиликлар оқибатида оилада зўравонлик билан боғлиқ

ҳуқуқбузарликлар содир этувчи шахсларнинг хулқ-атворида ғаразғўйлик каби хусусиятлар мавжуд бўлиб, уларда миллий, оила, инсон кадриятларини, хусусан ўзининг яқинлари ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини менсимаслик, инсонлар билан муомалада қўполлик, салбий хулқ ва бошқа нуқсонлар мавжудлиги кузатилмоқда.

Оилада зўравонлик содир этган шахсларнинг хусусиятларини ўрганишда қизиқарли савол туғилади. Хўш, нима учун бу шахслар ўзларига яқин бўлган шахслар, яъни, ўз оила аъзосига нисбатан зўравонлик содир этишади? Нима учун улар ўзига яқин бўлган кишиларига азоб беришади?

Оилада ҳуқуқбузарлик содир этувчининг шахси бошқа одамнинг шахсидан ижтимоий-хавфлилик даражаси билан қандай фарқ қилади? Бизнинг фикримизча, шахснинг ижтимоий хавфлилик хусусияти унинг жинойий хулқ-атворида боғлиқ бўлади. Ҳуқуқбузар шахс онги ва унинг маънавияти ривожланмаганлиги унинг жиноят содир этишига кўмаклашовчихусусиятлардан бири ҳисобланади.

Ҳуқуқбузар шахсларни хусусиятларига қараб тегишлилиги бўйичакриминалогик тоифаларга ажратиб ўрганиш лозим. Зеро, ҳуқуқбузар, хусусан оила турмуш соҳасида ҳуқуқбузарлик содир этган шахсларнинг ички дунёси (руҳияти)га кириш орқали уларнинг феъл-атвори, ижтимоий психологик хусусиятлари, характери ва табиатини ўрганиш уларнинг жиноят содир этишининг сабабини аниқлаш имконини беради.

Спиртли ичимлик шахснинг руҳиятига салбий таъсир кўрсатиб, зўравонлик билан боғлиқ жиноятлар содир этилишини тақозо этувчи криминоген омил ҳисобланади. Шу боисдан, оилада зўравонлик содир этган шахслар криминоген хусусиятга эга бўлишади.

Тадқиқотимизда шу нарса аён бўлдики, зўравонлик содир этган шахслар кўп ҳолларда спиртли ичимликларни меъёридан ортиқ истеъмол қилиши натижасида оғир турдаги қилмишларни ҳам содир этишган. Тадқиқ қилинган қасддан одам ўлдиришнинг 36%, қасддан баданга шикаст етказишнинг 43%, номусга тегишнинг 12%, безориликнинг 51% бевосита мастлик натижасида содир этилган. Айрим тадқиқотларда жиноятларни содир этилишида жиноятчи шахслар 73% маст ҳолатда эканлиги аниқланган [16].

Яна бир тадқиқотда маиший турмуш соҳасида содир этилган жиноятларнинг 90 фоизида эркакнинг спиртли ичимликни деярли ҳар куни истеъмол қилишининг сабаб бўлиши қайд этилган [17].

Шахснинг спиртли ичимликларни истеъмол қилиши оқибатида асаб тизимининг тормозланиши, ўзини бошқара олмаслик, қилаётган ҳатти-ҳаракатининг оқибатини англаб етмаслик, айниқса, шахснинг хулқ-атворида эмоционал руҳий ҳолатларининг салбий томонга ўзгариши кузатилади [18]. Умуман олганда, шахснинг мастлиги натижасида ўз ҳаракатларини назорат

қилолмаслик, кўполлик, агрессивлик кузатилади. Бунинг натижасида маст кишининг онгида жамиятда ўрнатилган ахлоқ-одоб нормаларига бефарқлик ва ҳурматсизлик билан қараш пайдо бўлади. Бу эса, жамиятга зид бўлган турли ғайри-ижтимоий салбий хусусиятларни шакллантириб шахснинг жиноят содир этишига олиб келади.

Хулоса ўрнида шуни қайд этиш жоизки, шахснинг мастлик ҳолатидаги ҳаракатларида маълум бир даражада ҳуқуқбузарнинг «ҳеч кимдан кўркмайман», «ҳамма нарса мумкин» деган фикрлари уларнинг ижтимоий хавфли қилмишларида намоён бўлади.

Ҳуқуқбузар шахснинг ижтимоий-руҳий хусусиятлари. Оилада зўравонлик содир этган шахсларнинг маънавий-руҳий хусусиятлари, хулқ-атвори тажовузкорлик хусусиятга эга эканлиги бир қатор табиий ва ижтимоий фан вакиллари томонидан атрофлича ўрганилган. Зикр этилган психологик хусусиятларни бир хилда ўзида мужассамлаштирган шахс ўз индивидуаллиги жиҳатдан бетакрордир [19].

Шахснинг ички майли (рашк, қасос, алам, оилада эркак ёки аёлнинг бир-бирига устунлик даъвоси ва ҳ.к.) оилада зўравонликнинг ёки жиноий ҳатти-ҳаракатларни содир этилишига сабаб бўлади. Бу объектив омиллар шахсда бевосита маънавий салбий хусусиятларни шакллантирмаса-да, лекин шахс салбий маънавий шаклланиши учун қулай шароитлар бўлиб ҳисобланади. Бундай салбий хусусиятлар эса, шахсда тажовузкорликнинг шаклланишига олиб келади. Тажовузкорлик деганда, ўз муаммоларини ҳал этиш учун зўравонлик воситаларидан фойдаланишни афзал кўриш, низоларни тажовуз йўли билан ҳал этиш орқали жиноят содир этиш тушунилади [20].

Оиладаги ҳаёт тарзи шахснинг жиноий хулқ мотивациясига бевосита таъсир кўрсатади. У ташқи ижтимоий ва бошқа омиллардан ташкил топиб, жиноят содир этувчи шахснинг шахсий хусусиятларига таъсир кўрсатиб унинг жиноят содир этишини белгилаб беради [21]. Зўрлик ишлатиб содир этиладиган жиноятларнинг мотивининг барчаси қасдга бориб тақалади. Аммо, ушбу мотив кўп ҳолларда бошқа мотивлар, хусусан қасос, рашк, ҳасад, жабрланувчини кўрқитиш, айбдор кўйган талабларнинг жабрланувчи томонидан бажарилишига эришиш кабилар билан узвий боғлиқ бўлиши мумкин [22]. Мазкур жиноятларни содир этган шахсларнинг асосий қисмини 30-55 ёшгача бўлганлар ташкил этиб, уларнинг 61%ни илгари судланган шахслар ташкил этади.

Қасддан жиноят содир қилган шахснинг судланганлигидан кейин яна янги қасддан жиноят содир этиши, унинг хулқ-атвори бузулиши даражасининг янада чуқурлашганлигини кўрсатади [23]. Ҳуқуқбузарнинг илгари жиноят содир этгани ҳам муайян қилмишнинг келиб чиқишида, айниқса жабрланувчининг қилмишига

жавоб реакциясини қайратиш билан жиноят содир этишига олиб келишини кузатиш мумкин. Бундай вазиятлар никоҳсиз бирга яшаганларда кўп кузатилди. Мисол учун, илгари судланган 1961 й.т. фуқаро Н. таниши С.нинг уйида у билан никоҳсиз бирга яшаб келган. Улар биргаликда С.нинг уйида спиртли ичимликларни истеъмол қилиб, никоҳсиз яшаётган турмуш ўртоғи С.ни бевафоликда айблаб, танасининг турли жойларига қўл ва оёқлари билан уриб тан жароҳати етказган [24].

Тадқиқот давомида оиладаги зўравонлик оқибатида содир бўлган жиноят ишлари ўрганилганида уни содир этган шахсларнинг 43,2% озодликдан маҳрум этиш жазосига, 26,5% озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларга ҳукм қилингани ҳамда 31,3% эса тарафларнинг ярашуви билан жиноят ишлари тугатилгани аниқланди. Зеро, ярашув билан жиноят ишини тугатиш келгусида жиноятлар содир этилишини олдини олиш ҳамда жиноятдан жабрланган шахсларни ҳимоя қилишда муҳим аҳамият касб этади. Ҳуқуқшунос Р.Имамов таъкидлаганидек, ярашув институтини қўллашда жиноятдан жабрланганлар манфаатларини инобатга олиш лозим [25].

Юқоридагилар асосида шундай хулоса қилиш мумкинки, оилада зўравонлик жиноятларини содир этган шахсларнинг аксарият қисмини турмуш-тарзи носоғлом, вақтинча ишсиз, маълумоти юқори бўлмаган, маънавий ривожланмаган, атрофдагиларга бўлган муносабати самимий бўлмаган, атрофидагилар билан муомалада қўпол ва жиззаки бўлган тоифадаги шахслар эканлиги намоён бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Криминология: Дарслик / –Т., 2007. –Б. 84
2. Абдурасулова Қ.Р. Аёллар жиноятчилигининг жиноят ҳуқуқий ва криминологик муаммолари: юрид. фан. док-ри. дисс-я. –Т., 2006. –Б. 75.
3. Рахмонов Р.Н., Юлдашев М.Ш. Вояга етмаганлар назоратсизлиги ва ҳуқуқбузарликларининг олдини олишда ҳуқуқий маданиятнинг аҳамияти: Республика илмий-амалий конференция материаллари. –Т., 2016. – Б. 134.
4. Шоумаров Ғ.Б. Оилавамуҳаббат. – Т., 1996.– Б. 6.
5. Исмоилов Н.Т. Вояга етмаганлар жиноятларини индивидуал олдини олиш муаммолари: юрид. фан. номз. диссер-я. –Т., 2007. –Б. 73.
6. Отажонов А.А. Жиноятга дахлдорлик: жиноят-ҳуқуқий ва криминологик жиҳатлар: юрид. фан. номз. дисс-я. –Т., 2009. –Б. 90.
7. Криминология / Н.Ф.Кузнецова, Г.М.Миньковский таҳрири остида. –М., 1994. –С. 245; Усмоналиев М., Каракетов Ю. Криминология. –Т., Янги аср авлоди, 2001. –Б. 98.

8. Ш.М. Асьянов., Ф.Х. Бакиева ва бошқ. Ўзбекистонда хотин-қизлар ҳуқуқларини таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. «Mega Basim» –Т., 2008. –Б. 60.
9. Алауханов Е.О. Криминология. Учебник, Алматы, –2008. –С. 213–214
10. Антонян Ю. М. Преступность женщин. Социалистическая законность. – М., №7, 1991. –С. –19.
11. Исмаилов И. Жиноятчиликда уюшганлик: назария ва амалиёт муаммолари. –Т., 2005. –Б. 78.
12. Жигаров Е.С., Петухов В.И. Философия. Криминология. –М.: Олма-Прес, 2006. –С. 562.
13. Душанов Р. Х. Жиноятчи шахс психологияси: Ўқув қўлланма.–Т., 2011. –Б.6.
14. Каримов И.А.Бунёдкорлик йўлидан.Т.4. –Т., 1996. –Б. 147.
15. Ильяшенко А.Н. Борьба с насильственной преступностью в семье. –М., 2003. –С. 115.
16. Журавлева Ю.В.Виктимологическая профилактика изнасилований: Афтореф. дис. кан. юрид. наук. –М., 2007. –С. 12.
17. Коцюба В.А.Криминологический анализ и предупреждение преступлений а сфере-бытовых отношений: Афтореф. дис. кан. юрид. наук. – Красноярск., 2004. –С. 13.
18. Попов А.Н. Насилие как основание возникновения аффекта при совершении преступлений против личности. / А.Н. Попов // Уголовноеправо.Киев. –2002. –С.69.
19. Умумий психология. –Т., 1992. –Б. 210.
20. Антонян Ю.М. Психология убийства. –М., 1997. –С. 17–18.
21. Акназарова Ш. Оилада зўрлик ишлатиб содир этиладиган жиноятлар сабабларини аниқлашнинг аҳамияти // Адвокат. –Т., 2011. №-2. – Б. 37.
22. Астанов И.Р. Зўрлик ишлати содир этиладиган жиноятлар ва уларни тергов қилишнинг ўзига хос жиҳатлари: Ўқув қўлланма. –Т., ТДЮУ, 2015. –Б. 139.
23. Инамов Р. Зўрлик ишлатмасдан толон-торож қилиш жиноятлари учун жазо тайинлаш: юрид. фан. номз. дисс-я. –Т., 2011. –Б. 57.
24. Жиноят ишлари бўйича Жиззах шаҳар суди архиви 1/264-20-сонли йиғма жилд.
25. Имамов Р. Зўрлик ишлатмасдан толон-торож қилиш жиноятлари учун жазо тайинлаш: афтореф.дисс. кан. юрид. наук. –Т., 2011. –Б. 12.

**OLIV TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI
MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY
TENDENTSIYALARI**

Shaymatova Nargiza Ashurovna


Termiz davlat universiteti

“Moliya” kafedra o'qituvchisi

Hozirda ta'lim tizimi iqtisodiyot rivojlanishining eng muhim omili hisoblanadi deb, to'g'ridan-to'g'ri aytilmoqda va rivojlangan davlatlarda ta'lim iqtisodiyotga nisbatan birlamchi ekanligi ko'rsatilmoqda. Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalari moliyaviy faoliyatini yanada rag'batlantirish va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator qarorlar, dasturlar qabul qilinib hozirda ijrosi ta'minlanib kelmoqda. Bu jarayonda oliy ta'lim muassasasining moliyaviy manbaalari va ulardan foydalanish samaradorligini ta'minlash asosida yuqori ta'lim sifatiga erishishi bugungi kundagi asosiy ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ta'lim sohasini rivojlanish darajasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Rivojlangan davlatlar uchun esa oliy ta'lim sohasini rivojlantirish masalalari juda muhim hisoblanadi. Yuqorida shuni aniqlandiki, ta'limga yo'naltirilayotgan xarajatlar jismoniy kapitalni rivojlanishiga o'zini ta'sirini ko'rsatgan holda mamlakatning o'z texnologik rivojlanishi hamda boshqa davlatlar tomonidan ishlab chiqilgan texnologiyalarni tez ilg'ab olish imkoniyatini yaratib berish kabi bilvosita ta'sirini ham ko'rsatadi. Yana shuni ta'kidlash mumkinki, iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun ta'limning turi, sifati va samaradorligi kabi barcha jabhalari ta'sir ko'rsatadi.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim bosqichlariga yo'naltirilayotgan xarajatlar hajmi nafaqat to'g'ridan to'g'ri iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi balki rivojlanish uchun zarur bo'ladigan ta'lim salohiyatini shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ta'limning nafaqat bevosita, balki shu bilan birga bilvosita (tashqi) ta'sirlar ham shakllanib boradi, chunki bir induvid tomonidan olinayotgan bilim atrofidagi boshqa insonlarga, sanoat tarmoqlariga, shaharlarga, tuman va qishloqlarga va umuman mamlakatga tarqalishi kabi ta'sirlarini ham ko'rish mumkin. Makro miq'yosda ta'limdan shakllanadigan ijtimoiy ta'sir, xususi holatga nisbatan farqli o'laroq, o'zining hajmlari bilan va o'z navbatida shunga yarasha ta'siri bilan ham ta'lim sohasini davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishiga asos bo'la oladi. Ta'limning ijtimoiy ta'siri qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik ta'limga yo'naltirilayotgan davlat xarajatlari samaradorlik darajasi yuqori bo'ladi. Ayniqsa, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashib borayotgan O'zbekiston uchun ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini shakllanayotgan bozor, shu jumladan, mehnat bozori talablariga moslashtirish hamda

mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadlari va vazifalariga muvofiqlashtirishni hayotning o'zi taqozo etdi.



1-rasm. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish shakllari.

Shu munosabat bilan oliy ta'lim muassasalariga byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilishning usul va shakllarini kengaytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Oliy ta'lim muassasalariga davlat tomonidan berib qo'yilgan mulkdan foydalanish huquqi ularga katta miqdordagi mablag'larni jalb qilish imkoniyatini beradi. Chunki bu ularning berilgan mulkdan to'liq begonalashmagan holda tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etishiga katta imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, vaqtincha bo'sh turgan binolarini ijaraga berish hamda institut hududida ta'lim muassasalari uchun zarur bo'lgan xizmat ko'rsatish ishlarini yo'lga qo'yish orqali oliy ta'lim muassasalari hisobiga qo'shimcha mablag'larni jalb qilish mumkin.

Ta'lim sohasida kuchli va izchil siyosat ta'lim sifatini ta'minlashni xalqaro darajaga ko'ratish asosida yuqori bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan komil shaxslarni tarbiyalash yotadi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar keng ko'lamliligi bilan ajralib turadi va hozirgi kunda esa o'quv jarayonida ta'lim sifatini keskin oshirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Ayniqsa, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bu borada yuqori natijalarga erishish imkonini berdi. Yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi shakllantirildi. Bularni natijasi sifatida aytish mumkinki bugungi kunda milliy ta'lim modelimizni yutuqlari dunyo jamoatchiligi tomonidan e'tirof etmoqda.

Shunday ekan, O'zbekistonda ta'lim tizimining moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish orqali malakali kadrlar tayyorlashning yangicha boshqaruv tuzilmalarini tashkil etish va boshqaruvning zamonaviy shakl va usullaridan foydalanish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Buning uchun, avvalo, ta'lim tizimini davlat tomondan moliyaviy qo'llabquvvatlash, mavjud mablag'lardan

samarali foydalanish hamda ta'lim muassasalariga byudjetdan tashqari mablag'larni jalb etishni takomillashtirish muhim o'rin tutadi. Negaki, ta'lim muassasalarini etarlicha mablag' bilan ta'minlamay turib, sifatli ta'lim tizimini talab etish oxir oqibatda ushbu soha samaradorligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish yo'nalishlari va usullarini qo'llashda ta'lim sohasi rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimini o'rganish va mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan kelib chiqqan holda, o'zimizga moslashtirib, xorij tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shernayev A.A, Qalandarov Z.I. Strategik rivojlanish sharoitida mahalliy byudjetlar daromadlarini takomillashtirish yo'nalishlari. «Студенческий вестник»: научный журнал. – № 20(165). Часть 14. Москва, Изд. «Интернаука»
2. Shernaev A.A. Principles and methods of organization of the internal tax control system in joint stock company // International Journal of Economics, Business and Management Studies - ISSN:2347-4378 SJIF Impact Factor(2021) :7.473, Journal DOI: 10.36713/epra1013 (Volume: 8, Issue: 4, April 2021).
3. Shernaev A.A. Tax analysis in microlevel tax planning // electronic journal of actual problems of modern science, education and training. February, 2021 -IV. ISSN 2181-9750, 75-82-p. 8. Shernaev A.A. On the issue of the efficiency of taxation of joint stock companies // «ЭКОНОМИКА И БИЗНЕС: теория и практика». Международный ежемесячный научный журнал - №9-2 (67). Москва, изд. ООО «Капитал»
4. Shernayev A.A, Budjetdan tashqari jamg'armalar moliyaviy resurslarini shakllantirish va taqsimlash amaliyotini takomillashtirish yo'nalishlari. «Студенческий вестник»: научный журнал. – № 1(99). Часть 6. Москва, Изд. «Интернаука»
5. Khamdamov S. ASSESSMENT OF RISKS RELATED TO PENSION SUPPORT OF CITIZENS CONCERNING PENSIONS BY AGE //International Finance and Accounting.

ONA TILIMIZNING BUGUNGI KUNDAGI YUTUQ VA KAMCHILIKLARI
YUZASIDAN METODIK TAVSIYA

Tursunova Nargiza Ismoiljonovna

Farg'ona viloyati Oltiariq tumani

4-aniq va ijtimoiy fanlarga ixtisoslashtirilgan

davlat umumta'lim maktabi

Annotatsiya: Tavsiyada davlat tiliga yanada e'tiborni kuchaytirish, har bir yosh avlodni ona tiliga muhabbat ruhida tarbiyalash, o'zbek tilida aniq va ravon so'zlashga, erkin fikrlashga chorlash har birimizning muhim vazifamiz ekanligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: davlat tili, milliy o'zligimiz, ma'naviy boylik, ma'nodosh so'zlar, turkiy tillar, jargon so'zlar, estrada qo'shiqchiligi, san'at darg'alari, ma'naviy ozuqa, madaniy hordiq, urf-odatlar, qadriyatlar, iftihor, ravnaq.

*"O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli,
bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir."*

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

Inson yarlibdiki, u o'z dilidagini namoyon etish uchun tili orqali munosabatga kirishadi. Har bir millatning o'z tili mavjud. Bizning ona tilimiz – bu o'zbek tilidir.

Ona tili — har bir elatning, [xalqning](#), millatning o'z tili. Ona tili lug'at tarkibi, asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an'alarini ifodalaydigan so'z va tushunchalardan iborat bo'ladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Tilimiz o'zining ma'nodosh so'zlarga boyligi, jozibadorligi va yoqimli talaffuzlari bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Buni biz necha necha shoiru yozuvchilarimizning ijod na'munalarida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Milliy adbiyotimiz taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov bejiz:

Ming yillarkim bulbul kalomi

O'zgarmaydi, yaxlit hamisha,

Ammo sho'rlik to'tining holi

O'zgalarga taqlid hamisha.

Ona tilim, sen borsan shaksiz

Bulbul kuyin she'rga solaman.

Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz,

Men ham to'ti bo'lib qolaman..., deb bejiz ta'kidlamagan.

Buyuk shoir misralarda bulbul kuyini she'rga solayotganining sababi ona tilimizning mavjudligiga ishoradir. O'z tilini yo'qotganlar esa, ijodkor tili bilan to'ti bilan qismatdosh bo'lishga mahkum qilingan.

Necha davonlar oshib, onalarimiz allasidan, yigitlarning yallasidan, bolajonlarimizning shirin tilidan chiqib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan o'zbek tilining davlat tili deb e'lon qilinganiga ham 32 yil bo'ldi.

Dunyo miqyosida 50 millionga yaqin insonlar so'zlashadigan, turkiy tillar oilasiga mansub eng yirik tillardan biri bo'lmish o'zbek tiliga 1989-yil 21-oktyabrda davlat tili maqomi berildi. Shu kundan boshlab barcha bilim maskanlari har yili bu kunni o'quvchi-yoshlarni jamlab, katta tadbir ko'rinishida o'tkaza boshladi. Bu qutlug' sanada til bayrami o'quvchilar bilan birgalikda katta quvonch bilan nishonlanadi.

Ammo shunisi achinarliki, ko'plab yoshlarimiz o'z tilidan ko'ra o'zga tilda gaplashishni o'zlariga g'urur deb biladilar. Rus, ingliz tilidagi jargon so'zlarni qo'shib, o'z ona tilisini buzib gapirishlari go'yoki zamonaviy yigit-qiz ekanligidan dalolat beradi.

Buyuk shoir Abdulla Oripovning yuqorida keltirilgan she'ridagi to'tining holini shundayin o'z tili bo'la turib, unga behurmatlik ko'rsatayotganlarga taqqoslasak ne ajab. Biz o'z tilimizda g'ururlanib, sof gapirishimiz darkordir.

Albatta yoshlarimizning o'zbek tilida sof gapirmasliklariga sabab ommaviy axborot vositalarida berib borilayotgan estrada taronalarining ham ahamiyati katta. Qo'shiq matnini o'zi yozib, o'zi kuy bastalab, o'zi shunchaki havasga aytayotgan ba'zi "qo'shiqlarning" yosh avlodning dunyo qarashiga va ongiga ta'siri shubhasiz bo'ladi.

Qo'shiq she'riga e'tibor qaratmay, ruscha, inglizcha so'zlardan foydalanib qo'shiq ijro etayotgan xonandalarimiz esa o'zbek estradasida milliy til muamosini keltirib chiqarmoqdalar. O'zbek estradasidagi qariyb 80% qo'shiqchilarni shu kabi qo'shiqchilar qatoriga qo'shishimiz mumkin. Jumladan, necha yillardan beri o'zbek estradasida faoliyat olib borayotgan "Afruz" guruhi "Ay-ay" deb nomlangan qo'shig'ida shunday kuylaydi:

Erkalasam yana

Yo'q dema, dema.

Qayerdan shuncha chiroy,

Вахтлиман только с тобой.

Bemorman o'y-yo'y,

Вот я, вот такой.

Bemor bo'lgan honanda o'zining qandayligini, ahvoli yomonligini hursand holatda qo'shiqda ruscha jumalarni qo'shgan holda ijro etmoqda.

Yoki bo‘lmasam, Via Marokand guruhi ijrosidagi “Sevgi degani shu” nomli qo‘shiq matniga nazar solsak:

Bo‘ldi qiling, jim!

Jimmi? Bo‘ldi jim.

Gapirmadim agar sizga o‘tmasa so‘zim.

Bo‘ldi qiling, jim!

Ok, ana jim.

O‘tiribman suhbatdoshim faqat men o‘zim.

Qani mani наушник im?

Sizni eshitgim kelmayapti!

Ru tu tut u, sevgi degani shu.

Rut u tut u, Я тебя люблю.

Ho‘p девушка ho‘p, ho‘p...

Shu va shu kabi qo‘shiqlarimizning son sanog‘i yo‘q. Ularni berilib tinglayotgan yoshlar ham talaygina. Hech qanday milliylikni, o‘zbekcha ruhni o‘zida mujassamlashtirmagan qo‘shiqlarni tinglab borayotgan yosh avlod san‘atning shu turi orqali kelajakda qanday inson bo‘lishini rejalashtirib olyaptimi, yoki yetarli hulosalarga ega bo‘lyaptimi? Xullas, anig‘i noma‘lum. Biroq o‘zbek yoshlarining og‘zidan tushmay, hirgoyi qilayotgan qo‘shiqlari orqali tarbiyasi buzilayotgani barchaga birdek ma‘lumdir. Yosh avlodning tarbiyasida, davlat tilini ularga singdirishda san‘atning o‘rni beqiyosligi hech kimga sir emas. Avvalgi san‘atimiz darg‘alari har bir so‘z ustida tinmay izlanganlar, ma‘no-mazmunini tushunib yetib, so‘ng qo‘shiqni ijro etganlar. Ular yaratgan ijod na‘munalari esa, insonga ma‘naviy ozuqa, madaniy hordiq beribgina qolmay, tarbiya vazifasini ham o‘tay olgan.

O‘z ona tilimizni farzandlarimiz ruhiga, ongiga singdirish bizning chin insoniy vazifamiz emasmi? Zero shu til orqali o‘sib kelayotgan yosh avlodga milliy urf-odatlarimizni, qadriyatlarimizni, o‘zbekona mehr-oqibat, ota-onaga cheksiz hurmatni, o‘zligimizni anglashni singdirishimiz tabiiydir.

Afsuski, aksariyat ota-onalarimiz o‘zlari o‘zbek bo‘la turib, farzandlarini ta‘lim rus tilida olib boriladigan sinflarga beradilar. To‘g‘ri ular ham dilbandim til bilsin, “Til bilgan - el biladi”, dunyo ko‘rsin, deb niyat qiladilar. Ammo, ming afsuslarkim, aksariyat bolalar rus sinfida o‘qib na o‘zbek tilida, na rus tilida to‘liq gapirolmaydigan bo‘lib ta‘lim olmoqdalar. Bunday holat kelajakka o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Avval har bir o‘zbek o‘z tilida ravon so‘zlasin, mag‘rurlanib gapirsin, keyin esa boshqa tilga yuzlansin. Na o‘zbek tilida, na boshqa tilda to‘liq gapirolmasa, bunday “arosat”ning qanday foydasi bor. Bu haqda shoira Halima Xudoyberdiyeva o‘z she‘rida ham ta‘kidlab o‘tgan:

Senda bodom isi bor,

Senda bobom isi bor,

Bolam na rus, na o‘zbek,
Arosat belgisi bor.

Besh yuz yillar avvalgi
Xatni men anglayman, bas,
Men bugun aytganimni
Bolam ba‘zan tushunmas.

Ko‘kragimda dod qotgan,
Yaqinlashar katta havf,
O‘z tilini yo‘qotgan
Xalq bo‘lmasmi yerdan daf.

Oldga, safarbarlikka
Qanday yaraydi bolam,
Ortidagi jarlikka
Qanday qaraydi bolam.

Darhaqiqat, o‘z tilida so‘zlamagan xalqning o‘zligi bo‘lmaydi, milliyligi bo‘lmaydi. Biz o‘z tilimizda g‘urur, iftihar bilan ma’noli, sof so‘zlaylikki, farzandlarimizga o‘zimiz bilmagan holda o‘rnak bo‘laylik. Ahir aytishadiku, “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, deb. Shundagina kelajak uchun mos avlod qoldira olamiz. Milliy tilda ravon so‘zlash shunchaki boshqalardan ajralib turish uchun emas, o‘zligimiz uchun, yillar, asrlar davomida qadrlanib kelayotgan urf-odatlarimiz uchun, milliy madaniyatimiz uchun, Vatanimiz ravnaqi uchun juda muhimdir. Buning uchun albatta ta‘lim hamda san‘at turlariga katta e‘tibor qaratmog‘imiz darkordir. Yosh avlodning ongiga milliy tilni kino hamda estrada san‘ati turlari orqali singdirish katta ahamiyat kasb etadi. Ta‘lim jarayonida ham o‘zbek tilining naqadar boy hamda buyuk til ekanligini o‘quvchilarning ongiga singdirib, davlat tilini qadrlash va hurmat qilishga o‘rgatish darkor. Shundagina tilimizning qadri baland bo‘lib, yurtimiz ravnaqi yanada oshadi.

Til – millatning o‘tmishi, buguni va ertasini bog‘lab turadigan mustahkam ko‘prik. U darz ketsa, istalgan millat o‘zi, o‘zligi, ma‘naviy qiyofasini butkul yo‘qotadi. Til – madaniyat, ma‘rifat, axloq, tarbiya va shaxs kamolotining bosh mezon. Bu mezon shikastlansa, millat tanazzulga, uning go‘zal va abadiy qadriyatlarini yo‘qlikka yuz tutmog‘i muqarrardir. Unutmaylikki, inson ruhiy kechinmalarining rangin tasviri, o‘y-fikrlarining jo‘shqin tabiati, fitratu fikratidagi erk va hurriyat mushohadasining nurli tasviri ona tilining jozibasi, shukhi, so‘nmas va betakror qudrati orqali namoyon bo‘ladi. Ona tilimizni e‘zozlaylik, qadriga yetaylik!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Sh.M.Mirziyoyev “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”-T.: O‘zbekiston 2020.
2. A.Oripov “Saylanma”- T.: Tafakkur qanoti 2019.
3. H.Hudoyberdiyeva “So‘z chamani” –T.: Akademnashr 2020.
4. <http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/anons/6>

ADABIYOT DARSLARINI ZAMONAVIY INTERFAOL METODLAR
ASOSIDA TASHKILLASH YUZASIDAN METODIK TAVSIYA

Mirzarahmatova Nazoratxon Rasulovna

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani 4-umumiy o'rta ta'lim

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim texnologiyasi, uning an'anaviy ta'limdan farqi, afzalliklari ko'pgina olimlarni qiziqtirib, ularning ilmiy tadqiqot mavzusiga aylangan. Ushbu maqolada interfaol usullar va ulardan dars jarayonida samarali foydalanish, o'quvchilarni darsga, bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, mustaqil fikrlash va xulosa chiqarishga o'rgatish borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar.

Adabiyot yashasa, millat yashaydi (Cho'lpon)

Bugungi kunda tezlik bilan o'zgarayotgan, jadallashib rivojlanayotgan dunyoda xalqimiz ertasiga ishonch bilan intilayotgan, to'g'ri tanlangan taraqqiyot yo'lidan og'ishmaslik uchun yosh avlodni yangicha tafakkur va yangicha yondashuvlar asosida tarbiyalash muhimligi barchaga ayon. Hozirda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi tub islohotlarning negizida ham ta'lim mazmuni va shaklini takomillashtirish yotadi. Hozirgi bolalarning olamni bilishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishi oldingi yillarga nisbatan ancha farqli ekanligi ham sir emas. Yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazish jarayonini yangi pedagogik "qurol" va vositalar bilan ta'minlash davr taqozosidir.

Zamonaviy ta'lim oldida turgan eng muhim vazifa o'quvchining ilm olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Bu vazifa esa darslarda zamonaviy yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar vositasida amalga oshirilishi samaraliroqdir. Interfaol usullar o'quvchilarga tez muddatda samarali ta'sir etishi, o'quvchilarda mustaqil fikrlashni, ulardagi ijodkorlik hamda mavzu mohiyatini qiziqib o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Jumladan maktabda adabiyot darslarida ham interfaol usullardan foydalanish dars samaradorligini ta'minlabgina qolmay, o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni ham oshiradi.

"Rolli o'yin" usuli - ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi usuldir. Rolli o'yinlar o'quv jarayonida ta'lim oluvchilar motivatsiyasini shakllantirishga yordam beradi. "Rolli o'yin" usulini qo'llash uchun avval senariy ishlab chiqiladi, o'yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi, so'ngra rollar taqsimlanadi, rollari haqida tushunchaga ega bo'lgan ishtirokchilar tomonidan rollar ijro etiladi va yakuniy

xulosaga kelinadi. Masalan, 6-sinfda Abayning “Nasihatlar” asarini o’rta bahsni rollarga bo’lib o’qitish va sahnalashtirish o’quvchilarning to’g’ri xulosa chiqarishlariga yordam beradi.

“Mozaika” usuli – bo’laklardan yig’ib butun hosil qilishdir. Bu usuldan foydalanish uchun harflar yoki so’zlar oldindan kartochkalarga ya’ni tarqatmalarga yozilgan bo’lishi kerak. O’quvchilar harflar yoki so’zlar ketma-ketligini to’g’ri joylashtirib berilgan topshiriqni bajarishlari lozim. adabiyot darslarida she’r, asar, janr nomlari, badiiy san’at turlari berilishi mumkin. Bundan tashqari biror asarga oid rasmlarni qirqib bo’laklab qo’yilsa, o’quvchi uni yig’ib rasm asosida asar haqida ma’lumotlar berishi mumkin. Darsda guruhlar bilan ishlaganda ham bu usuldan samarali foydalansa bo’ladi.

“Nuqtai nazaring bo’lsin” usuli – bu usul dars jarayonida qo’llanganda o’quvchilar muayyan mavzuda o’z nuqtai nazarini asosli dalillab, uni himoya qilishga o’rganadilar, o’quvchilar o’rtasida munozara yuzaga kelishi va ular munozara jarayonida o’z fikrlarini sinfdoshlaridan ularning nuqtai nazarini o’zgartirishga ishonitiradigan g’oyalarni eshitib o’zgartirish yoki avvalgisini mustahkamlash imkonini beradi. Hatto darsda faol bo’lmagan o’quvchilarni ham savollar orqali munozara jarayonida ishtirok etishlariga majbur qiladi.

6-sinfda Tog’ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” asari g’oyasini tushuntirishda “Nuqtai nazaring bo’lsin” usulidan foydalanib darsni tashkil etish mumkin. Bu usulning maqsadi shuki o’quvchining bevosita adibning ijodi, ma’naviy merosimizga qo’shgan ulkan hissasi to’g’risida (adibning o’zidan ,yor-u do’stlari tomonidan bayon etilgan) videolavhalarda ko’rsatish, asardagi so’zlarni o’quvchi tomonidan o’qitilmay, balki asar qahramonlari tomonidan videolavhalar orqali yetkazishni ta’minlashdan iboratdir. O’qituvchi tayyorlangan bu lavhalarni ko’rsatish bilan bir qatorda uni izohlash, to’ldirib borishi, o’quvchilarni jalb qila olishi, tanqidiy-mushohadali fikrlarini eshitishi, xulosalab borishi dars samaradorligini yanada oshiradi.

Klaster metodi. Klaster (g’uncha, bog’lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo’lib, u o’quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o’ylash va shaxsiy fikrlarni bimalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g’oyalar o’rtasidagi aloqalar to’g’risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob’ektga yo’naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog’liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o’quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o’zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo’lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Dars – ta’limning asosiy shakli bo’lib, murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. respublikamizda ta’lim sohasida chuqur islohotlar o’tkazilayotganligi, ayrim xorijiy ta’lim tizimidagi ijobiy o’zgarishlar, jahon ta’lim standartlariga

yaqinlashishga intilish, darslik va o'quv dasturlarining yangi avlodi yaratilishi darsni yanada ixcham va qiziqarliroq shaklda tashkil etilishi uchun zamin bo'lmoqda. Maqolada ta'limning interfaol usullarining ayrimlari haqida ma'lumot berildi xolos. Ularni boyitish, to'ldirish, yangi-yangi usullarni kashf etish, dars samaradorligini oshirish barchamizdan izlanishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. Barkamol avlod orzusi. –T. «Sharq», 1999
2. Mirqosimova M. Adabiy ta'lim metodikasi. –T. 1993
3. Adabiyot o'qitish metodikasi (tuzuvchilar. Q.Yo'ldoshev, O.Madayev, A.Abdurazzoqov). Toshkent. 1994 yil.
4. A.Safarov, Q.Bahromov Noan'anaviy darslar va ta'limning interfaol usullari. Buxoro. 2004
5. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent «Yangi asr avlodi», - 2006
6. <http://www.pedagog.uz>; [www. connect.uz](http://www.connect.uz) : [www. fantexnolog.uz](http://www.fantexnolog.uz)
7. www.ziyonet.uz

**KARP BALIQLARINI YETISHTIRISHDA HOVUZGA TUPROG'IGA VA
SUVGA QO'YILADIGAN TALABALAR VA KARPCHILIK
XO'JALIKLARINI TASHKIL QILISH**

**Matyoqubov Olimjon
Tajiboyev Muhammadjon**

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya

Ushbu maqolada karp baliqlari biologiyasi va ularning reproduktiv xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari maqolada karp baliqlari xo'jaliklarini tashkil qilishda ahamiyat berilishi kerak bo'lgan meyorlar haqida so'z yuritiladi. Karp hovuzlarining tuproq va suv xususiyatlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: karp, hovuz, suv manbalari, pH ko'rsatkichi, suvning ifloslanishi, zaharli moddalar, fitoplankton, zooplankton, suv o'simliklari.

Kirish

Mo'tadil iqlimli hududlarda iqtisodiy jihatdan muhim tur bo'lgan karp (*Cyprinus carpio* Linnaeus, 1758) sovuqqa chidamli, shuningdek issiqlikni yaxshi ko'radi va intensiv dehqonchilik uchun juda mos keladi. Kislorodga oz miqdorda ehtiyoj sezadi va kultivatsiya paytida ushlab, tortish kabi jarayonlarga sezgir emas, oson shikastlanmaydi, suv haroratining 4-30°C gacha o'zgarishiga qisqa vaqt ichida moslashadi^[3].

Karp ekologiyaga juda chidamli. U 20 °C dan yuqori haroratda optimal darajada o'sishiga qaramasdan, u <1 °C suv haroratiga va keskin harorat o'zgarishiga uzoq vaqt davomida ta'sir qilishi mumkin. Karp muntazam ravishda 5% sho'rlanish va pH 5-9 oralig'ida o'sadi. U sho'rlanish tajribada 12% ga oshirilganda ham o'sishda davom etadi.

Tabiiy karp bilan solishtirganda, orqa qismi balandroq, to'g'ri, tanasining katta qismi tarozisiz, tarozilari tanasining turli joylarida tarqoq va yumaloq bo'lgan, tez o'sib boruvchi, sun'iy akvakulturaga yaxshi moslashgan tur bo'lib, sharoit va yuqori ozuqa qiymatiga ega.

Tabiiy yashash joyi, yoshi va o'sish xususiyatlari

Tabiiy yashash joyi ko'llar, hovuz va daryolardir . Bu suv harorati va ozuqa holatiga qarab tez o'sadigan baliqdir. Ularning 20-25, hatto 35-40 yil umr ko'rishi, bo'yi 1 m dan oshib, vazni 25-30 kg ga yetgani ma'lum qilingan^[1].

Oziqlanish xususiyatlari

Karp - hammaxo'r baliq bo'lib, pastki qismida oziqlanadi. Ularning oziq-ovqatlari bentik suv hayvonlari, plankton, o'simlik qismlari va o'simlik qoldiqlaridan

iborat. Pastki qismdagi kichik suv jonzotlarini loy bilan olib, loyni orqaga tashlaydi. Shuning uchun u loyda bo'shliqlar hosil qiladi. Katta karp ba'zi kichik baliqlarni yeyishi ham kuzatilgan. Eng yaxshi ozuqa olish va undan foydalanish 16-25 ° C suv haroratida va ayniqsa 23-24 ° C da sodir bo'ladi.

Reproduktiv xususiyatlar

U tabiiy muhitda, ko'llarda va sekin oqadigan daryolarda, suv harorati 18-22 °C bo'lganda, guruh bo'lib urug'laydi. Lichinkalar o'simliklarga yopishgan tuxumdan 3-4 kun ichida paydo bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

May va iyul oylarida suv harorati 18-20 °C ga yetganida, urug'lantirish sayoz va mo'l-ko'l ekilgan suv uchastkalarida sodir bo'ladi. Karpning ko'payishining eng muhim omili suv harorati bo'lganligi sababli, Shimoliy mamlakatlarda u kamdan-kam ko'payadi yoki umuman ko'paymaydi. Urug'lantirish bir hafta ichida tugaydi. 1 kg tana vazniga 200-300 ming tuxum qo'yadi. Tuxumlar shaffof va yopishqoq, diametri taxminan 1 mm. Shishgan tuxumning diametri taxminan 1,6 mm. Suv o'simliklarida qo'yilgan tuxumlar 3-4 kunda chiqadi^[2]. Tuxumdan chiqadigan lichinkalarning uzunligi 5 mm. Tuxumdan chiqqan lichinkalar 1-3 kun davomida biriktiruvchi organlari bilan suv o'simliklariga yopishadi. Bu davr oxirida ular suv yuzasiga chiqadilar, suzish pufagini havo bilan to'ldiradilar va suzishni va oziq-ovqat olishni boshlaydilar. Ular asosan o'simlik va hayvonlarning planktonlari (yosunlar, rotiferlar, mayda qisqichbaqasimonlar) bilan oziqlanadi. Uzunligi 18 mm ga yetganda, ular bentos organizmlar bilan oziqlana boshlaydilar.

Karp yetishtirishda suv havzalarini to'liq saqlash, yozda suv havzasi tagidan va devorlaridan oqish va bug'lanish natijasida kelib chiqadigan yo'qotishlarni qoplash, suvda iste'mol qilinadigan kislorod miqdorini qoplash uchun minimal miqdorda suv (0,5-1,0 l/min/ga) talab qilinadi. Suv miqdori hovuz tuprog'i va iqlim sharoitiga qarab o'zgarib tursada, hovuzdan chiqishda kislorod miqdori 5-6 mg/l dan past bo'lmasligi kerak. Hovuzlarga beriladigan suv miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, baliqlarning zichligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Karp ishlab chiqarishda ariq, buloq suvi, ko'l suvi, yer osti suvlari yoki qisqasi sovuq bo'lmagan barcha suvlardan foydalanish mumkin. Daryo oqimlari kislorod va ozuqa moddalarining yuqori miqdorini o'z ichiga olgan bo'lsada, ular suv toshqini va pestitsidlarning to'kilishi xavfi tufayli ehtiyotkorlik bilan ishlov berishni talab qiladi. Bundan tashqari, maishiy yoki sanoat oqava suvlari bilan ifloslanish xavfi va suv sathining mavsumiy pasayishiga e'tibor qaratish lozim. Agar kerak bo'lsa, daryo oqimidan olingan suvni hovuzlarga berishdan oldin tindirish kerak bo'lishi mumkin.

Buloq suvlari nafaqat kislorodga kam, balki zaharli gazlarni saqlash xavfiga ham ega. Suvda kislorod miqdori kam bo'lsa, suvni tomchilatish orqali kislorod miqdorini oshirish mumkin. Shu tarzda, ba'zi zararli gazlar ham uchib ketishi mumkin. Ko'p

miqdorda zaharli gazlar yoki temir va qo'rg'oshin kabi og'ir metallar bo'lgan suvlar karp yetishtirish uchun mos emas.

Buloq suvlari toshqinlar va yomg'irlar bilan ifloslanmayi va ular loy va loyqalarni tashimaydi, shuningdek, parazit va kasallik mikroblarini olib yurmaydi.

Karp ishlab chiqarishda artezian suvlari va nasos yordamida olinadigan yer osti suvlaridan ham foydalanish mumkin. Biroq, baliq yetishtirishda yer osti suvlaridan foydalanishni ko'rib chiqayotganda, xarajatlarni tahlil qilish yaxshi amalga oshirilishi kerak. Harorat mos bo'lgan taqdirda karp yetishtirish uchun ko'plab suv manbalaridan foydalanish mumkinligi sababli, karp yetishtirish uchun ma'lum o'lchamlar bilan cheklangan har qanday suv manbasini tavsiya qilish qiyin.

Karp yetishtirishda suv sifati mezonlari

Muhokama

Hovuz baliqchiligining muvaffaqiyati suvning tabiiy ozuqalarga boy bo'lishiga bog'liq. Suvning ozuqaviy boyligi (tabiiy samaradorlik) tarkibidagi ohak miqdoriga bog'liq. Suvdagi ohak miqdori uning kislota bog'lash qobiliyati (KBQ) bilan o'lchanadi. Agar 1 litr suvda 28 mg CaO bo'lsa, suvning kislota bog'lash qobiliyati 1 ga teng. Karp yetishtirishda $KBQ = 1,5$ (42 mg CaO/l) bo'lgani ma'qul. $KBQ < 0,5$ bo'lgan suvlar unumdorligi past, $KBQ = 0,5-1,5$ gacha bo'lgan suvlar o'rtacha unumdor, $KBQ > 1,5$ bo'lgan suvlar unumdor deb tasniflanadi.

Biroq, $KBQ > 6$ bo'lmasligi kerak.

Karp yetishtirish uchun pH 5,5-10,5 va optimal 7-8 bo'lishi kerak. Suvdagi ohak miqdori ortishi bilan pH qiymati ham ortadi. Biroq, yuqori pH qiymati har doim ham suvda juda ko'p ohak borligini anglatmaydi. Fitoplankton va suv o'simliklari zich bo'lganda, ayniqsa yozda, fotosintez natijasida, atrof-muhitdagi CO₂ miqdori va pH qiymati mos ravishda ortadi. Natijada, suvning ohaklari haddan tashqari ko'p degan xulosaga kelish mumkin. Kundalik o'lchovlarda pH qiymati 6,5-8,5 gacha bo'lsa, suvdagi ohak miqdori yetarli. pH past bo'lsa, suvni kalsifikatsiya qilish kerak. Suvda $4 > pH > 11$ bo'lsa, baliq yetishtirish uchun mos emas. Bu turdagi suvni akvakulturaga moslashtirish qimmatga tushadi. $pH < 4$ bo'lgan suvlar nafaqat baliqning ozuqa iste'molini kamaytiradi, balki erkin H⁺ ionlari hosil bo'lishi tufayli hujayralarni o'tkazmaydigan qilib qo'yadi va rivojlanish bosqichlarida baliqlarning o'limiga olib keladi. Bundan tashqari, u fitoplankton va zooplanktonning o'sishiga to'sqinlik qiladi va suvning biologik ozuqaviy qobiliyatini pasaytiradi. Suvdagi ohakning yetarli emasligi pH darajasini pasaytiradi va baliqning shkalasi va suyak shakllanishida nuqsonlarni keltirib chiqaradi.

Natija

Karp suv havzalarida kislorod miqdori 5-6 mg/l dan past bo'lmasligi kerak^[3]. Hovuzdagi kislorodning katta qismi hovuzga keladigan suv hisobiga, kichik qismi esa (1,5 g O₂/m²/kun; yirik ko'llarda 4,8 g O₂/m²/kun) yer yuzasini shamollatish orqali

ta'minlanadi. Hovuzga kiradigan kislorod qancha ko'p bo'lsa, maxsuldorlik shunchalik yuqori bo'ladi. Suvning kislorodi yetarli bo'lmagan hollarda, hovuzga kirishdan oldin sharshara tushirish orqali kislorod miqdorini oshirish mumkin bo'ladi. Hovuz suvidagi kislorodni nafaqat baliq, balki suvdagi organik moddalar, mikroorganizmlar va suv o'simliklari ham kechalari iste'mol qilganligi sababli, ayniqsa yozda kislorod tanqisligi nuqtai nazaridan erta tong juda muhim. Suv harorati oshishi bilan uning kislorodni ushlab turish qobiliyati pasayadi. Shu sababli, suv havzalaridagi suv harorati bilan birga hovuzdan chiqish suvidagi kislorod miqdorini doimiy ravishda kuzatib borish kerak. 1 kg vaznli karp uchun 300-500 mg O₂/l/soat talab qilinadi.

Suv harorati ko'payish, ovqatlanish va metabolik faoliyat uchun muhimdir. Karp suv harorati 18-20 °C ga ko'tarilmaydigan suvlarda ko'paya olmaydi. U 18-20 °C va undan yuqori haroratlarda doimiy ravishda o'sadi, chunki u intensiv ozuqa oladi. Shu sababli, Yevropada havo harorati past bo'lgan mamlakatlarda 3-4 yil ichida yeyiladigan o'lchamga yetsada, issiq mamlakatlarda 1-1,5 yil ichida iste'mol hajmiga yetishi mumkin.

Suvning ifloslanishiga olib keladigan turli zararli moddalar

Maishiy va sanoat oqava suvlari karp suvlari bilan aralashmasligi kerak. Ayniqsa, oz miqdorda DDT (29,4 mg/l), Aldirin, Endrin (0,057 mg/l), Malathion (100 mg/l), Metasitoks va simob birikmalari o'linga olib kelishi mumkin. CO₂ miqdori 2 mg/l dan oshmasligi kerak. H₂S 0,5 mg/l bo'lsa zararli, 5-6 mg/l dan ortiq bo'lsa o'linga olib keladi. 1-2 mg/l, nitrit o'ldiradigan ta'sirga ega. 0,2-0,4 mg/l ammiak chavoqqa, 0,6 mg/l ammiak mayda baliqlarga halokatli ta'sir ko'rsatadi. Yuvish vositalarining ta'siri ularning turlariga ko'ra farq qilsa-da, 5,0-10,0 mg/l miqdori tuxum va spermani yo'q qiladi. Fenollar baliq uchun kuchli toksik ta'sirga ega bo'lgan birikmalardir. Og'ir metallar, temir va qo'rg'oshin kabi birikmalar halokatli ta'sirga ega. Temir birikmalari tuxumlarga cho'kadi va tuxumdan chavoq chiqishini to'xtatadi. Yod, xlor, azot gazlari ham turli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Yog'lar ichak va qon aylanishiga ta'sir qiladi.

Xulosa

Hovuz quriladigan yerning tuprog'i qanchalik yaxshi bo'lsa, hovuz shunchalik samarali bo'ladi. Suv manbai hovuz hududida joylashganida, hovuzni tozalash va bo'shatish yo'li bilan dezinfeksiya qilish mumkin emas, chunki ildizsiz suv o'simliklari hovuz tagini qoplaydi. Shuning uchun suv manbalari yoki suv havzalari bo'lgan joylar hovuz qurish uchun mos emas. Hovuz suv o'tkazmaydigan loy va qumloq tuproqlarda qurilishi kerak. Hovuzni qurish uchun qumli va suv o'tkazuvchan tuproqlar mos kelmaydi. Organik moddalar bilan oziqlangan tuproqlar hovuz qurish uchun javob beradi. Organik moddalarda kambag'al bo'lgan tuproqlar ombor go'ngi yoki qishloq xo'jaligi qoldiqlari bilan o'g'itlashni talab qiladi.

Karp hovuzi quriladigan yer dehqonchilikka yaroqli bo'lmashligi, suv o'tkazuvchanligi yuqori, tuproq tabiiy unumdorlikka ega bo'lishi kerak. Karp ishlab chiqarish uchun;

1) korxonani yil davomida yetarli miqdorda suv bilan ta'minlaydigan soy yoki suv manbasiga yaqin joyda;

2) toshqinlarga qarshi tabiiy yoki sun'iy to'siqlarga ega bo'lishi;

3) Kelajakda kengayish va shamolga chidamli,

4) Suv infiltratsiyasini oldini olish uchun kamida 1m chuqurlikdagi loy va bo'r,

5) Katta toshlar va daraxt ildizlarisiz,

6) Bu suvning tabiiy ravishda hovuzlarga oqishiga imkon beradigan nishabga ega;

7) Bu qazish oson va ko'p qazish talab qilmaydi va

8) Bozorga oson kirish

Biznes joyini tanlash xarajatlarni kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haqberiyev P.S. "Umumiy Ixtiologiya" Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2013;
2. Xolmirzayev D. , Shohimardonov D.R. "Baliqchilik asoslari" Toshkent "Ilm-Ziyo" 2016;
3. Sheref Korkmaz "Sazan Biyolojisi ve Yetishtirme Teknikleri" Ankara 2010 .

NARRATIVES IN THE SPEECH OF A PHILOLOGIST TEACHER AS A
SOURCE OF MULTICULTURAL INFORMATION
(Theory and practice of studying genre forms at the university)

Amanov Alisher Kakhramonovich

Teacher, Tashkent State Transport University,

Department of Foreign Languages

alisher9707410@gmail.com

Abstract: The teacher of Uzbek literature is a key figure in a multinational, multi-confessional Uzbek school. It unites the ethnic experience of students, organizes the coexistence of world and national values, and gives each student the right to national and cultural self-expression.

Keywords: linguometrics, polyphony, communicative, investigation, linguists, scientific.

Modern state standards of school philological education orient linguists to the formation of two main competencies: communicative and culturological. Therefore, in the new conditions, the state language of Uzbekistan ceases to be only a source of subject knowledge. Embodied in the professional genre forms of the teacher's speech, it serves as an important means of establishing and strengthening multicultural contacts in the children's collective, transmits moral and aesthetic information, provides students with the development of knowledge about the culture of their people, forms their idea of the diversity of cultures in the region, Russia, the world, prepares for equal interaction according to the laws of harmonizing communication with carriers of other spiritual values [3].

Ключевые слова: модернизация, робототехника, мехатроника, сетевые круги, инженерные навыки, кластерные технологии, синергия.

Аннотатион

This article describes the content of the organization of robotics, mechatronics, engineering circles in Barkamol Avlod children's schools on the basis of cluster technologies.

Keywords: Modernization, robotics, mechatronics, networking circles, engineering skills, cluster technologies, synergy.

Жаҳон тараққийетининг ҳозирги босқичида модернизация ва инновацион ривожланиш тенденциялари авж олмоқда. ХХИ асрда инновацион жараёнлар ижтимоий ва иқтисодий тараққийетнинг асосий ҳаракатлантирувчи кучи сифатида майдонга келди. Жаҳон хўжалигининг глобаллашуви, рақобатнинг кучайиши шароитида инновациялар оқими ва кўлами тобора кенгайиб, жамият ва инсон манфаатлари ҳамда эҳтиёжларининг таъминланишига салмоқли таъсир кўрсатмоқда.

Жаҳон бозорида технологик жиҳатдан илғор, билим талаб қиладиган, рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқаришга қаратилган давлатларнинг замонавий сиёсати бугунги кун ўқувчиси эгаллаши лозим бўлган билим, кўникма ва малакаларга янги вазифалар қўйган ҳолда ўқув жараёнини қайта кўриб чиқишга замин яратмоқда. Ушбу тенденцияларнинг намоён бўлиши кенг технологик паркларни очишда, технологик ишлаб чиқаришга

йўналтирилганликда, давлат иқтисодиётини ривожлантириш дастурларини тасдиқлашда ва натижада таълим мазмунини модернизациялашнинг шаклланган контсепциясида намоён бўлади.

Таълимни модернизациялашнинг асосий мақсади меҳнат бозорида рақобатбардош, жаҳон стандартлари асосида самарали ишлашга қодир, касбий ўсишга тайёр, ҳар кимнинг тегишли маълумот олиш эҳтиёжларини қондирадиган малакали мутахассисни тайёрлашдан иборат. Шундай қилиб, таълим мазмунида бўлаётган ўзгаришлар, тўплаш функциясида (ўқувчининг маълум бир билим даражасини шакллантириш учун) янги касбий билимларни ўзлаштира оладиган, замонавий ижтимоий-иқтисодий шароитларда мослаша оладиган ва ўқишдан кейин ривожланишини давом эттиришга имкон берадиган ва узлуксиз таълим нуктаи назаридан кўриб чиқиладиган шахсни ривожлантириш функциясига йўлга қўйилмоқда. Бугунги кунга келиб шакл ва мазмун жиҳатидан хилма-хил, аммо умуман олганда битта мақсадга касб – ҳунарга ўргатишга ва келажакда мутахассислар учун профессионал манзарани яратишга қаратилган дарсдан ташқари таълим моделини амалга ошириш бўйича катта тажриба тўпланган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 сентябрдаги ПҚ-4467-сон [қарорига асосан](#) “Баркамол авлод” болалар мактабларида робототехника, мехатроника, муҳандислик ва компьютер дастурий таъминоти йўналишларидаги тўғарақларни доимий ривожлантириб бориш вазифаси белгилаб берилган бўлиб бунда ўқувчининг умумий ва касбий компетенциялар, фанлараро тизим-интегрatív билим ва кўникмалар, фаолиятнинг муваффақиятини таъминлаш ҳам кўрсатиб ўтилган. Мактаб ўқувчиларини касб эгаллашдан олдинги тайёргарлиги ва тайёргарлик курсларини ўтказиш усулларини ўрганишга бағишланган кўплаб тадқиқотлар ўтказилган бўлсада мактабдан ташқари таълим жараёнида ёш авлодни тарбиялаш, энг янги технологияларни жорий этиш зарурлигини кўрсатмоқда. Замонавий жамиятнинг устувор йўналишларидан бири бўлган робототехника, мехатроника, муҳандислик касбларига бўлган талаб бугунги кунда табора ортиб бормоқда.

Робототехника, мехатроника, муҳандислик тўғарақларини ташкил этиш илғор хорижий таълим тажрибасида ҳар бир ўқувчида тажриба ва қобилиятни ривожлантиришни мақсад қилиб индивидуал равишда, шу билан бирга турли фанлар бўйича ишлаш қобилияти ва кўникмаларини ривожлантириш фанлараро таълим мазмунини тушуниш ҳамда улар орқали қуйидаги кўникмаларни эгаллашига ёрдам беради:

- Табиий ва кундалик ҳаёт ҳамда табиатни тушунишимиз, атрофимиздаги кенг коинотни ўрганиш ва қадрлашни ошириш;
- маълумотлар ва ахборотларни изоҳлаш ҳамда таҳлил қилиш;

- Тадқиқот ва танқидий сўров - ғояларни ишлаб чиқиш ва синаш;
- Муаммоларни ҳал қилиш ва муаммоларни баҳолаш;
- Тажриба, янги билимлар, ғоялар ва маҳсулотларни кашф этиш;
- Турли хил фанлар ва фанлар бўйича ўзаро алоқадорликда ишлаш;
- Ижодкорлик ва инновация - янги маҳсулотлар ва ёндашувларни ишлаб чиқишдан иборатдир.

Буларнинг барчаси дунёнинг ўзгарувчан ва технологик йўналишда муваффақиятга эришиш учун тобора муҳим аҳамият касб этмоқда. Булар бизга фаол шахслар сифатида ривожланишига ёрдам бериш учун ўзимиз ва жамият учун муҳим қарорлардир.

Робототехника, мехатроника, муҳандислик тўғаракларини кластер технологиялари асосида ташкил этиш таълим самарадорлигини таъминлашнинг бир мунча авзалликларини белгилаб беради. Мамлакатимизда кластер технологияси купчилик томонидан эфемер, фақат хорижда қўлланадиган технология сифатида қаралади, лекин таълим муассасаларининг (мактабдан ташқари ва умумий ўрта таълим) кластер технологиясидан фойдаланиб, инновацион лойиҳаларда қатнашиш ва таълим тизимида фойдаланиш имконияти деярли ёритилмаган. Аввал, кластер технологиясига умумий тарзда тавсиф бериб ўтсак.

Бу муаммоларни ўрганишда турли манбалардан олинган ва таълимга мослаштирилган маълумотларга таянамиз:

Кластер - сузи инглизча “cluster”- бош, тўплам, тўпланиш маънони билдиради. Кластер катта ҳажмдаги ахборотни структураланган ва тизимлаштирилган кўринишда тақдим (тасаввур) қилиш, мавзунинг асосий мазмунини аниқлаш имконини берадиган технологиялардан биридир.

Кластер - бўғин (таълим, иқтисодиёт, социология, табиатшунослик ва х.к.бўғини).

Кластер - булажак мутахассисларнинг барча босқичларда (узлуксиз таълим тизими) субъектларнинг илмий, тажриба ва амалий жараёнларда бирлашиши.

Кластер технологиясининг мақсади- таълим сифатини оширишда таълимнинг илмий ва амалий муаммоларни бир вақтнинг ўзида бир-бири билан узвий боғлиқ бўлган йўналишларни бирлаштириш орқали ҳал этишни таъминлаш.

Кластер хусусиятлари:

барча таълим тизимининг инновацион стратегиясини белгилайдиган институтнинг мавжудлиги;

- касбий фаолият субъектлари асосий массасининг худудий локаллаштирилиши;

кластер тизими қатнашчиларининг интегратив алоқалари барқарорлиги;

- тизим субъектларининг ягона дастур, инновацион жараёнлар, бошқарув тизимлари, сифат назорати ва х-к. доирасидаги ўзаро алоқалари узоқ муддатли мувофиқлаштирилиши;

- кластерда маъмурий тузилмаларнинг мажбурий иштироки; кластер технологияларини таълимнинг бошқа тизимлари фойдаланиши учун йўналтирилганлиги.

Кластернинг афзалликлари:

- кластер технологияси таълимдаги муаммолар ва тегишли йўналишнинг кучли томонларини аниқлаш имконини беради. Олинган ахборот таҳлил қилинади ва таълим тузилмалари томонидан таълимни ривожлантиришнинг воситалари кейинги тўғри танлови учун фавқулодда муҳим асос бўлиб хизмат қилади. Муҳими, кластер технологиялари амал қилиш шароитида ишларнинг ҳолати ҳақидаги ахборот фаолият рефлексияси ҳисобига ва унинг ҳар бир кластерлари натижалари тобора объективдир;

Кластер - мураккаб ташкил этилган ижтимоий-маърифий тизим, ўзаро боғлиқ ва ўзаро боғлиқ таркибий қисмларнинг иэрархик равишда қурилган тўплами: илмий, ўқув, инновацион, ижтимоий-маданий, саноат муассасалари ва корхоналар ва менежмент, ишлаб чиқариш, фан ва таълим соҳаларини интеграция ва ўзаро боғлиқлик жараёнлари билан бирлаштирган ҳосила тузилмаларидир. Бундай ўқув кластерини яратиш зарурати, шунингдек, мактабдан ташқари таълим талабларга жавоб берадиган ваколатларини шакллантириш зарурати билан ҳам белгиланади.

Робототехника, мехатроника, муҳандислик тўғаракларини ташкил этиш кластери - бу ташқи таъсирлар натижасида (аниқроғи маълумотларга кўра) очик ижтимоий тизим ҳамдир. Баркамол авлод болалар мактабларини ўзини ўзи бошқаришнинг ваколатларини кўп босқичли, комплекс ташкил этилган тизим сифатида шакллантириш бўйича таълим кластери қуйидаги принципларга мувофиқ ташкил этиш:

Тармоқ тўғаракларини ажралмас, мураккаб, кўп даражали тизимга айлантириш ва асосий афзалликлари тизимлар митақавий миқёсда, мослашувчан ва нисбий сода бошқариш кафолатини яратишдир.

Барқарорлик яратиш – бу орқали кластерга бардошли ташқи таъсирларни, яъни тармоқ тўғаракларидаги ўзгарувчанлик барқарорлигини таъминлаш. У асосан ички манбалар ҳисобига ишлайди, шу билан бирга универсал воситалар ёрдамида замонавийлаштириш ва модернизация қилиш учун қулайлик яратиш.

Синергизм – кластерли тўғаракларида ташқи ва ўзаро таъсир ички муҳит синергетик таъсирга олиб келади, бу ўз-ўзини ривожлантириш, ўзини ўзи англаш ва ўзини ўзи ташкил этишга олиб келади.

Мослашувчанлик ва ўзгарувчанлик - янги таркибий қисмни қўшиш орқали уни яхшилайти ва салбий оқибатларга олиб келмайди, бу эса мақбул даражада барқарорлик ва ривожланишдир.

Робототехника, мехатроника, муҳандислик тўғарақларини ташкил этишда Кластерли ёндашиш тамойилларини амалга ошириш зарурияти (тизимли, интеграциялашган, ҳаёт билан боғлиқ, шунингдек шахсий ва касбий ўсишга ёналтирилган ва ҳоказо) жараёни амалга ошириш имкониятларни оширади. Шундай экан кластер назарияси асосчиси, Гарвард университети профессори Майкл Портер, рақобат стратегияси концепцияси тақдимотида ("Рақобат" китобининг муаллифи), "Кластерлар - бу муайян афзалликларга эришишга қаратилган манфаатдор томонларнинг сабъ-ҳаракатларини бирлаштиришнинг ташкилий шакли пост-индустриал иқтисодиётнинг шаклланиши шартлари" деб изоҳлайди[83]. Кластерни маълум бир тизим деб ҳисоблаш мумкин, аммо махсус элемент қўшилиши унинг ишини яхшилайдиган жараён бўлиб, қўшилган элементни олиб ташлаш фожиали оқибатларга олиб келмайди.

Кластерларнинг асосий устунликлари глобаллашув, очиқлик, мослашувчанлик ва бошқарувнинг нисбий қулайлигидадир.

Бутунликнинг тизимли атрибутига қўшимча равишда кластер алоқаларида синергия белгиси ҳам бор бўлиб у, синергетик ёндашувни ҳам амалга оширади. Бунда - фаол ривожланаётган усулларни кашф этиш орқали ўз-ўзини ривожлантириш, ўзини англаш ва ўзини ўзи ташкил этиш ғоялари устунлик қиладиган ёндашувдир. Ўз-ўзини ташкил қилиш, содда қилиб айтганда, "модданинг ўзига хос ички сабаблари туфайли юзага келадиган материянинг ўз-ўзидан ҳаракатланиш жараёнининг табиий-илмий ифодаси"дир. Асосий ғоя бу эрда объектга (тизимга) бундай эффеқтларни танлаш ётади унинг ички хусусиятларига мос келади. Буни қилаётганда шароитлар "резонанс" таъсир кўрсатадиган даражада кичикдир, бу эса бошқариладиган объектга (тизимга) жуда катта таъсир кўрсатади[54].

Кластер ёндашувига мурожаат қилишнинг зарурлиги минтақавий тизим самарадорлигини ошириш мақсадида манфаатдор томонларнинг сабъ-ҳаракатларини бирлаштиришнинг ташкилий шакли сифатида кластернинг афзалликлари билан изоҳланади.

Шундай қилиб, кластер ёндашувини амалга оширишда қуйидаги асосий фикрларни ажратиб кўрсатиш мумкин.

Тармоқ тўғарақлари учун ҳуқуқий асоснинг мавжудлиги субъектларнинг фаолияти;

ишлаб чиқилган механизмлар субъектларнинг ўзаро таъсири кластерлаш;

ишлаб чиқилган механизмлар кластерни бошқариш ёндашуви;

Мактабдан ташқари таълим тизими учун тармоқли (кластерли) ўзаро таъсир шакллари жорий этишнинг муҳимлиги қуйидаги омиллар билан белгиланади:

Юқори ислохотларнинг жадал суръатларини қисқа вақт ичида янги шароитларга мослашиш мумкин бўлган таълим фақат барчанинг фаол ўзаро таъсири билан ўқув фаолияти субъектлари умумий мақсадлар ва манфатларнинг асоси, бу бизга тармоқнинг ўзаро таъсиридан аниқ фойдаланишга эришишга имкон беради;

Мактабдан ташқари таълим сифатига бўлган талабнинг ошиши, бунда ҳар бири таълим хизматининг ўзига хос хусусиятлари билан боғлиқ ҳолат (ҳар бир талабага нисбатан) индивидуал ёъналтирилганлигидир.

Мактабдан ташқари таълим тизими учун тармоқ (кластер) тўғарақларини яна бир имконияти бу ўқувчиларнинг чекланган ресурслар шароитида (моддий техник баъза етишмовчилигида) тармоқда бўлган ҳолда, бошқа таълим муассасаларида амалга ошириш имконияти (кластер) ва шароитларини яратиб, ресурслар алмашинувига имкон беради. Бу эса самарали қўшма ўқув фаолиятини ташкил этиш имкониятини ҳам яратади.

Робототехника, мехатроника, муҳандислик тўғарақларини ташкил этишда Кластер технологиялардан фойдаланиш ва фаолиятни қуйидаги асосий йўналишларда амалга ошириш ҳам мукин бунда:

мавжуд стандартлар доирасида таълим ва тарбия тизимларининг янги мазмунини, янги педагогик технологияларни, дарсликларни, ўқув-услугий, методик, ўқув-лаборатория мажмуаларини (шу жумладан ўқув) синов ва синов синовларини ўтказиш;

- таълимни бошқариш тизимини модернизация қилишга қаратилган янги стратегия ва механизмларни ишлаб чиқиш ва синаш, шу жумладан таълим иқтисодиёти;
- таълим тизимида янги тузилмаларни яратиш ва ривожлантириш, таълим ташкилотлари ва таълим тизимларининг тармоқдаги ўзаро ҳамкорлиги;
- таълим сифатини баҳолаш тизимларини, таълим сифатини бошқаришнинг янги шакллари ва усулларини ишлаб чиқиш ва синовдан ўтказиш;
- таълимни ривожлантиришнинг янги шакллари ва воситаларини ишлаб чиқиш ва синовдан ўтказиш;
- педагогик янгиликларни синовдан ўтказиш ва амалга ошириш.

Ахборот таълим муҳитида кластерни электрон баъза яратиш орқали:

- экспериментал фаолиятни ташкил қилиш ва илмий-услугий таъминлаш тизими экспериментал сайтлар шаклида;
- минтақадаги ўқитувчилар методик уюшмаларининг фаолиятини ташкил этиш ва қўллаб-қувватлаш тизими;

- амалиётни кичик амалиёт ташкил этиш орқали, маълумотлар базаси форматида ташкил этиш;
- асосий бўлимларнинг фаолиятини ташкил этиш ва қўллаб-қувватлаш тизими;
- ихтисослаштирилган психологик-педагогик синфлар фаолиятини ташкил этиш ва қўллаб-қувватлаш тизими;
- ўқитувчилар таркибига бўлган эҳтиёжни электрон мониторинг тизимини яратиш;
- электрон кластер платформасини шакллантириш ва техник хизмат кўрсатиш орқали амалга ошириш мумкин.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 сентябрдаги “Халқ таълими тизимидаги мактабдан ташқари таълим самарадорлигини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4467-сонли [қарори](#).
2. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий - методик асослари.: Пед.фан.докт. ... дисс. - Т.: 2007. - 45 б.
3. Рахмонва В.Қ. Узлуксиз таълим тизими узвийлигини таъминлашнинг кластер технологиялари.: Монография. - Т.: НАВРЎЗ, 2014. - 94 б.
4. Байденко В.И. Болонский процесс: Результаты обучения и компетентностный подход (книга- приложение 1) / Под науч. ред. д-ра пед. наук, профессора В.И. Байденко. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2009. – 536 с.
5. Пардабаев Ж.Э. ““СТЕАМ” - Эдусатион ас ан инновативе апроач то тхе девелопмент оф восатионал траининг фор студентс” // Эуропеан Жоурнал оф Ресеарч анд Рефлестион ин Эдусатионал Ссиэнсэс. Вол. 8 Но. 3, 2020. ИССН 2056-5852
6. Педагогический кластер в основе формирования «самообразующейся» личности школьника: Методические рекомендации. Часть 1 / Е. А. Акиньшина, Н. Н. Суртаева, Т. И. Маркова и др. - СПб.: Экспресс, 2012. – 160 с
7. Jonathan Sallet and Ed Paisley Innovation Clusters Create Competitive Communities. - Huff Post Social News September 21, 2009.

**MILLIY GWARDIYA QO'RIQLASH XIZMATI TOMONIDAN
QO'RIQLANYOTGAN OBYEKTlarda SODIR ETILGAN
HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIK MASALALARI**

Raximov Abrorbek Sobitxon o'g'li,

Umarov Azizbek Alijon o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Namangan viloyati Qo'riqlash boshqarmasi*

Kalit so'zlar: Milliy gvardiya, qo'riqlash xizmati, qorovul, harbiylashtirilgan qo'riqlash, saf bo'linmasi, militsiya, ma'muriy javobgarlik.

Annotatsiya

Ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda qo'riqlash xizmati tomonidan huquqbuzarlarga nisbatan jazo qo'llashning samaradorligini oshirish va protsessual jarayonlarni soddalashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasida Qo'riqlash xizmati o'z faoliyatini 1952 yilning 29 oktyabrida 5 ta mototsikl va 49 ta velosiped bilan boshlagan. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash xizmati davlat miqyosida moddiy-tovar boyliklarning qo'rig'ini amalga oshiruvchi yagona tashkilot hisoblanadi. 1959 yilga kelib qo'riqlashning bugungi kunda ham mavjud bo'lgan ikki turi – qorovullik va harbiylashtirilgan turlari yuzaga keldi. Bunda harbiylashtirilgan bo'linmalar o'ta muhim obyektlarni qo'riqlash uchun, qorovullik bo'linmalari esa qolgan obyektlar himoyasi uchun tashkil etilar edi. O'tgan asrning 60-yillari boshida qo'riqlash bo'linmalari tarkibida shahodatlangan tarkib saf bo'linmalarini tashkil etish amaliyoti joriy etila boshlandi. O'zbekistonda ilk bor shahodatlangan tarkib qo'riqlovi Chirchiq shahrida, 1964 yilda tashkil etildi va o'zining ijobiy natijasini berdi. 1970 yilda Hukumat tomonidan qo'riqlash xizmatida o'z mablag'lari hisobiga markazlashtirilgan qo'riqlash punkti va markazlashtirilgan nazorat punktlari qurish uchun ruxsat bergandan keyin, texnik qo'riqlash taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarildi. "Kometa", "Neva" rusumli pultrlar keng miqyosda ishlatila boshladi. Faqat mustaqillik yillariga kelibgina xizmat xodimlarining ishlashi, o'qishi va xizmat o'tashlari uchun shart-sharoitlar yaratish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Mustaqillik davrida qo'riqlash xizmatining rivojlanishi va taraqqiy etishi bevosita respublikamizda mulkchilikka bo'lgan munosabatning o'zgarib borishi bilan hamohang kechdi. Shu bilan bir qatorda keyingi yillarda terrorizm balosining jahon bo'ylab avj olishi, xususan Vatanimizda ham tinch aholiga nisbatan bir-necha yovuz, g'ayriinsoniy tajovuzlarning amalga oshirilishi xizmatning o'z faoliyatini takomillashtirib borishga, yuzaga kelgan vaziyatga moslashishga undadi. [1]

Qo'riqlash xizmatidagi ilk o'zgarishlar 1991 yilning noyabr oyida Ichki ishlar vazirligi huzurida Respublika «Qo'riqlash» birlashmasi tashkil etilishidan boshlangan edi. Bu nafaqat qo'riqlash xizmatining tarkibiy tuzilishiga islohlarni kiritdi, balki undagi sifat o'zgarishlarining ham debochasi bo'ldi. O'sha davrlarda xizmat tomonidan himoyaga olingan inshootlarning 30 foizini erkin yollangan qorovul va harbiylashtirilgan soqchilik qo'rig'idagi obyektlar tashkil etardi. Ma'lumki, qorovul qo'rig'ining texnik ta'minoti, ishonchlilik darajasi va samaradorligi militsiya qo'rig'iga nisbatan ancha past. Shundan kelib chiqqan holda, xizmatning tarkibiy jihatdan qayta tashkil etishga alohida e'tibor qaratilib, bosqichma-bosqich qorovullik tarkibidan voz kechib, qo'riqlashning ishonchli turi – militsiya qo'rig'i kuchaytirib borildi. Mustaqillik yillarda xizmatda amalga oshirilgan tub o'zgarishlar, asosan, xizmatni bozor iqtisodiga moslashtirish, bugungi kun sharoitiga to'liq javob berishini ta'minlash va ko'rsatilayotgan xizmatning ishonchliligi va samaradorligini oshirishga qaratildi. [1]

Bir so'z bilan aytganda bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bo'linmalarida xizmat ko'rsatishning eng taraqqiy etgan, iqtisodiy jihatdan qulay shakllari yuzaga keldi va hayotga joriy etildi. Yanada tezkor, harakatchan, obyekt va xonadonlar qo'rig'i, xavfsizligi, mudofaasini ta'minlash borasida o'z oldiga qo'yilgan tezkor vazifalarni to'liq bajara oladigan bo'linmalar shakllantirildi. Faoliyatga ilg'or, zamonaviy signalizatsiya va texnika vositalari joriy etib borilmoqda. [1]

Bulardan ko'zlangan maqsad yagona – davlat va xalq boyligi, fuqarolarning mulklarini jinoiy tajovuzlardan ishonchli himoyalash, ularning to'liq xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi. [1]

Миллий гвардия Қўриқлаш хизматига оид асосий тушунчалар:

Qo'riqlash xizmati - O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining davlat obyektlarini, o'ta muhim, toifalangan va boshqa obyektlar, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini shartnoma asosida qo'riqlashni tashkil etuvchi yuridik shaxs hisoblanuvchi tarkibiy bo'linmalari tizimi ;[4]

Qo'riqlanadigan obyekt - shartnoma asosida qo'riqqa olinib, huquqqa zid tajovuzlardan qo'riqlanishi va himoya qilinishi kerak bo'lgan xonalar, binolar, imoratlar, inshootlar, ularga tutash hududlar, akvatoriyalar, muayan joylar, jismoniy shaxslar, transport vositalari, shuningdek, yuklar, xususan tashish jarayonidagi yuklar, pul vositalari va boshqa mol-mulklar; [4]

Saf bo'linmalari - huquqiy maqomi bo'yicha ichki ishlar organlari xodimiga tenglashtirilgan, maxsus unvonga, belgilangan namunadagi formal kiyim-boshga, shuningdek, xizmat vazifasini bajarish vaqtida qonunchilikda o'rnatilgan tartibda jismoniy kuch, o'qotar qurol va maxsus vositalarni qo'llash huquqiga ega bo'lgan

Milliy gvardiya qo‘riqlash xizmatining shahodatlangan xodimlardan iborat tarkibiy bo‘linmasi; [4]

Harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalari - qonunchilikda o‘rnatilgan doirada va Milliy gvardiya tomonidan belgilangan tartibda jismoniy kuch, o‘qotar qurol va maxsus vositalarni qo‘llash huquqiga ega bo‘lgan erkin yollangan xodimlardan iborat qo‘riqlash xizmatining tarkibiy bo‘linmasi; [4]

Qorovullik bo‘linmalari - qonunchilikda o‘rnatilgan doirada va Milliy gvardiya tomonidan belgilangan tartibda jismoniy kuch va maxsus vositalarni qo‘llash huquqiga ega bo‘lgan erkin yollangan xodimlardan iborat qo‘riqlash xizmatining tarkibiy bo‘linmasi. [4]

Qo‘riqlash tizimlari tomonidan faoliyat turlari bo‘yicha quyidagi xizmatlar ko‘rsatiladi:

a) saf bo‘linmalari tomonidan:

qo‘zg‘almas (aylanma) post orqali obyekt yoki uning bir qismini qo‘riqlash; piyoda yoki transport vositasida muayyan hududdagi obyektlarni yoki alohida obyekt hududlarini yo‘nalish bo‘ylab qo‘riqlash;

harakatlanuvchi qo‘riqlash-nazorat (mobil) guruhleri piyoda (transportda) signalizatsiya (videokuzatuv) vositalari bilan jihozlangan obyektlardan kelib tushgan «tashvish» xabari bo‘yicha zudlik bilan ta’sir choralarini ko‘rish va patrullik qilish; yuridik va jismoniy shaxsga tegishli moddiy-boyliklarni qo‘riqlash-kuzatish; tezkor harakatlanuvchi guruhlar bilan Texnik qo‘riqlash markaz (punkt)lari orqali qo‘riqlanayotgan obyekt va fuqarolar xonadonlarini dahlsizligini ta’minlash.

b) harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalari tomonidan :

qo‘zg‘almas (aylanma) post orqali obyekt yoki uning bir qismini qo‘riqlash va xavfsizligini ta’minlash;

piyoda yoki transport vositasida muayyan hududdagi obyektlarni yoki ularning hududlarini yo‘nalish bo‘ylab qo‘riqlash;

v) qorovullik bo‘linmalari tomonidan qo‘zg‘almas (aylanma) post orqali obyekt yoki uning bir qismini qo‘riqlash va xavfsizligini ta’minlash;

g) texnik qo‘riqlash vositalari bilan yoki mavjud texnik vositalarga xizmat ko‘rsatish orqali obyektlarni qo‘riqlash va xavfsizligini ta’minlash. [4]

Quyidagilar qo‘riqlash xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

shartnoma asosida davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini, shuningdek, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning diplomatik, konsullik va boshqa vakolatxonalari obyektlarini qo‘riqlash;

qo‘riqlanayotgan obyektlarda ichki, ruxsat berish rejimlarini hamda jamoat tartibini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etish;

qo‘riqlash vositalari va tizimlarini qo‘llash sohasida yagona texnik siyosatni va ulardan foydalanish ustidan samarali nazoratni ta‘minlash, shuningdek, qo‘riqlash faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng miqyosda joriy etish;

shartnoma asosida texnik qo‘riqlash vositalarini o‘rnatish (sozlash), ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ekspluatatsiya qilish;

davlat tashkilotlari, shuningdek, ustav fondida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga tegishli qo‘riqlash bo‘linmalarida nazorat tekshiruvlarini o‘tkazish (huquq-tartibot organlari va harbiylashtirilgan tuzilmalardan tashqari), obyektlarda ichki, ruxsat berish rejimlariga rioya etilishiga doir tadbirlarni nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

ommaviy tadbirlarda jamoat xavfsizligini ta‘minlashda ishtirok etish, aholi gavjum joylarda jamoat tartibini saqlashda huquq-tartibot organlariga ko‘maklashish. [2]

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksining 248-1-moddasiga asosan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlarining mansabdor shaxslari ushbu Kodeksning 61, 185-1 (bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklardan tashqari), 194-1, 195-1, 196 (O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlariga tegishli qismi bo‘yicha) va 210-1-moddalarida nazarda tutilgan ma‘muriy huquqbuzarliklarni aniqlagan taqdirda, Milliya gvardiyaning mansabdor shaxslari tomonidan ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan ‘g‘risida bayonnoma tuzadi. [3] Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnoma ko‘rib chiqish uchun ushbu Kodeksning 282-moddasida belgilangan tartibda sudga yuboriladi”-deb ko‘satilgan bo‘lib, hozirgi kunda zamon talablaridan kelib chiqqan holda fuqarolarning ishlarini ko‘rib chiqishda protsessual hujjatlar tayyorlash jarayonini tezlashtirish uchun yuqoridagi MJTKning 248-1-moddasiga qo‘shimcha ravishda 183-modda “Mayda bezorilik”ni, ya‘ni “Jamoat joylarida uyatli so‘zlar bilan so‘kinish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik” hamda 54-modda “Epidemiyalarga qarshi kurash qoidalarini buzish”. Karantinli va inson uchun xavfli bo‘lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo‘lishi hamda tarqalishi sharoitida vakolatli organning maxsus talablariga zid ravishda jamoat joylarida niqobsiz bo‘lish” moddalarini qo‘shilishi natijasida, Milliy gvardiya Qo‘riqlash xizmati tomonidan qo‘riqlanayotgan obyektlarda aynan ushbu moddada nazarda tutilgan holatlar fuqarolar tomonidan sodir etilgan taqdirda, ushbu obyektida xizmat vazifasini olib borayotgan xodimlarning xizmat olib borish jarayonini osonlashtiradi,

vaqt va sarf harajatlarni kamayishiga hamda ishlarni ko‘rib chiqishda sansolarlik xolatini oldini oladi.

Foydalanigan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi. ngoxrana.uz (internet tarmog‘i).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4997-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘risidagi kodeksi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondonining 2019 yil 15 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘riqlash xizmati tomonidan obyektlarni qo‘riqlashni tashkil etish to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 204-son buyrug‘i.

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI NEFT VA GAZ SANOATI SOHASIGA
OID ATAMALARNING LISONIY-KOGNITIV JIHALARI QIYOSIY
TADQIQI**

Raxmatova Mehriniso Musinovna

*Buxoro davlat universiteti ingliz tilshunosligi kafedrasida
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori. Dotsent*

m.m.raxmatova@buxdu.uz

Chariyeva Mexriniso Jaxonovna

*Buxoro davlat universiteti
Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik yo'nalishi*

2-kurs magistranti

m.j.chariyeva@buxdu.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi neft va gaz sanoatiga oid atamalar ustida ilmiy izlanishlar, chog'ishtirma usuli, ularni o'rganish zarurligi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot uchun atamalarning tanlanishi nafaqat ularning kundalik hayotda keng qo'llanilishi, balki xalq ma'naviy va moddiy hayotining o'ziga xos xususiyatlarini ifodaligi, obrazli, yorqin aks ettirilishi bilan ham izohlanadi. Maqolada qo'shimcha lingvistik omillar asosida toponimik komponentli izohlar berilgan chog'ishtiruv jarayonida g'alizlik vujudga kelmasligiga alohida e'tibor qaratilgan. Atamalarning milliy-madaniy xususiyatlari, uslubiy ko'rinishini oshirishdagi o'rni va tarjimasining nazariy jihatlari ko'rib chiqiladi. Bu birliklar, shuningdek, atamalarning lingvistik va madaniy tabiati haqidagi tilshunos olimlarning hamda soha mutaxassislarining qarashlari orqali yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: neft va gaz sanoati, atama, kognitiv tilshunoslik, mantiqiy

Har bir sohaning gurrakib rivojlanishi va taraqqiy etishida ma'lum bir vaqt talab qilinadi. 1989 yil 21 oktyabr «Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilinib, o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi.¹ Muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lmish ona tilimiz o'zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham davlat tilining maqomi, o'rni huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun

¹ <http://hudud24.uz/ozbekiston-respublikasining-davlat-tili-ozbek-tilidir/>

sharoit yaratadi.²Ingliz tilidagi neft va gaz sohasidagi so'zlarning ham tarjimalari ustida izlanishlar olib borildi.

Ma'lumki, ilmiy izlanishlar sohalar asosida xilma-xildir. Ta'lim muassasalarida ingliz tili fanini o'qitish jarayonida turli xil kasb-hunarga oid atamalarni fanga olib kirish va shu bilan birgalikda ularni ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha terminologiya fani tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida madaniy tavsifda qo'llanilib kelinmoqda.

Hozirgi kunda iqtisodiyotga yuqori daromad keltirayotgan keng tamoqlardan biri – neft va gaz sanoati sohasidir. O'zbekiston hozirgi kunda dunyo miqyosida neft va gaz sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lan davlat hisoblanadi. Birgina 2022-yilda «O'zbekneftgaz» kompaniyasining Ustyurt gaz qazib chiqarish boshqarmasi tomonidan so'nggi ikki yil davomida 73 ta (37 ta va 36 ta) quduq burg'ilandi, 123 ta (67 ta va 56 ta) quduq kapital ta'mirlandi, 10 ta (5 ta va 5 ta) texnologik obyekt qurilib, ishga tushirildi. Natijada qo'shimcha tarzda 2 mlrd 319,9 mln kub metr (966,9 mln kub metr va 1 mlrd 353 mln kub metr) tabiiy gaz hamda 54,5 ming tonna (23,9 ming tonna va 30,6 ming tonna) gaz kondensati qazib chiqarildi.³

Jamiyatdagi barcha ilmiy izlanishlar, o'zgarishlar va yangilanishlar avvalo tilda aks etar ekan, barcha jarayonlar tilshunoslar oldiga juda katta vazifalarni qo'yadi. Ushbu vazifalardan biri neft va gaz sanoat sohasidagi terminlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish masalasidir. Shuning uchun, ingliz tili fanini o'qitish jarayonida neft va gaz sanoat sohasiga oid atamalarni qo'llash va ularni o'rganish jarayonida talabalarni intellektual rivojlantirishning sifatida qaraladi. Kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy (mental) strukturalarning lisoniy ifoda topishini ta'minlovchi mexanizmlar qamrovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o'ringa ko'chadi⁴, deb qayd etadi tilshunos olim Sh. Safarov.

Atama - lotincha terminus so'zidan olingan bo'lib, chegara degan ma'noni anglatadi va uning asosiy vazifasi ilmiy tushunchani bir ma'noda ifodalab berishdan iboratdir.⁵ Atamalar har kun ishlatiladigan adabiy tildagi so'zlardan farq qilib, ilmiy va ilmiy texnika tushunchalarni ifodalaydi va u ilmiy nazariya xulosa natijasidir. Neft va gaz sanoati sohasidagi eng ko'p qo'llaniladigan atamalarga namuna sifatida quyidagi ingliz va o'zbek tillaridagi qiyosiy tahlillar bilan misollar keltirilgan:

aromatization of oil fractions -neft fraksiyalarining aromatlanishi (neftni qayta ishlash jarayonida aromatic uglevodlar bilan boyitish)

paraffin-free oil -parafinsiz neft (tarkibida 1% gacha parafin bo'lgan neft)

butane –butan (rangsiz va hidsiz uglevodorodli gazlar)

layer burned volume-qatlamning kuydirilgan hajmi (qatlam ichra yonish jarayoniamalga oshirilayotganda mahsuldor qatlam kuygan qismining hajmi)

² <https://constitution.uz/oz/clause/index>

³ <https://www.gazeta.uz/oz/2022/05/16/uzbekneftgaz/>

⁴ Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. "Sangzor" nashriyoti. 15-bet

⁵ <https://e-library.namdu.uz>

gasification of oil at the contact surface -neftni tutash yuzasida gazlantirish (qatlam neftining qatlamda yoki laboratoriya sharoitida gazzizlantirish)

magnetic tape-magnit lentasi (ma'lumotlarni uzoq vaqt saqlashga mo'ljallangan xotira to'plagichi)

mylonitic rocks-milonit jinslar (chaqiq, ya'ni maydalangan jins bo'laklari va mineral zarralarning parchalanishidan hosil bo'ladi)

stacks of layers-qatlam uyumlari (qatlam turidagi jinslarda neft va gazning tabiiy to'planishidan hosil bo'ladigan uyum)

passing wells-o'tayotgan quduqlar (eski quduqlar toifasining kichik guruhi-hisobot yilning 1-yanvarigacha harakatga bo'lgan quduqlar fondi)

proven reserves-tasdiqlangan zaxiralar (O'zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslar qo'mitasi qoshidagi Davlat Zaxiralar komissiyasi tasdiqlagan balans va balansdan tashqari zaxiralar)⁶.

Yuqoridagi ilmiy izlanishlardan shuni anglashimiz mumkinki, til tizimiga kognitiv yondashish tilning yana bir necha o'ziga xos jihatlarini tadqiq etishga imkon beradi. Bundan tashqari, kognitiv tahlil uchun chog'ishtirilayotgan til tizimida dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan obyekt vazifani bajaradi.

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, kognitiv tilshunoslik serqirra hodisa bo'lgan til sistemasini tadqiq etish jarayonida yangi so'zlarni kashf etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <http://hudud24.uz/ozbekiston-respublikasining-davlat-tili-ozbek-tilidir/>
2. <https://constitution.uz/oz/clause/index>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/05/16/uzbekneftgaz/>
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. "Sangzor" nashriyoti. 15-bet
5. <https://e-library.namdu.uz>
6. Abidov A.A., Ergashev Y., Qodirov M.H. –Neft va gaz sanoati ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati- T.: "Sharq",2004. 568 bet

⁶ Abidov A.A., Ergashev Y., Qodirov M.H. –Neft va gaz sanoati ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati- T.: "Sharq",2004. 568 bet

TILNI O`RGANISHDAGI MUAMMOLAR

Aziza Dehqonova Sherbo'ta qizi

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti Universiteti
2-kurs talabasi. Ona tili va adabiyoti ta'limi fakulteti*

Annotatsiya: Ma'lumki dunyoda jami yetti mingdan ortiq tillar mavjud, bu tillarning lug'at boyligi bir-biridan keskin farq qiladi. Har bir tilning lug'at tarkibi shuningdek, tildagi so'zlar majmuasi leksika deb yuritiladi. Har bir tilning leksikasi ishlatilishi, tarixiy kelib chiqishi va boshqa omillar asosida turli qatlamlarga bo'linadi va uning-leksikologik tomonidan o'rganiladi.

Kalit so'zlar: til, leksika, metod, ta'lim, maktab.

KIRISH

Maktabda "leksika"ni o'rganish umumta'lim maktablarida amaliy ahamiyatga ega, bunda o'quvchilar faqat tilning leksik tartibi bilan tanishib qolmay, balki olgan bilimlarini berilgan tartibda ishlatishni ham o'rganadilar. So'zlar ustida ishlash turli tillarni so'z miqdorini o'rganishga, so'zlarni maqsadiga qarab ishlatish malakasiga ega bo'ladi. Bo'limni nazariy tomondan tushuntirish o'quvchida so'zga bo'lgan aqliy munosobatni tarbiyalaydi, o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishni rivojlantiradi va uni o'rganishga intiltiradi.

Maktabda o'quv predmeti sifatida tilni o'rganish tizimi tilning barcha tomonlarini ya'ni fonetikasi, leksikasi, so'z yasalishi va grammatikasining o'zaro ichki bog'lanishiga asoslanadi.

So'z va so'z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'z va iboralarning yig'indisi lug'at tarkibi deyiladi. Leksikologiya o'zbek tilining lug'at tarkibini o'rganadigan bo'limdir. Leksikologik lug'at tarkibidagi so'zning nutqi ma'no ifodalash xususiyati, qo'llanish faolligi, boyib borishi, ba'ziso'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi, ma'no ko'chirish hodisasi kabilarni o'rganadi. Shu sababli leksikologik lug'at ustida ishlash metodikasining mengvistik asosi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bizning olib borayotgan maqolamizni asosiy vazifasi bir va ko'p ma'noli so'zlarni, asl va ko'chma ma'noli so'zlarni, omonimlar, sinonimlar va antonimlarni interaktiv usullar yordamida o'quvchilarga yetkazishdir.

Biz maktabda leksikologik materiallarni o'rganish uchun uch xil tushuncha va yo'nalishni taklif qilamiz.

1. O'quvchilar avval so'zlarning semantik xarakteri bilan tanishishi ularning bog'lanish xususiyatini o'rganishga qaratiladi. Bunga zarur tushunchalar quyidagicha bo'ladi: bir ma'noli va qo'p ma'noli so'zlar, asl va ko'chma ma'noli, omonim, sinonim va antonimlar.

2. Undan keyin tilning lug'aviy tarkibini o'rganish jarayonidagi alohidaligi: asosiy o'zbek tili va boshqa tillardan o'zlashgan leksika. Eskirgan (arxaizmlar va tarixiy so'zlar) va yangi (neologizmlar) so'zlarni o'zlashtirishga qaratiladi.

3. So'zlardan foydalanish xususiyatiga qarab ularning bog'liqligi keng tushuntirish ishlarini olib borish aloxida ahamiyat kasb etadi. Keyin o'quvchilarga umumiy qo'llaniladigan (professional va dialektik) leksika bilan tanishtiriladi.

Metodik adabiyotlarda leksikani o'zlashtirish boshqichlariga yetarlicha e'tibor berilgan:

1. Etimologik va semantik yo'l bilan terminlarni o'quvchilarga atroflicha tanishtirish;
2. Berilgan so'zlarning leksik ma'nosini ochib berishga, ularning bosh ma'nosiga e'tibor berish;
3. Berilgan leksik birlikni ochishda, uni kuzatish orqali amalga oshirish;
4. Barcha o'rganilayotgan leksik birliklarni tayanch jadval va sxemalar orqali umumlashtirish;
5. Tushunchaning formasini aniqlash, uni tushuntirish va xotiradashaqlash.

O'quvchilarni leksik tushunchalarni egallanganligini, ularni tushuntirish va yodda saqlash orqali bilib olishimiz mumkin. Leksik tushunchalarni bosqichma-bosqich egallashda o'quvchilar olgan bilimlari, aniqlanmalar bilan moslashishga yordam beradi.

Til o'qituvchilarining fikricha bu ish 94-95% bajarilmoqda: ya'ni tushuncha xarakteri o'ziga xos aniq ko'rinishga ega bo'lib qolmay uning alomatlari bilan bo'laklarga ajratish yuli bilan leksik birlik ma'nosini tuzilishi va mazmuniga egadir.

Til leksikasini o'zlashtirishda o'quvchilar tushunchalarni aniqlash va talaffuz qilishini kuzatish bo'yicha qilingan birinchi qadamdir. Berilgan nutq amaliyotida leksikadan to'g'ri foydalanishga qaratilgan malaka hosil qilish yo'nalishida katta ishlarni amalga oshirish kutilmoqda. O'quvchilarga berilayotgan bilimlarni mustahkamlash bosqichida metodik adabiyotlarda leksik-ma'no, leksik-grammatik, leksik-uslub mashqlarga ko'proq e'tibor berish tavsiya etiladi.

Birinchi guruh mashqlarining tahlil qilinayotgan leksik holati uchun tanlash yo'li bilan matnda qo'llashni kuzatishni tashkil qilish ya'ni izohli lug'at, sinonim va antonim lug'atlardan foydalangan holda semantik xususiyatga ega bo'lgan so'zlarni qo'llash lozim.

Leksik grammatik mashqlarga qo'yilgan vazifalar ko'p darajada so'z birikmalari va gaplarni qurilishiga bog'liq. Bunday mashqlarni bajarilishi faqat so'zni ahamiyatini tushuntiribgina qolmay, balki o'quvchilarga uni o'zgarishini, so'zlardan gap tuzishni to'g'ri hosil qilishga o'rgatildi.

XULOSA VA MUNOZARA

Shuni taqidlash kerakki, Morfologik va orfografik bo'limlarda olingan nazariy bilimlar o'zbek tili darsliklarining boshqa bo'limlarida ya'ni morfemika, so'z yasalishi morfologiya, orfografik bo'limlaridagi mashqlar bilan mustahkamlanadi. O'zbek tili darslarida lug'at-orfografik yuzasidan ishlar olib boriladi. Bu yo'nalishda so'zlarni semantik, imlo va talaffuz nuqtai nazarida ko'rib chiqiladi. Bir tilli lug'atlar asosida yozilgan mashqlar alohida diqqatga sazovordir:

-Bu mashqlar kerakli umum predmetlar rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lib, faol va nafaol so'zlar bilan ishlashda yaxshi samara beradi;

-O'quvchilar o'zbek tilini o'rganish davomida og'zaki fikrlash va yozishda asosan bir tilli lug'atlardan foydalanadilar.

Bizni kuzatuvlarimizga ko'ra sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda ham o'qituvchilarning ko'pchiligi "leksikologiya" bo'limi bilan ishlashni afzal ko'radilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. H.Bakieva, N.Ahmedova, N.Azizova, D.Nosirova, B.Teshaboyeva,U.Ismoilova, B.Egamberdieva "Savodga o'g'atish darslari".-: "Extremum-press", 2014.-119 b.
2. Uzviylashtirilgan o'g'uv dasturi. - T.: Yangiyo'l poligraf service, 2012. - 46-68 b.
3. B.Tuxliev va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2019.
4. Ashrapova T., Odilova M. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi.- T: 2014.

HYDROCARBON SOLVENTS FROM THE RESIN OF UNDERGROUND GASIFICATION OF ANGREN COAL

Qodirova Feruza

Senior teacher of Namangan Institute of Engineering and Construction

No'monova Sohiba

Teacher of Namangan Institute of Engineering and Construction

Mo'ydinova Nilufar

Teacher of Namangan Institute of Engineering and Construction

Mukhtaraliyeva Mukhtasar

Teacher of Namangan Institute of Engineering and Construction

Abstract. The article discusses the technology of coal production, its components, ways of using it as fuel. Mainly information is given on technologies of gasification of coal from Angren coal mine, and information on methods is also given.

Key words: coal, gasification, extraction, technological methods, raw materials

Coking resin can be used as a raw material for the production of hydroaromatic solvents.

The resources of raw materials for valuable solvents can also be expanded at the expense of those quantities of underground coal gasification (UCG) tar, which will be obtained under the condition of industrial implementation of underground gasification of Angren coals. The properties and chemical composition of resins for semi-coking and underground coal gasification are identical. This allows the development of a number of similar processes based on them.

In contrast to semi-coking resin, CCGT resin was subjected to heat treatment at the first stage under a hydrogen pressure of 40 atm. and a temperature of 400°C. The experiments were carried out on a laboratory microinstallation with a reactor volume of 20 ml.

№	Resin Sample Characteristic	
1	Density at 20°C, g/cm ³	1,0343
2	Relative molecular weight	213
3	Viscosity at 50 °C, m ² /s (eat)	18,5.10 ⁻⁶ (18,5)
4	The amount of insoluble substances in C ₆ H ₆ , %	0,26
5	Ash content, %	0,055
Fractional composition, %:		
1	distillation to 100°C	2,7
2	100 — 200°C	4,5

3	200 — 250°C	25,0
4	250 — 300°C	18,5
5	remainder above 300°C	49,3

Thermal hydrogenation contributed to the production of a product in which the content of aromatic hydrocarbons increased from 32% to 76.5%. The yield of the hydrogenate in the optimal experiment at a space velocity of 1.5–2.0 h⁻¹ was 95%. Hydrogenate fraction 200–300°C was isolated by distillation, which was subjected to hydrogenation on a nickel-molybdenum catalytic system at 300°C, space velocity 0.5 h⁻¹, pressure 50 atm, and hydrogen molar concentration 7:1. The composition and properties of the hydrogenation feedstock, the conditions for an optimal hydrogenation experiment, and the characterization of the hydrogenation product are given above.

The composition and properties of the feedstock for the production of solvents

Density at 20°C, g/cm ³	1,0238
Index of refraction, n_d^{20} at 20°C	1,5820
Drum index coefficient. Z	36
Viscosity, m ² /s (cst)	13,2 · 10 ⁻⁶ (13,2)
Relative molecular weight	171
Iodine number mg ioa/100 g	31,14
Amount of sulfonated hydrocarbons %, mass	97,5

Boiling limits, °C: H. κ – 223; 10% - 235; 20% - 247; 30% - 255; 50% - 280; 70% - 288; 80% - 298, 92% - 300.

Conditions for an optimal hydrogenation experience and characterization of the hydrogenate:

1	Catalyst	“Nickelmolybdenum system”
2	Temperature, °C	300
3	Volumetric velocity, ch ⁻¹	0,5
4	Yield of hydrogenate, % mass.	92
5	Hydrogen consumption, %	1,4
6	Hydrogenizate viscosity, m ² /s (cst)	6,2 · 10 ⁻⁶ (6,2)
7	Density at 20°C, g/sm ³	0,9222
8	Relative molecular weight	189
9	Refractive index, n_d^{20} at 20°C	1,4993
10	Iodine number, mg iodine/100 g.	15,5

The data show that the hydrogenation process contributed to a significant decrease in the viscosity of the product, saturation of unsaturated hydrocarbons. The results of narrow fractionation, the data of which are given in table. 1 show that the hydrogenation process made it possible to obtain not only medium-boiling, but also some low-boiling hydrocarbons. The values of the index of refraction of the isolated

fractions indicate the content of predominantly hydroaromatic hydrocarbons in them. The absence of pure samples of hydrogenated hydrocarbons and their homologues did not allow us to characterize these fractions in more detail [1].

Table 1 - Results of narrow fractionation of pyrocondensate after hydrofinishing

Boiling limits, °C	Exit %	Refractive index при 20°C	Boiling limits, °C	Exit, %	Refractive index при 20°C
Н.к.87,6	-	-	196,7-204,6	1,3	1,4880
87,6-100,7	2,7	1,4392	204,6-208,6	-	-
100,7-107,6	-	-	208,6-209,6	1,5	1,4900
107,6-109,6	1,3	1,4340	209,6-212,6	2,8	1,4910
109,6-122,8	-	-	212,6-220,7	-	-
122,8-136,0	3,7	1,4350	220,7-221,7	3,2	1,4930
136,0-143,4	1,1	1,4403	221,7-222,7	-	-
143,4-144,0	-	-	222,7-225,7	2,6	1,4960
144,0-146,0	2,3	1,4480	225,7-227,7	-	-
146,0-162,7	-	-	227,7-232,7	5,3	1,5010
162,7-164,7	1,3	1,4570	232,7-239,9	-	-
164,7-165,0	-	-	239,9-244,0	8,2	1,5060
165,0-168,5	2,9	1,4603	244,0-246,6	-	-
168,5-174,5	-	-	246,6-251,6	5,3	1,5120
174,5-177,5	2,7	1,4640	Remainder above 251,6	37,0	-
177,5-185,2	8,0	1,4710			
185,2-194,7	-	-	Static delay + loss	3,1	-
194,7-196,7	3,7	1,4815	-	3,1	-

Of interest is the fact that the entire resin of underground coal gasification was used as a raw material, without preliminary separation of phenols and bases from it. The economic feasibility of the technology for obtaining hydroaromatic hydrocarbons during the processing of resin is indisputable. It eliminates the inevitable loss of part of the raw material during its dephenolization and depyridination.

Literature

1. Кодиров, Д. Т., & Кодирова, Ф. М. (2021). Алгоритмы совместного оценивания вектора состояния и параметров динамических систем. *Universum: технические науки*, (7-1 (88)), 66-68.
2. Kodirov, D. T., Kodirova, F. M., Haydarov, B., & Negmatov, U. (2020). Algorithms For Stable Estimation Of The Extended State Vector Of Controlled Objects. *Solid State Technology*, 63(6), 14903-14909.
3. Kodirova, F. U. (2019). Modern Approaches to Preparing Disabled Children for Social Life in Uzbekistan.

4. Кодиров, Д. Т., Кодирова, Ф. М., & Юлдашбаев, А. А. (2022). АНАЛИЗ АЛГОРИТМОВ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЦЕССОМ НИЗКОТЕМПЕРАТУРНОЙ СЕПАРАЦИИ. *Главный редактор: Ахметов Сайранбек Махсutowич, д-р техн. наук; Заместитель главного редактора: Ахмеднабиев Расул Магомедович, канд. техн. наук; Члены редакционной коллегии*, 39.
5. Кодиров, Д. Т., & Кодирова, Ф. М. (2020). ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ЭНЕРГОНОСИТЕЛИ БУДУЩЕГО. *Вестник Науки и Творчества*, (5 (53)), 50-53.
6. Эшмухамедов, М. А., & Кадырова, Ф. М. (2018). Гидрирование непредельных углеводородов углекислотного происхождения на никелевом катализаторе. *Рецензент: ЕА Лисица главный врач филиала Федерального бюджетного учреждения здравоохранения «Центр гигиены и эпидемиологии в Хабаровском крае, в городе Комсомольске-на-Амуре, Комсомольском районе» Редакционная коллегия*, 123.
7. Qodirova, F. CURRENT ISSUES AND STRATEGIES OF PREPARING THE CHILDREN WITH LIMITED ABILITIES FOR SOCIAL LIFE IN UZBEKISTAN.
8. Feruza, Q. (2022). TECHNOLOGY FOR PROCESSING CARBON DIOXIDE EXHAUSTED FROM THE MIXTURE OF EXHAUST GAS FLOWS. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(9), 252-255.
9. Qodirova, F. (2022). PRODUCTION OF PRODUCTS FROM RESINS OF UNDERGROUND COAL GASIFICATION. *Science and innovation*, 1(A6), 129-132.
